# «Tenge Bank»ATBda
# jismoniy shaxslarga xizmat ko`rsatish bo`yicha
# Universal shartnoma

*(2025 yil «31» yanvardan kuchga kiradi )*

*Toshkent 2025 yil*

## **1.** UMUMIY QOIDALAR

**1.1.** «Tenge Bank» ATBda jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatish bo'yicha Universal shartnoma O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga, Universal shartnomaga va uning Ilovalariga muvofiq «Tenge Bank» ATBda (bundan buyon matnda "Bank" deb yuritiladi) jismoniy shaxslarga masofaviy kompleks bank xizmatlarini ko'rsatish tartibini belgilaydi.

Universal shartnomaga qo'shilish O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 360-moddasi, 367-moddasi, 369-moddasining 2-qismi va 370-moddasiga muvofiq quyidagi yo`l bilan amalga oshiriladi:

**а).** Mijoz tomonidan Bank va amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq Mijozni identifikatsiyadan o`tkazish uchun, Universal shartnoma doirasida Bank tomonidan ko'rsatiladigan barcha bank xizmatlarini taqdim etish uchun zarur bo'lgan Ariza-Anketaning (2-ilova) imzolanishi; va/yoki

**б).** «Tenge Bank» ATBda jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatish bo'yicha Universal shartnomaga qo'shilish to'g'risida Ommaviy ofertani aktseptlash (1-ilova). Bank tomonidan identifikatsiya qilinmagan Mijoz tomonidan Ommaviy oferta aktseptlanganda, Bank Universal shartnoma bo'yicha cheklangan miqdordagi bank chakana xizmatlarini ko'rsatadi; va/yoki

**в).** Universal shartnomaning Ilovalarini va/yoki Bankning moliyaviy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha Ofertalarini aktseptlash.

Agar qonunchilikda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, Bank Mijoz tomonidan Bankka taqdim etilgan ma'lumotlar asosida Mijozga xizmatlar taqdim etish to'g'risida qaror qabul qiladi. Bunday holda, Bank Mijozdan qo'shimcha ma'lumot so'rashga, shuningdek davlat ma'lumotlar bazalari va/yoki tashqi manbalar orqali Mijoz haqidagi axborotni so'rashga haqlidir.

Avval tuzilgan Universal shartnoma doirasida alohida Shartnomalar tuzish uchun Mijoz Bankka, rasmiylashtirilgan Arizani, shu jumladan Autentifikatsiya ma'lumotlari, kirish Kodlari va/yoki ushbu Shartlar bilan belgilanadigan tartibda Oddiy elektron imzo bilan imzolangan Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali taqdim etadi.

Arizani rasmiylashtirish vaqtida Mijoz tomonidan Autentifikatsiya ma'lumotlarini, kirish Kodlarini kiritish (Bankka xabar berish) va/yoki Bankka Oddiy elektron imzo bilan imzolangan Arizani taqdim etish Bank va Mijoz o'rtasida Arizada bayon qilingan va Umumiy shartlarga muvofiq keladigan shartlarda Shartnoma tuzishni anglatadi.

**1.2.** www.tengebank.uz rasmiy saytda Mijozlar Bankning amaldagi Tariflari va Universal shartnomasi, shuningdek uning Ilovalari bilan tanishishlari mumkin.

**1.3.** Universal shartnoma ommaviy shartnoma ekanligini va bank va bir martalik xizmatlarning qiymati barcha Mijozlar uchun bir xil tarzda belgilanishini hisobga olib (O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida Mijozlarning ayrim toifalari uchun imtiyozlar berishga yo'l qo'yilgan yoki qo'shimcha individual shartlar berilishi mumkin bo'lgan hollar bundan mustasno) va shartnomaga o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar, shu jumladan ularga Ilovalar, Ilovalarning miqdorlar va tarkibi, shuningdek bank mahsulotini taqdim etish to'g'risidagi shartnomalar va Bank Tariflari faqat Bank tomonidan tashabbus qilinishi mumkin.

**1.4.** Tomonlar, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi normalari va/yoki To'lov tizimlari qoidalari o'zgarishi va/yoki Bank tomonidan yangi mahsulotlar/xizmatlar taqdim etilishi munosabati bilan va/yoki bank mahsulotini taqdim etish texnologiyasi va/yoki Sodiqlik dasturlari shartlarining o'zgarishi bilan va/yoki Bankning mustaqil ixtiyoriga ko'ra Universal shartnomaga, shu jumladan Universal shartnomaning Ilovalariga, bank mahsulotlarini taqdim etish to'g'risidagi shartnomalariga va Bank Tariflariga Bank o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar kiritish huquqiga ega ekanligiga kelishib oldilar.

**1.5.** Bank Mijozga Universal shartnomaning, “Umumiy shartlar” Universal shartnomasiga Ilovaning va Bank Tariflarining yangi (o'zgartirilgan) tahriri to'g'risida o'zgartirish va/yoki qo'shimcha kiritishning kutilayotgan sanasidan kamida 10 (o'n) kalendar kun oldin xabarnoma yuborish yo'li bilan o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar kiritadi, o'zgartirishga shartlashilgan o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar kiritish hollari bundan mustasno.

Amaldagi qonunchilik yoki yangi bank mahsulotini joriy etish yoki Bankning nomi yoxud yuridik/pochta manziliga o'zgartirishlar kiritilganda, bunda xabar berish muddati quyidagi usullardan (Bank tanloviga ko`ra) biri bilan kamida 1 (bir) kalendar kunni tashkil etadi:

– masofaviy xizmat ko'rsatish imkoniyatlari orqali, shu jumladan Mijozning Shaxsiy kabinetiga tegishli elektron xabarnomani yuborish orqali;
– tegishli e'lonni va yangi tahrirni (o'zgartirish/qo'shimchalar) Internetdagi Bankning www.tengebank.uz saytiga joylashtirish orqali

**1.6.** Agar Universal shartnomaning 1.5-bandiga muvofiq kiritilgan o'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalar kuchga kirgunga qadar, Bank Mijozdan Universal shartnomani bekor qilish to'g'risida yozma ariza olmagan bo`lsa, bu holat kiritilgan o'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalar bilan Mijoz so'zsiz va to'liq rozi ekanligi hisoblanadi. Bunda Universal shartnomaga o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar to'g'risidagi kelishuvning yozma shakli O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 366-moddasiga muvofiq bajarilgan hisoblanadi.

**1.7.** O'zgartirilgan va/yoki to'ldirilgan Universal shartnoma bilan Mijoz rozi ekanligining qo'shimcha tasdig`i bo`lib, Mijozning Operatsiyalarni amalga oshirishi/o'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalar va/yoki Universal shartnomaning/Bank Tariflarining yangi tahriri kuchga kirgandan keyin Ariza taqdim etishi hisoblanadi.

## 2. ATAMALAR VA TA'RIFLAR

***Abonent qurilmasi*** - Universal shartnoma doirasida o'zaro harakat qilish uchun ma'lumotlar uzatish tarmog'iga (Internet) ulanadigan shaxsiy kompyuter, planshet, smartfon yoki boshqa qurilma.

***Avtorizatsiya*** - Operatsiyani amalga oshirish to'g'risidagi so'rovda mavjud bo'lgan Operatsiyani o`tkazishning qonuniyligini tasdiqlovchi axborot xavfsizligi elementlarini tekshirish asosida Bank/Protsessing markazi tomonidan taqdim etiladigan Karta va/yoki hisobvaraqdan yoki uning rekvizitlaridan foydalangan holda Operatsiyalarni amalga oshirish uchun ruxsatnoma.

***Elektron pochta manzili*** - Bankdan xabarlar va Tekshiruv kodini olish uchun Ariza-Anketani to'ldirishda Mijoz tomonidan ko'rsatilgan elektron pochta manzili. Universal shartnoma doirasida Mijoz bir vaqtning o'zida faqat bitta elektron pochta manziliga ega bo'lishi mumkin. Mijozning arizasiga binoan elektron pochta manzili o'zgartirilishi mumkin.

***Autentifikatsiya*** - Login, Parol yoki Tekshiruv kodini to'g'ri kiritish natijasida MBXdan foydalanish huquqini tasdiqlovchi tekshirish protsedurasi. Autentifikatsiyaning ijobiy natijasi barcha harakatlar Mijoz tomonidan shaxsan amalga oshirilishini tasdiqlaydi, shuningdek Login, Parol yoki Tekshituv kodini kiritishni qog`oz hujjatidagi qo'lda yozilgan imzoga teng deb tan oladi.

***Bank mahsuloti*** - Mijozning muayyan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan (masalan, Kartani ochish, Depozitni joylashtirish, Kredit berish va h. k.) va Bank tomonidan faqat «Tenge Bank» ATB tomonidan chiqarilgan Mijoz kartasini Mobil bankka qo'shgandan keyingina va mobil telefon Raqami SMS-axborot raqami bilan mos kelgan taqdirda amalga oshiriladigan oldindan belgilangan xususiyatlarga (parametrlarga) ega bo'lgan alohida bank xizmati yoki funktsional ravishda buyurtma qilingan bank xizmatlari va yordamchi harakatlar to'plami.

***Benefitsiar egasi*** – Mijoz bilan tuzilgan shartnoma asosida Mijoz tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga bevosita yoki bilvosita (uchinchi shaxslar orqali) muhim ta'sir ko'rsatish, Mijozning daromadlari miqdoriga ta'sir ko'rsatish uchun o'z vakolatlaridan foydalanish huquqiga (imkoniyatiga) ega bo'lgan jismoniy shaxs, jismoniy shaxs Mijoz tomonidan bitimlarni (shu jumladan, kredit tavakkalchiligini keltirib chiqaradigan (kreditlar, kafolatlar va boshqalarni berish to'g'risida), shuningdek moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish to'g'risida qabul qilinadigan qarorlarga ta'sir ko`rsatish imkoniyatiga ega. Ushbu shaxs Mijozning – jismoniy shaxsning benefitsiar egasi hisoblanadi, Benefitsiar egasi boshqa jismoniy shaxs ekanligiga ishonish uchun asoslar mavjud bo'lgan holler bundan mustasno.

***Dam olish kunlari*** - Amaldagi qonunchilikka muvofiq shanba, yakshanba va ishlamaydigan bayram kunlari.

***Amaldagi Qonunchilik*** - O'zbekiston Respublikasining amaldagi normativ-huquqiy hujjatlari, ya'ni qonunlar, qonunosti hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining normativ hujjatlari va qarorlari (farmoyishlari, xatlari), ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnomalar va kelishuvlar.

***Bank mahsulotini taqdim etish to'g'risidagi shartnoma (Shartnoma)*** – Bank va Mijoz o'rtasida Universal shartnoma doirasida, Umumiy shartlarda ko'rsatilgan tartibda va shartlarda tuziladigan, shuningdek O'zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligida va elektron hujjat aylanishi to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda bitimni oddiy yozma shaklda amalga oshirish talabini qondiradigan hamda bitim tuzayotgan shaxsning jismoniy hozirligi (shaxslarning o'zaro hozirligi) bilan amalga oshiriladigan bitimlarga o'xshash yuridik oqibatlarga olib keladigan shartnoma/oferta. Bunday Shartnomalar, harakatlar faqat qog'ozda tuzilgan hujjatlar bilan tasdiqlanmaganligi asosida nizolanishi mumkin emas.

***Masofaviy bank xizmati (MBX)*** - Autentifikatsiya ma'lumotlari va/yoki Kirish kodlari yordamida operatsiyalarni amalga oshirish va/yoki Mijozning arizalariga ishlov berish bo`yicha farmoyishlarni shakllantirish va bajarish va/yoki Mijoz va Bank o'rtasida tuzilgan shartnomalar bo'yicha, Bankning Aloqa -Markazi telefon bo`yicha va/yoki Internet tarmog`ida Bankning sayti va/yoki Internet-Bank va/yoki Mobil Bank va/yoki Bankning Mobil ilovalari va/yoki Internet tarmog`idagi boshqa xizmat ko'rsatish kanallari (shu jumladan elektron pochta/chatar) va/yoki uyali radiotelefon aloqa kanallari, shu jumladan SMS –xabarnoma va Push-bildirishnomalar.

***Shaxsni tasdiqlovchi hujjat (SHTH)*** – O'zbekiston Respublikasi fuqarosining biometrik, shu jumladan chet elga chiqish uchun pasporti, harbiy qismlar va harbiy muassasalar qo'mondonligi tomonidan berilgan harbiy xizmatchilarning shaxsiy guvohnomasi yoki harbiy biletlari (harbiy xizmatga majbur fuqarolarning harbiy biletlari bundan mustasno), O'zbekiston Respublikasining ID kartalari, yangi namunadagi haydovchilik guvohnomasi, chet el fuqarosining pasporti yoki chet el fuqarosining O'zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning O'zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi.
14 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan voyaga etmaganlarga bank xizmatlarini ko'rsatish uchun shaxsni tasdiqlovchi hujjat ID karta va/yoki biometrik pasport, shu jumladan chet elga chiqish uchun.

***Mavjud pul mablag`lari*** - Mijoz Operatsiyalarni amalga oshirishi mumkin bo'lgan Hisobvaraq/Karta/Hamyondagi pul mablag`lari qoldig'i. Mavjud pul mablag`lari Mijozning Hisobvarag`idagi/Kartasidagi/Hamyonidagi o'z mablag'lari qoldig'i va Karta bo`yicha amalga oshirilgan Operatsiyalarning avtorizatsiya qilingan summalarini chegirib tashlangan foydalanilmagan overdraft limiti summasiga teng.

***Qarzdorlik*** - Universal shartnoma bo'yicha Mijoz tomonidan Bankka to'lanishi kerak bo'lgan barcha pul summalari, shu jumladan so`ndirilmagan kredit summasi, hisoblangan, ammo to'lanmagan foizlar, neustoykalar va tegishli Shartnomada, Bank Tariflarida, shuningdek Amaldagi qonunchilik normalarida nazarda tutilgan boshqa to'lovlar.

***Ariza*** - Bank tomonidan belgilangan shaklda tuzilgan va Mijoz tomonidan imzolangan, Universal shartnomaning muhim shartlari/bank mahsulotini taqdim etish to`g`risidagi Umumiy shartlari ko'rsatilgan elektron yoki qog'oz shaklidagi hujjat. Ariza bank mahsulotini taqdim etish to`g`risidagi Universal shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi. MBX orqali beriladigan Ariza Mijoz tomonidan MBX interfeysidagi tegishli operatsiyani tasdiqlash tugmachasini bosish orqali aktseptlanishi kerak.

***Ariza-anketa*** - Mijozning Universal shartnomaga qo'shilish niyatini o'z ichiga olgan Bankka yuborilgan Mijozning yozma taklifi (oferta), unda Bank va Amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq Mijozni identifikatsiya qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar, Mijozning aloqa ma'lumotlari, shuningdek Universal shartnomaning tegishli Umumiy shartlari doirasida alohida Shartnoma (Shartnomalar) tuzish uchun Ariza.

***Identifikatsiya*** – O`zbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni

moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchiligida belgilangan tartibda Mijoz to`g`risidagi ma`lumotlarni o`rnatish bo`yicha, hujjatlarning asl nusxalari va/yoki tegishli tarzda tasdiqlangan nusxalardan foydalangan holda ushbu ma'lumotlarning ishonchliligini tasdiqlash bo`yicha chora-tadbirlar majmui. Mijoz tomonidan taqdim etiladigan SHTHlar Bankka taqdim etilgan sanada amalda bo`lishi kerak.

***Axborot operatsiyasi*** - Bank tomonidan Mijozga Hisobvaraqlar/Kartalar/Hamyonlarning holati va ulardan foydalanish, Hisobvaraqlar/Kartalar/Hamyonlar bo'yicha o`tkazilgan operatsiyalar, shuningdek Hisobvaraqlar/Kartalar/Hamyonlar bo'yicha ko'chirmalar va boshqa operatsiyalar yoki Bankning Masofaviy bank xizmati/Aloqa-markazi orqali Mijozning Autentifikatsiyasi fakti bo`yicha axborot berish bo'yicha operatsiya.

***Karta*** – pul mablag`lari bilan naqd pulsiz hisob-kitoblar vositasi hisoblangan va Maxsus karta hisobvarag'i bo`yicha operatsiyalarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan Protsessing markaziga tegishli bo`lgan har qanday bank kartasi. Kartadan foydalangan holda hisob-kitoblar Amaldagi qonunchilikka, ushbu Universal shartnomaga va Karta tegishli bo'lgan Protsessing markazining qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi. Universal shartnoma matnida Karta deganda, agar Universal shartnomada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, «Tenge Bank» ATB yoki O'zbekiston Respublikasining boshqa har qanday tijorat banki tomonidan chiqarilgan Karta tushunilishi mumkin. Universal shartnomaning Umumiy shartlarida «Карта» atamasiga alohida ta'rif berilishi mumkin.

***Mijoz*** - Bank bilan Universal shartnoma tuzgan jismoniy shaxs (rezident yoki norezident).

***Kodli so'z*** - Mijoz Bankning Aloqa-markaziga murojaat qilganida uni autentifikatsiya qilish uchun Bank tomonidan ishlatiladigan raqamli va/yoki harfli kod (so'z)

Mijoz tomonidan haqoratli so'zlar, shuningdek adabiy til normalariga mos kelmaydigan so'zlar va iboralar (shu jumladan odobsiz so'zlar) yordamida Kodli so'zni taqdim etishga yo'l qo'yilmaydi.

***Kirish kodlari*** - PIN-kod, grafik, raqamli va/yoki harf kodlari bo'lib, Mijoz MBX kanallari orqali Bankka murojaat qilganda uni autentifikatsiya qilish imkonini beradi.

***Aloqa-Markazi*** - Bank manfaatlarini ko'zlab murojaatlarga ishlov berish va Mijozlarni ovozli va elektron aloqa kanallari orqali xabardor qilish bilan shug'ullanadigan Bankning tarkibiy bo'linmasi, shuningdek bank mahsulotlari va xizmatlarini sotish kanallaridan biri. Aloqa-Markazi - bu Mijozga rasmiy telefon aloqa kanali orqali (Saytda ko'rsatilgan mijozlarni qo`llab-quvvatlash telefon raqami bo`yicha) muvaffaqiyatli Autentifikatsiya qilinganidan so'ng, Bank (vakolatli xodim, shaxs) ishtirokida ma'lumotnoma axborotlarini olish, Universal shartnomada nazarda tutilgan tartibda va shartlarda bank xizmatlarini olish uchun ariza berish imkonini beradigan servis.

***Komprometatsiya*** - Kirish kodlari yoki Autentifikatsiya ma'lumotlarining yo'qolishi, Kirish kodlari yoki Autentifikatsiya ma'lumotlarining yo'qolishiga shubha yoki uchinchi shaxslarning Kirish kodlariga yoki Autentifikatsiya ma'lumotlariga kirishi haqida shubha paydo bo'lishi.

***Kredit*** -kredit shartnomasi, kredit karta shartnomasi va Bankning kredit mahsulotlarini taqdim etish bo'yicha boshqa shartnomalar shartlarida Bank tomonidan Mijozga naqd/naqd pulsiz berilgan pul mablag'lari.

***Kredit karta*** - operatsiyalarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan bank to'lov kartasi bo`lib, ular bo`yicha hisob-kitoblar Bank tomonidan Mijozga belgilangan limit doirasida berilgan pul mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi.

***Kredit limiti*** - bu Bank tomonidan belgilanadigan muddat davomida ma'lum bir kredit mahsuloti doirasida Bank Mijozga taklif qilishga/taqdim etishga tayyor bo'lgan maksimal pul mablag`lari miqdori. Kredit limiti Bank tomonidan Mijozning daromadlari va/yoki xarajatlari, joriy qarz yuki, kredit tarixi ma'lumotlari va boshqa mavjud manbalarni o'rganishni o'z ichiga olgan Mijozning

to'lov qobiliyati asosida Bank mahsulotlari bo'yicha yoki Mijozning so`roviga binoan Mijozga shaxsiy taklifni shakllantirish maqsadida belgilanishi mumkin.

Taqdim etilgan Kredit limiti bo'yicha kredit berish Mijozning Arizasiga binoan Kredit shartlariga muvofiq va ommaviy oferta asosida – tegishli mahsulot bo'yicha Universal shartnomaning Ilovalari yoki tuzilgan kredit shartnomasi shartlari asosida amalga oshiriladi.

***Shaxsiy kabinet*** - Bank saytidagi yoki Bankning mobil ilovasidagi kabinet, unga kirish (Autentifikatsiya faktiga ko'ra) Mijozga MBXga kirish huquqini beradi.

***Login*** - bu Bank tomonidan Mijozga berilgan raqamli belgilarning noyob ketma-ketligi bo`lib, bu Shartnomada belgilangan hollarda Mijozni Verifikatsiya qilishga imkon beradi. Verifikatsiya jarayonida Mijoz tomonidan kiritilgan Login Mijozga berilgan va Bankning axborot bazasida joylashgan Loginga muvofiq kelishi kerak. Login faqat Mijozga beriladi. Mijoz Vakiliga (shu jumladan Ishonchli shaxsga)/ Kirituvchiga Login berilmaydi.

***Mobil bank*** - Mijozga Bankning vakolatli xodimi ishtirokisiz, mobil qurilmaga (mobil telefon, smartfon, planshet, kompyuter va boshqalar) oldindan o'rnatilgan mobil ilova yoki Bank veb-sayti orqali Autentifikatsiya qilish fakti bo`yicha uning nomiga ochilgan barcha Hisobvaraqlar va Bank mahsulotlari bo`yicha axborot olish, Arizalar berish, shu jumladan Bank mahsulotlarini sotib olish va Bir martalik operatsiyalarni amalga oshirish, shuningdek bank xizmatlari va Axborot operatsiyalari to'g'risida ma'lumotnoma axborotlarini olish imkoniyatini beruvchi MBX servisi.

***Mobil telefon raqami*** - Mijozga ko`chma mobil uyali radiotelefon aloqasi operatori tomonidan aloqa xizmatlarini ko'rsatish shartnomasiga muvofiq taqdim etilgan va Mijoz tomonidan Bankka MBX doirasida Bank bilan axborot va shartnomaviy hamkorlik uchun asosiy aloqa raqami sifatida taqdim etilgan uyali telefon raqami.

***Operatsiya*** - Amaldagi qonunchilikka, Universal shartnomaga, Bank Tariflariga (zarur hollarda) va Protsessing markazlari qoidalariga (zarur hollarda) muvofiq amalga oshiriladigan har qanday operatsiya, bu pul mablag'larining harakatlanishiga olib keladigan, bu Hisobvaraqqa/Hisobvaraqdan, Hamyonga/Hamyondan, Kartaga/Kartadan o`tkazish/hisobdan chiqarish yoki pul mablag`larini Hisobvaraqqa/Hisobvaraqdan, Hamyonga/Hamyondan, Kartaga/Kartadan o'tkazish, naqd pul mablag`larini berish va boshqalar.

***Parol*** - Mijozga berilgan Login bilan bog'liq bo'lgan raqamli va harf belgilarining ketma-ketligi, bu Mijozni Autentifikatsiya qilish tartib-taomilini aniq bajarishga imkon beradi. Parol Mijoz tomonidan Mobil bankda ro'yxatdan o'tishda mustaqil ravishda o'rnatiladi.

***Pul mablag 'larini o' tkazish*** — O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Sheriklari yoki hisob-kitob tarmog'i (bank o'tkazmasi) orqali, shuningdek Bankda ochilgan hisobvaraqlardan (hisobvaraqlarga) pul mablag 'larini o' tkazish.

***PIN-kod*** - Bank/Protsessing markazi tomonidan har bir Kartaga beriladigan yoki Mijoz tomonidan MBX kanallari orqali mustaqil ravishda beriladigan va bankomatlarda, terminallarda va hokazolarda Kartadan foydalangan holda operatsiyalarni amalga oshirishda Mijozni identifikatsiya qilish uchun xizmat qiluvchi, shuningdek, karta hisobvarag`ida hisobga olingan pul mablag'larini tasarruf etish huquqini tasdiqlovchi, farmoyish karta Saqlovchisi tomonidan berilganligini tasdiqlovchi, shuningdek, Kartada saqlanadigan axborotlarga uchinchi shaxslarning kirishini cheklovchi raqamli shaxsiy identifikatsiya raqami. PIN-kod maxfiy axborot bo'lib, sir saqlanishi kerak. PIN - kodni tayinlash usuli Bank va/yoki Protsessing markazi tomonidan belgilanadi.

***Tasdiqlash oynasi*** - Mijozning Shartnomaning barcha muhim shartlari va Bank Tariflari bilan roziligini tasdiqlovchi, shuningdek, ushbu Universal shartnomaning ilovasida bayon qilingan Shartnomaning Umumiy shartlari bilan Mijozning to'liq va so'zsiz roziligini bildiruvchi harakati. Tasdiqlash oynasi yordamida amalga oshirilgan Mijozning barcha harakatlari nizolashilmaydi va

Mijoz tomonidan shaxsan sodir etilgan deb tan olinadi va Amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq Mijoz uchun qo'lda shaxsan qo`yilgan imzo bilan imzolaganga analogik ravishda yuridik oqibatlarga olib keladi.

***Topshiriq*** - MBX orqali Bankka taqdim etiladigan elektron yoki yozma shakldagi hujjat bo'lib, Mijozning Topshiriqda belgilangan summani Hisobvaraqdan/Kartadan/Hamyondan mablag` oluvchining Hisobvarag`iga/Kartasiga/Hamyoniga o'tkazish, shuningdek Bank mahsulotlarini sotib olish va boshqa operatsiyalarni amalga oshirish to'g'risida Bankka farmoyish berishini nazarda tutadi. MBX orqali berilgan Topshiriq Mijoz tomonidan MBXning tegishli interfeysidagi Tasdiqlash oynasida Operatsiyani tasdiqlash yordamida va/yoki Tekshirish kodi (texnik imkoniyat mavjud bo'lgan taqdirda) bilan aktseptlanishi kerak.

***Yetkazib beruvchi*** - o'zi sotayotgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) va/yoki raqamli elektron kontent uchun Hisobvaraq/Karta orqali elektron to'lovlarni texnik va yuridik jihatdan qabul qilishga imkon beradigan xo'jalik yurituvchi sub'ekt.

***Mijozning vakili (Vakili)*** – vakolatlari faqat notarial tasdiqlangan ishonchnomaga asoslangan (yoki Amaldagi qonunchilikka muvofiq unga tenglashtirilgan) Mijoz nomidan va uning manfaatlarida yoki Mijoz hisobidan faoliyat yurituvchi jismoniy shaxs. Mijozning Vakili Universal shartnomaga muvofiq harakatlarni amalga oshirishga haqli, Universal shartnoma shartlariga muvofiq Mijoz tomonidan shaxsan amalga oshirilishi kerak bo'lganlardan tashqari.

***Tekshiruv kodi*** - Bank tomonidan generatsiya qilingan va Mijozga SMS-xabar ko`rinishida mobil telefon Raqamiga va/yoki Mijozning elektron pochta manziliga yuboriladigan maxsus bir martalik o'zgaruvchan kod. Tekshirish kodidan foydalangan holda amalga oshirilgan Mijozning barcha harakatlari e'tiroz qilinmaydi va Mijoz tomonidan shaxsan sodir etilgan deb tan olinadi va Amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq Mijoz uchun qo'lda shaxsan qo`yilgan imzo bilan imzoladanga analogik ravishda yuridik oqibatlarga olib keladi. Tekshirish kodini kiritish O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksining 370-moddasiga muvofiq Ommaviy ofertani akseptlash hisoblanadi.

***Protsessing markazi*** / To'lov tizimi - |Yagona umumrespublika protsessing markazi (YUPM) va/yoki Milliy banklararo protsessing markazi (HUMO) va/yoki Visa va/yoki boshqa to'lov tizimlari.

***Sodiqlik dasturi*** - Bankda faoliyat yuritadigan va Mijozni sodiqlik dasturiga qo'shilgan Sheriklardan tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotib olishga yoki bank mahsulotlari va xizmatlaridan foydalanishga undaydigan har qanday sodiqlik dasturi.

***Bir martalik operatsiya*** - Yetkazib beruvchilarning tovarlari (ishlari, xizmatlari) sotilishini to'lash, O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarni so`ndirish, pul mablag'larini Kartadan Kartaga o'tkazish va Amaldagi qonunchilikda ruxsat etilgan Mijozni Identifikatsiyalashsiz Bank tomonidan taqdim etiladigan boshqa bir martalik xizmatlar.

***Xarajatlar limiti*** - Amaldagi qonunchilikka va Bankning INHga muvofiq Bank tomonidan Hisobvaraq/Karta bo`yicha mablag'lardan foydalanish uchun belgilangan (Bankda bunday imkoniyat mavjud bo'lgan taqdirda).

***Muntazam topshiriqlar (avtomatik to'lov)*** - Mijozning tegishli arizasiga muvofiq amalga oshiriladigan, ularni bajarish davriyligi bilan pul mablag'larini o'tkazish bo'yicha topshiriqlar.

***Bankning sayti*** - Bankning Internet tarmog`idagi rasmiy sayti bo`lib, quyidagi manzilda joylashgan: www.tengebank.uz.

***Kirish vositalari*** - Shaxsiy kabinetga kirishda Mijozni Autentifikatsiya qilish uchun mo'ljallangan Login va Parol.

***Tomonlar*** - birgalikda eslatib o'tiladigan Bank va Mijoz.

***Hisobvaraq*** - Amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda, Shartnomaga muvofiq Bank tomonidan Mijozga ochilgan bank hisobvarag'i.

Universal shartnoma doirasida Mijozga bir nechta turdagi Hisobvaraqlar ochilishi mumkin, ular Universal shartnoma matni bo'yicha alohida eslatib o'tilganda quyidagilar hisoblanadi:

***Maxsus karta hisobvarag'i (SCS, karta hisobvarag'i)*** - bank kartasi yoki uning rekvizitlari yordamida amalga oshiriladigan Operatsiyalar bo`yicha pul mablag'lari hisobini yuritish uchun mo'ljallangan bank hisobvarag'i;

***Muddatli omonat hisobvarag'i*** - muddatli omonat hisobini yuritish uchun, shuningdek joylashtirilgan pul mablag'lari summasiga hisoblangan foizlar ko'rinishidagi daromadlarni olish uchun mo'ljallangan bank hisobvarag'i;

***Jamg`arma omonat hisobvarag'i*** – jamg`arma omonati hisobini yuritish uchun, shuningdek joylashtirilgan pul mablag'lari summasiga hisoblangan foizlar ko`rinishida daromad olish uchun mo'ljallangan bank hisobvarag'i;

***Talab qilib olinguncha hisobvaraq*** – jismoniy shaxslarning joriy maqsadlarda foydalaniladigan mablag'lari hisobini yuritish uchun mo'ljallangan bank hisobvarag'i;

***Ssuda hisobvarag'i*** - Bank bilan tuzilgan kredit shartnomalari, qarz shartnomalari (mikroqarz), overdraft bo'yicha kredit majburiyatlarini bajarish bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirishda foydalaniladigan bank hisobvarag'i;

***Masofaviy hisob (Hamyon)*** - MBX tizimlari orqali boshqariladigan jismoniy shaxslarning bank hisobvaraqlaridagi mablag'lar hisobini yuritish uchun foydalaniladigan bank hisobvarag'i.

***Bank Tariflari*** - Bank tomonidan Mijozga xizmat ko'rsatishning moliyaviy va boshqa shartlarini, shu jumladan stavkalar, komissiyalar, neustoykalar, foizlar va boshqalarni belgilaydigan Bank tomonidan tasdiqlangan hujjatlar. Bank Tariflari Bank saytida joylashtiriladi va Universal shartnomaning va/yoki Universal shartnomaning Umumiy shartlari (Universal shartnomaning Ilovalari) doirasida tuziladigan tegishli shartnomalarning ajralmas qismi hisoblanadi.

***Universal shartnoma*** - Mijoz va Bank o'rtasida Mijozni bank xizmatlarini taqdim etishga qo'shish orqali tuziladigan shartnoma bo`lib, unda Shartnomalar tuzish va Mijozlarga xizmatlar taqdim etish shartlari va tartibi nazarda tutiladi. Ushbu Universal shartnoma va uning Ilovalari, Bank Tariflari, shuningdek Mijoz tomonidan tegishli ravishda to'ldirilgan va imzolangan Ariza-Anketa va/yoki Ommaviy oferta birgalikda Mijoz va Bank o'rtasida «Tenge Bank» ATBda jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatish bo'yicha Universal shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

***SMS-axborot*** - Mijozga taqdim etiladigan Bank / Protsessing markazining xizmati bo`lib, Mijozga mobil aloqa orqali Bankdan/Protsessing markazidan barcha Kartalardan/Hisobvaraqlardan pul mablag`larining kelib tushishi va xarajati, balans holati, kredit bo'yicha navbatdagi to'lov to'g'risida eslatmalar, shuningdek Universal shartnomaga muvofiq boshqa xabarlar/bildirishnomalar bilan axborotlar mobil telefon Raqamiga SMS-xabarlarni tezda qabul qilish imkonini beradi .

## 3. SHARTNOMA PREDMETI

**3.1.** Universal shartnomaning predmeti Bank tomonidan Mijozga Bank mahsulotlarini, xizmatlarini taqdim etish, Universal shartnomada va uning ilovalarida ko'rsatilgan MBX orqali Operatsiyalarni amalga oshirish tartibi va umumiy shartlari hisoblanadi.

**3.2.** Mijoz Universal shartnoma doirasida taqdim etiladigan har qanday Bank mahsulotlaridan ariza berish (yozma/elektron) va keyinchalik Universal shartnoma umumiy shartlariga va Tarifga tuzish/qo'shilish orqali foydalanish huquqiga ega.

Tuzilgan shartnoma Universal shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi. Shartnomaning amal qilish tartibi va sanasi tegishli Umumiy shartlar (Universal shartnomaga ilova) bilan belgilanadi va Mijoz bank xizmati/mahsuloti bo'yicha tegishli huquq va majburiyatlar ega bo`ladi. MBX orqali berilgan arizalar Mijoz tomonidan shaxsan topshirilgan deb hisoblanadi va o'z qo'li bilan imzolangan tegishli qog'oz hujjatlariga teng deb tan olinadi va shartnoma bo`yicha Tomonlarning analogik huquq va majburiyatlarini keltirib chiqaradi.

**3.3.** Universal shartnoma doirasida bank xizmatlarini ko'rsatish, agar Shartnomada boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, Bank tomonidan Mijozning bank bo'linmasidagi Arizalariga yoki MBXdagi so'rovlariga, Operatsiya (xizmat taqdim etish) amalga oshirilgan sanada amalda bo'lgan bank shartnomalari va tariflariga muvofiq amalga oshiriladi.

**3.4.** Ushbu Universal shartnomaga qo'shilisg orqali, Mijoz Bankka/Bank Sheriklariga Universal shartnoma, Shartnomalar va Mijoz va Bank o'rtasida tuzilgan boshqa shartnomalar tuzilishi munosabati bilan ish haqi loyihasi doirasida Bank bilan shartnoma tuzgan Mijoz, yuridik shaxs/yakka tartibdagi tadbirkor, shuningdek Bank tomonidan boshqa shaxslar bilan tuzilgan shartnomalar, shu jumladan, Mijoz ular bo`yicha vakil, sug`urtalovchi, sug'urtalangan shaxs yoki naf oluvchi bo'lgan sug'urtalovchilar tomonidan Bankka taqdim etilgan Mijozning shaxsga doir ma'lumotlariga, shuningdek quyidagi maqsadlar uchun Mijozning har qanday fotografik tasvirlariga (shu jumladan Mijozning roziligi bilan foto-video suratga olish yo'li bilan olingan) ishlov berishni (avtomatizatsiya vositalaridan foydalangan holda va/yoki foydalanmasdan qog'oz va/yoki elektron tashuvchilarda yig'ish, yozish, tizimlashtirish, to'plash, saqlash, aniqlashtirish (yangilash, o'zgartirish), olish, foydalanish, uzatish (tarqatish, taqdim etish, kirish, shu jumladan shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishni uchinchi shaxslarga topshirishda, shuningdek davlat va nodavlat ma'lumotlar bazalari tomonidan taqdim etishga o'tkazish, Mijoz to`g`risidagi ma`lumotlarni Bankka, moliya institutlariga, ma'lumotlar bazasi operatorlariga, shuningdek moliya institutlariga - barcha davlat va nodavlat ma'lumotlar bazalaridan to`g'ridan to'g'ri yoki uchinchi shaxslar orqali, O'zbekiston Respublikasining Amaldagi qonunchilik talablari va xalqaro huquq talablarini (xalqaro shartnomalar talablari) hisobga olgan holda shaxsga doir ma`lumotlarni ochiq manbalarda tarqatish, shaxsga doir ma'lumotlarni egasizlashtirish, blokirovka qilish, olib tashlash, yo'q qilish)  amalga oshirishga rozilik beradi:

- Mijoz tomonidan ko'rsatilgan ma'lumotlarning ishonchliligini tekshirish, shuningdek, Mijozning bank mahsulotlarini taqdim etish to'g'risidagi Arizalarini ko'rib chiqishda kredit qobiliyatini/to'lov qobiliyatini baholash, shu jumladan, agar ularni solishtirish/tekshirish zarur bo'lsa shaxsga doir ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga topshirish;
- Universal shartnomani bajarish va bekor qilish, shu jumladan bank operatsiyalarini amalga oshirish va barcha turdagi bank xizmatlarini ko'rsatish, mijoz va bank o'rtasida tuzilgan xavfsizlik shartnomalari va boshqa shartnomalarni, shuningdek bank tomonidan boshqa shaxslar, shu jumladan sug'urtalovchilar bilan tuzilgan shartnomalarni bajarish. mijoz vakili, polis egasi, sug'urtalangan shaxs yoki foyda oluvchi, shu jumladan mijozning shaxsiy ma'lumotlarini bunday shartnomalar bo'yicha ko'rsatilgan shaxslarga o'tkazish, shartnomalar bo'yicha kreditorning huquqlarini amalga oshirish munosabati bilan bank tomonidan bitimlUniversal shartnomani bajarish va bekor qilish, shu jumladan bank operatsiyalarini amalga oshirish va barcha turdagi bank xizmatlarini ko'rsatish, mijoz va bank o'rtasida tuzilgan xavfsizlik shartnomalari va boshqa shartnomalari, shuningdek bank tomonidan boshqa shaxslar, shu jumladan sug'urtalovchilar bilan tuzilgan shartnomalarni bajarish. mijoz vakili, polis egasi, sug'urtalangan shaxs yoki foyda oluvchi, shu jumladan mijozning shaxsiy ma'lumotlarini bunday shartnomalar bo'yicha ko'rsatilgan shaxslarga o'tkazish, shartnomalar bo'yicha kreditorning huquqlarini amalga oshirish munosabati bilan bank tomonidan bitimlar tuzish, shu jumladan huquqlarni (talablarni) uchinchi shaxslarga berish orqali;
- Shartnomalar bo'yicha qarzdorliklarni talab qilish (so`ndirish, undirish);
- Amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish, saqlash, shu jumladan elektron shaklda saqlash va Mijozning shaxsga doir ma'lumotlarini va bank sirini o'z ichiga olgan hujjatlarni tashish;
- Shartnomalar tuzish, bajarish va Bank tomonidan bunday shartnomalar bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini amalga oshirish, shu jumladan Mijozning shaxsga doir ma'lumotlarini auditorlarga va Bank tomonidan jalb etiladigan boshqa uchinchi shaxslarga bunday xulosalar va maslahatlar olish maqsadida o'tkazish bilan bog'liq har qanday shaklda xulosalar va maslahatlar olish;

- Bank tomonidan xizmatlar ko'rsatish doirasida moliyaviy xizmatlar sifatini yaxshilash va Mijozlar uchun eng maqbul va foydali takliflarni tanlash va Mijoz bo'yicha mavjud kredit limitini belgilash;
- Shaxsga doir ma'lumotlarni transchegaraviy uzatish;
- Bank tomonidan Mijoz bilan tuzilgan shartnomalarda, boshqa hujjatlarda ko'rsatiladigan boshqa maqsadlar.

Shu bilan birga, Bank Sheriklari deganda, Bank/Bankning affillangan shaxslari bilan bir xil bank xoldingiga kiruvchi, Bank bilan shartnomaviy (sheriklik) munosabatlarga ega bo`lgan kompaniyalar (sherik-banklar, auditorlar, sug'urtalovchilar, telekommunikatsiya tarmoqlari operatorlari va provayderlari, transport kompaniyalari, temir yo'l/aviakompaniyalari, konsalting, baholash kompaniyalari, supermarketlar, restoranlar va boshqa xususiy va davlat tashkilotlari, idoralar, yakka tartibdagi tadbirkorlar) tushuniladi.

Shuningdek, Mijoz Bank va Bank Sheriklariga quyidagilarga huquq (rozilik) beradi:

– Shaxsga doir ma'lumotlarning har qanday maxsus toifalariga va biometrik shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishni amalga oshirish, agar bunday shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish zarurati ushbu rozilikda ko'rsatilgan ishlov berish maqsadlari uchun yuzaga kelgan bo`lsa. - O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan hollarda, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida taqiqlanmagan har qanday qarzdorliklarni undirish bo`yicha tadbirlarni o'tkazish maqsadida boshqa banklar va/yoki tashkilotlarda Mijozning roziligisiz shaxsga doir ma'lumotlarni yig`ish va ishlov berish;
– kredit bo'yicha mavjud bo'lgan barcha axborotlar va ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining KADR (Kredit axboroti davlat reyestri)ga, kredit tarixi byurolariga, garov reyestriga, Davlat soliq qo'mitasiga, Protsessing markazlariga, shuningdek boshqa davlat va nodavlat idoralarga va tashkilotlariga kredit axborotini olish uchun identifikatsiyalash, kreditga layoqatliligini tegishli baholashni o'tkazish uchun zarur bo'lgan hajmda, tartibda va shartlarda Bank tomonidan taqdim etish/olish uchun;
– zarur hollarda, Bankka yozma ravishda murojaat qilib, ro'yxatdan o'tgan joy, haqiqiy yashash joyi manzili va ish joyi manzili bo'yicha so'rovlarni yuborish;
– agar Mijoz (uning vakili Mijoz bo'lgan shaxs) va Bank o'rtasida tuzilgan tegishli shartnoma(lar)da Mijozning shaxsga doir ma'lumotlarini (shu jumladan transchegaraviy uzatishni) ochiq aloqa kanallari orqali Bank tomonidan taqdim etilishi nazarda tutilgan bo`lsa/taqdim etilishi nazarda tutilishi mumkin bo`lsa, Mijoz uchinchi shaxslar tomonidan axborotlarni ruxsatsiz olish xavfini tan oladi va bu xavfni o'z zimmasiga oladi;
– O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda Mijozning shaxsga doir ma'lumotlari bilan har qanday harakat (operatsiya) yoki bunday harakatlarning (operatsiyalarning) majmuasini amalga oshirish, shuningdek, avtomatlashtirish vositalaridan foydalangan holda yoki ulardan foydalanmagan holda amalga oshirish, shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda, yig`ish, ishlov berish, yozib olish, nusxalash, zaxiralangan nusxalash, himoya qilish, skrining, skoring, tizimlashtirish, to'plash, Bank ichida va tashqarisida saqlash (xavfsizlik va maxfiylik talablariga rioya qilgan holda), aniqlashtirish (o'zgartirish, yangilash), olish, foydalanish, o'tkazish (tarqatish, kirish huquqini berish, shu jumladan Mijozning shaxsga doir ma'lumotlariga ishlov berish huquqi bilan uchinchi shaxslarga berish), egasizlantirish, blokirovka qilish, o'chirish, yo'q qilish, shu jumladan, agar bu O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga zid bo'lmasa, Bankning topshirig`i bo`yicha uchinchi shaxs tomonidan amalga oshirilishi;
– Mijozni Bank tomonidan Mijozning shaxsga doir ma'lumotlarini uchinchi shaxslardan olinganligi va/yoki uchinchi shaxslarga topshirganligi to'g'risida xabardor qilish talab qilinmaydi, bunday shaxsga doir ma'lumotlar Bank tomonidan ogohlantirmasdan yig`ilishi, ishlov berilishi, uzatilishi mumkin.

– Shaxsiy ma'lumotlar deganda , shu jumladan cheklanmagan holda quyidagilar tushuniladi:
– familiyasi, ismi, otasining ismi (mavjud bo'lgan holda);
– tug'ilgan yili, oyi, sanasi va joyi, fuqaroligi;
– shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar ma'lumotlari;
– biometrik ma'lumotlar;
– yashash joyi, yuridik manzili (ro'yxatdan o'tgan joy) to'g'risidagi ma'lumotlar;
– pochta va elektron pochta manzili, telefon raqamlari;

- fotografik tasvirlar va video tasvirlar;
- ta'limi, kasbi, dini haqida ma'lumotlar;
- oilaviy holati va oila tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar; mulkiy holati, daromadlari, kredit tarixi va qarzdorligi to'g'risidagi ma'lumotlar;
- bank, sug 'urta, soliq sirini, shaxsga doir tibbiy ma'lumotlarni, shuningdek qonun bilan muhofaza qilinadigan sirning boshqa turlarini tashkil etuvchi ma'lumotlar;
- boshqa har qanday shaxsga doir ma'lumotlar.

Bankka taqdim etiladigan hujjatlarda (Arizalarda, boshqa hujjatlarda) uchinchi shaxslar (turmush o'rtog'i, vakili, garovga qo`yuvchi, naf oluvchi va/yoki boshqa shaxslar) to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'rsatib, Mijoz Bank tomonidan Shartnomalar tuzish to'g'risida qaror qabul qilishi, shuningdek keyinchalik Bank va Mijoz tomonidan bunday Shartnomalar bo'yicha huquq va majburiyatlarni amalga oshirish maqsadida Mijoz tomonidan taqdim etilgan ushbu shaxslarning shaxsga doir ma'lumotlariga ishlov berishni, shuningdek saqlashni amalga oshirishni topshiradi. Shu bilan birga, Mijoz tomonidan bunday shaxslarni Mijoz tomonidan ishlov berilishiga (shu jumladan Bankka o'tkazishga) va Bank va Bank Sheriklariga Bankka taqdim etilgan shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishga roziligini olganligini Mijoz tasdiqlaydi.

**3.5.** Ushbu bilan Mijoz Kartalardan va MBXdan foydalanish shartlari, ulardan foydalanish usullari va joylari cheklanganligi, ulardan foydalanish tavakkalchiligi yuqori bo'lgan holatlar, shu jumladan Mijozning Hisobvarag'iga joylashtirilgan pul mablag`lariga Mijoz tomonidan ruxsat berilmagan boshqa shaxslar kirishining mavjud tavakkalchiligi to'g'risida xabardor qilinganligini tasdiqlaydi. Shu munosabat bilan, Mijoz Kartaning buzilishi va yo'qolishining oldini olish, shuningdek Karta yoki uning rekvizitlari va/yoki MBX orqali pul mablag`lariga ruxsatsiz kirishni oldini olish uchun barcha zarur ehtiyot choralari va maxfiylikni qabul qilishi, shu jumladan xarajatlar limitlarini belgilash orqali, shuningdek ushbu USHga va uning ilovalariga muvofiq Kartadan foydalanish qoidalari/tartibiga rioya qilishi shart. Mijoz, agar Bank tomonidan Mijozga MBX orqali yuboriladigan Hisobvaraq va/yoki Karta haqidagi axborotlar boshqa shaxslarga ma'lum bo'lib qolsa, Bank javobgar bo`lmasligini tan oladi.

**3.6.** Mijoz ushbu bilan o'z roziligini bildiradi va Bankka elektron pochta/mobil telefon raqamiga xabarlarni, shu jumladan MBX orqali xizmatlarni taqdim etish doirasida PUSH-bildirishnomalar, Bank yangiliklari, Bankning axborot, reklama materiallari va tijorat takliflari, shuningdek Mijozning hisobvaraqlari bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalar bo`yicha axborotlar, shu jumladan, Tekshiruv kodi, SMS-axborot xizmati ulanganda xabarnomalar, shuningdek 3D Secure (Verified by Visa) texnologiyasini qo`llagan holda Internetda operatsiyalar amalga oshirilganda verifikatsiya kodi bilan SMS-xabarlar (texnik imkoniyat mavjud bo'lgan taqdirda) va Universal shartnomani bajarish maqsadida boshqa bildirishnomalar yuborish huquqini beradi.

**3.7.** Mijoz Bank tomonidan Pensiya jamg'armasiga va uning bo'limlariga Mijozning shaxsga doir ma'lumotlarini hamda Pensiya jamg'armasi tomonidan Amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan huquq va majburiyatlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan boshqa axborotlarni berishga, shuningdek Pensiya jamg'armasi va uning bo'linmalaridan Mijoz to'g'risidagi ma'lumotlarni olishga o`z roziligini beradi.

**3.8.** Ushbu bilan Mijoz Bank saytida va Mobil bankda Bank tomonidan valyuta-ayirboshlash operatsiyalarini amalga oshirish uchun belgilangan chet el valyutasi kursi to'g'risidagi axborotlarning joylashtirilishi, Mijozni lozim darajada xabardor qilish hisoblanishiga rozi bo'ladi.

**3.9.** Aloqa-markaziga/dan qo'ng'iroq qilinganda va Mijozning harakatlarini o'z qurilmalarida, shu jumladan Universal shartnoma doirasida Operatsiyalar va boshqa harakatlarni amalga oshirishda, uning qo'shimcha ogohlantirishisiz Mijozning xavfsizligini ta'minlash va lozim darajada xizmat ko'rsatish maqsadida Bank o'z binolarida videokuzatuvni amalga oshirishga, shuningdek audio (video) yozib olishga haqli ekanligiga Mijoz rozi bo`ladi. Audio (video) yozuvlar Universal shartnoma bo'yicha tomonlar o'rtasidagi nizolarni hal qilishda va protsessual harakatlarda dalil sifatida foydalanilishi mumkin. Universal shartnoma orqali shakllantirilgan elektron hujjatlar, mijozning autentifikatsiyasining ijobiy natijalaridan so'ng, tegishli qog'oz hujjatlariga teng deb tan olinadi va Bank va Mijoz o'rtasida tuzilgan Tomonlarning analogik huquqlarini keltirib chiqaradi. Ushbu hujjatlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda yozma dalillarga teng dalil sifatida taqdim etilishi mumkin, bunda bunday dalillarning yo`l qo`yilishi faqat elektron hujjatlar yoki ularning nusxalari qog'ozda taqdim etilganligi sababli rad etilishi mumkin emas.

**3.10.** Ushbu bilan, Mijoz Bank tomonidan To'lov tizimi qoidalarining bajarilishi Mijozga Kartadan foydalangan holda hisob-kitoblarni amalga oshirish imkoniyatini berish uchun zarur ekanligini tushunishini va rozi ekanligini tasdiqlaydi. Ushbu Universal shartnomaga qo'shilish orqali, Mijoz bank mahsulotini taqdim etish to'g'risidagi Universal shartnomadan kelib chiqadigan huquqiy munosabatlarga nisbatan To'lov tizimi qoidalarining amal qilishini tan oladi. Mijoz Shartnoma tuzishdan oldin To'lov tizimining tegishli qoidalari bilan tanishganligini va ularga rioya qilish majburiyatini olganligini tasdiqlaydi.

**3.11.** Ushbu bilan, Mijoz Bank tomonidan Sheriklar qoidalarining bajarilishi Mijozga sodiqlik Dasturlarida ishtirok etish imkoniyatini berish uchun zarur ekanligini tushunishini va rozi ekanligini tasdiqlaydi. Ushbu Universal shartnomaga qo'shilish orqali, Mijoz sodiqlik Dasturlaridan kelib chiqadigan huquqiy munosabatlarga nisbatan Sheriklar qoidalarining amal qilishini tan oladi.

**3.12.** Mijoz tomonidan Universal shartnoma bo'yicha huquq va majburiyatlarni uchinchi shaxslar foydasiga bir tomonlama voz kechishiga yo'l qo'yilmaydi.

## 4. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

**4.1.** Bank quyidagi huquqlarga ega:

**4.1.1.** Mijozni, Mijozning Vakilini, Benefitsiar egasini identifikatsiyalashni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan axborotlar va hujjatlarni, shu jumladan Mijoz tomonidan tuzilgan bitimlar yoki Mijozning Hisobvaraqlari bo'yicha amalga oshiriladigan operatsiyalarning tushuntiruvchi asoslarni va maqsadlarini so`rash, bunda bila turib ishonchsiz hujjatlar taqdim etilganligi yoki Bank tomonidan Amaldagi qonunchilikka muvofiq so`ralgan hujjatlar taqdim etilmagan taqdirda, Mijozga shartnoma tuzishni, Amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda Operatsiyalarni amalga oshirishda, shuningdek boshqa xizmatlarni ko'rsatishda rad etish.

**4.1.2.** Amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda, Mijozning, Mijozning Vakili va Benefitsiar egalari to'g'risidagi ma'lumotlarni yangilash maqsadida yiliga kamida bir marta, shuningdek boshqa hollarda, lekin kamida uch yilda bir marta va Mijozning ma'lumotlarida o'zgarishlar mavjud bo'lgan taqdirda, shuningdek, ilgari olingan axborotning ishonchliligiga va aniqligiga shubha tug'ilsa hujjatlar va ma'lumotlarni so'rash.

**4.1.3.** Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq ma'lumotlarni identifikatsiyalash va yangilashda Bank Mijozdan, uning Vakilidan shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni, shuningdek Mijoz tomonidan tuzilgan bitimlarning yoki Mijozning Hisobvarag'i va/yoki Kartasi bo'yicha amalga oshiriladigan operatsiyalarning iqtisodiy ma'nosi, asoslari va maqsadlarini tushuntiruvchi boshqa hujjatlarni Mijoz, uning Vakili tomonidan taqdim etilishini talab qilishga va olishga haqlidir.

**4.1.4.** Mijoz Vakilining vakolatlarini Bank tomonidan belgilangan ichki hujjatlar va tartib-taomillarga muvofiq, Mijoz Vakilining farmoyishlari bajarilgunga qadar tekshirishga qaratilgan harakatlarni amalga oshirish, shuningdek, agar bu Amaldagi qonunchilikka, Bank hisobvarag'i (omonat) shartnomasiga, To'lov tizimlari qoidalariga, shuningdek, Bankning ichki hujjatlari va tartib-taomillariga zid kelsa yoki ta`qiqlangan bo`lsa, Mijoz Vakilining Arizasi va farmoyishlarini ijroga qabul qilmaslik.

**4.1.5.** Kredit shartnomasi bo'yicha to'lanishi lozim bo`lgan summalarni (Mijozning Bank oldidagi kredit qarziga ko'ra), shuningdek Bankka to'lash lozim bo'lgan har qanday summalarni (komissiya, noto'g'ri o'tkazilgan pul mablag'lari, penyalar, neustoykalar, jarima va boshqalar) Qarz oluvchining Bankdagi va boshqa banklardagi barcha hisobvaraqlaridan, bank kartalaridan, shuningdek Qarz oluvchining har qanday valyuta hisobvaraqlaridan, keyinchalik hisobdan chiqarish sanasida Markaziy bankning valyutani sotish kursi bo'yicha konvertatsiya qilingan holda bank hisobvaraqlaridan aktseptsiz tartibda hisobdan chiqarish.

**4.1.6.** Mijoz va/yoki uchinchi shaxs tomonidan to'lov rekvizitlarini ko'rsatishda xatolik aniqlangan taqdirda yoki Mijoz tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining normativ hujjatlarida belgilangan hisob-kitob hujjatlarini rasmiylashtirish bo'yicha talablar buzilgan taqdirda, Mijozning farmoyishini bir tomonlama bajarmaslik.

**4.1.7.** Moliyaviy xizmatlar sifatini yaxshilash va eng maqbul takliflarni tanlash maqsadida, uning shaxsga doir ma'lumotlariga ishlov berishni amalga oshirish, shuningdek ularni topshirish va Kredit limitini hisoblash va/yoki Mijozga bank/moliyaviy mahsulotlar va xizmatlar bo'yicha shaxsiy taklifni shakllantirish uchun uchinchi shaxslar (ma'lumot olish uchun kredit tarixi

byurolari, DSQ va bank va davlat organlarining sheriklarining boshqa integratsiyalashgan bazalariga) tomonidan ularga ishlov berishning amalga oshirilishi.

**4.1.8.** Mijozning tijorat taklifi va/yoki shaxsiy taklifining amal qilish muddatini belgilash va Mijozning moliyaviy ahvoli yomonlashganda, daromadlari pasayganda, qarz yuki o'zgarganda yoki kredit tarixi yomonlashganda, ma'lum bir Kredit limiti yoki tasdiqlangan kredit shartlarini qayta ko'rib chiqish yoki taqdim etishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilish.

**4.1.9.** Shartnoma tuzishning maqsadi jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirish maqsadida operatsiyalarni amalga oshirish, degan shubha mavjud bo'lgan taqdirda, Amaldagi qonunchilik talablari asosida Shartnoma tuzishni bir tomonlama rad etish.

**4.1.10.** Agar Bankda Operatsiya jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish (yuvish), terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirish maqsadida amalga oshirilayotganiga shubha vujudga kelsa, Amaldagi qonunchilik talablari asosida Mijozning Operatsiyani amalga oshirish to'g'risidagi Topshirig'ini bajarishda (jismoniy shaxsning hisobvarag'iga kelib tushgan pul mablag'larni hisobga kiritish operatsiyasi bundan mustasno) bir tomonlama rad etish.

**4.1.11.** Jismoniy shaxs – xorijiy davlat fuqarosi bilan Bank hisobvarag'i (omonat) shartnomasini tuzishda bir tomonlama (to'liq yoki qisman) rad etish, uning qonunchiligi kredit tashkilotlaridan (moliya institutlaridan) O'zbekiston Respublikasi hududida ushbu davlatning soliq to'lovchilari tomonidan ochiladigan hisobvaraqlar mavjudligi ustidan nazoratni amalga oshirish va ular bo'yicha operatsiyalarni nazorat qilishni amalga oshirish maqsadida, shuningdek Mijoz chet el fuqaroligini tasdiqlovchi yoki rad etuvchi va/yoki xorijiy davlatga soliq to'lash majburiyatlarini tasdiqlovchi yoki rad etuvchi ma'lumotlar va hujjatlarni taqdim etishdan bosh tortgan taqdirda maxsus bitim tuzishni talab qiladi.

**4.1.12.** Amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda va tartibda, shu jumladan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasida Mijozning tegishli Operatsiyalarini bir tomonlama to'xtatib turish (jismoniy shaxsning hisobvarag'iga kelib tushgan pul mablag'larini hisobga kiritish operatsiyalari bundan mustasno) yoki Mijozning Hisobvarag'idagi/Kartasidagi pul mablag'larini blokirovka qilish (muzlatish).

**4.1.13.** Quyidagi hollarda qonunchilikka muvofiq ushbu Universal shartnomani bir tomonlama bekor qilish:

- agar operatsiya Bankka taqdim etilgan yoki Mijozning KYC anketasida ko'rsatilgan ma'lumotlarga mos kelmasa;
- agar Mijoz tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalarga nisbatan sanktsiyalar qo`llanilsa.

**4.1.14.** Agar Mijoz SHTHning amal qilish muddati tugaganidan keyingi kun o'z kuchini yo'qotgan SHTH o'rniga yangi SHTHni taqdim qilmasa va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda Mijozni identifikatsiyalashni talab qiluvchi MBXdagi alohida Operatsiyalarga kirishni bir tomonlama ravishda blokirovka qilish.

**4.1.15.** MBX orqali shubhali va/yoki gumonli Operatsiyalarni o'tkazish tavakkalchiligini kamaytirish maqsadida bir tomonlama tartibda:

- Mijoz tomonidan MBX servislaridan foydalangan holda amalga oshirilgan shubhali operatsiyalar aniqlangan taqdirda, Mijoz tomonidan amalga oshirilgan operatsiyalarning qonuniyligi yozma ravishda tushuntirilgunga qadar MBX orqali Mijozga xizmat ko'rsatishni to'xtatib turish yoki rad etish;
- agar MBX servislaridan foydalangan holda shubhali operatsiyalarni amalga oshirishda shubha mavjud bo`lsa, Mijozni uning manzili bo'yicha, shu jumladan Mijoz tomonidan bevosita operatsiyani amalga oshirish jarayonini o'rganish uchun amalga oshirish;
- shubhali operatsiyalar amalga oshirilgan MBX orqali xizmatlar ko'rsatishni uch kun muddatga yoki Amaldagi qonunchilikda belgilangan boshqa muddatga to'xtatib turish;
- jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirish maqsadida MBXdan foydalanishda asosli shubhalar mavjud bo'lgan taqdirda, Universal shartnomani to'liq yoki qisman bajarishdan bosh tortish.

**4.1.16.** Universal shartnomani to'liq yoki qisman va Amaldagi qonunchilikda va Universal shartnomada nazarda tutilgan muddatlarda bajarishni bir tomonlama rad etish:

- jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirish maqsadida MBXdan foydalanishga asosli shubhalar mavjud bo'lgan taqdirda;
- agar AQShning soliq rezidenti bo`lgan Mijoz uni xorijiy soliq to'lovchi sifatida identifikatsiya qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etmagan bo'lsa va/yoki IRS (AQSh soliq organlari)ga ma'lumot uzatish uchun rozilik bermagan (rozilik berishdan bosh tortgan) bo'lsa.

**4.1.17.** Amaldagi qonunchilikda, Universal shartnomada va Universal shartnoma doirasida tuziladigan shartnomalarda nazarda tutilgan hollarda va tartibda Mijozning Hisobvaraqlaridan pul mablag'larini hisobdan chiqarishni amalga oshirish.

**4.1.18.** Hisobvaraqdan pensiya summalarini o'tkazish uchun foydalanilgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi pensiya jamg'armasi yoki tegishli pul mablag' larini to'lagan uning bo'linmasining talabiga ko'ra, mijozning qo'shimcha roziligisiz ushbu Hisobvaraqlar va bunday Hisobvaraqlar egalari to'g'risidagi axborotlarni, shuningdek tegishli to'lovlarning to'xtatilishiga olib keladigan holatlarni aniqlash uchun zarur bo'lgan axborotlarni yuqorida ko'rsatib o'tilgan organlarga taqdim etish.

**4.1.19.** Quyidagi hollarda Mijozning Hisobvarag'iga kelib tushgan pul mablag'larini «Aniqlanish jarayonidagi tranzaktsiyalar» hisobvarag'iga kiritish:

- “Valyutani tartibga solish to'g'risida”gi O'zR qonuniga muvofiq o'tkazmaning notijorat xususiyatini tasdiqlash maqsadida;
- to'lov hujjatida to'lovning maqsadi (tafsilotlari) to'g'risida ma'lumotning yo'qligi;
- to'lov hujjatida xatolar mavjudligi, shu jumladan hisobvarag`ida, Mijozning FIO va boshqalar;
- Amaldagi qonunchilikda va Universal shartnomada nazarda tutilgan boshqa holatlar.

Operatsiyaning qonuniyligini aniqlash, shuningdek to'lov hujjatining zarur rekvizitlarini aniqlashtirish maqsadida Bank Mijozdan tegishli hujjatlarni taqdim etishni talab qilishga haqlidir. Mijozning hisobvarag'iga pul mablag'larini kiritish uchun asoslar bo'lmagan taqdirda, pul mablag'lari jo'natuvchiga qaytarilishi mumkin.

**4.1.20.** Chet el fuqaroligini va/yoki chet el davlatiga soliq to'lash bo`yicha majburiyatlarini tasdiqlovchi yoki rad etuvchi ma'lumotlar va hujjatlarni taqdim etishdan bosh tortgan taqdirda, Universal shartnomani tuzishdan bosh tortish yoki bir tomonlama tartibda (to'liq yoki qisman) jismoniy shaxs – chet el davlati fuqarosi bilan Universal shartnomani bajarishdan bosh tortish.

**4.1.21.** Universal shartnomani tuzish va ijro etish maqsadida, Mijozning Arizada yoki boshqa hujjatlarda ko'rsatilgan roziligi mavjud bo'lsa, kredit byurosida saqlanadigan Mijoz/Kafil/Garovga qo'yuvchining kredit tarixiga kiritilgan ma'lumotlarini olish, shuningdek kredit/qarz berish va Mijoz/Kafil tomonidan kredit axborotini almashish to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda kreditni/qarzni qaytarib berish majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq ma'lumotlarni kredit tarixi byurolariga taqdim etish.

**4.1.22.** Operatsiya summasiga limitlar belgilash, bunda, agar Mijozning arizasiga (topshirig'iga) ko'ra operatsiya summasi limitdan oshib keygan bo`lsa, operatsiyalarni o`tkazish operatsiyalar bo'yicha limitlar miqdoriga muvofiq amalga oshiriladi.

**4.2.** Bankning majburiyatlari:

**4.2.1.** Mijozning Hisobvarag'(lar)iga pul mablag`larine kelib tushgan kundan keyingi Operatsion kundan kechiktirmay kiritish, Mijozning hisobvarag'(lar)ian pul mablag'larini o'tkazish va/yoki berish to'g'risidagi farmoyishlarini bajarish, shuningdek Amaldagi qonunchilikda va Shartnomalarda nazarda tutilgan tartibda hisob(lar) bo'yicha boshqa Operatsiyalarni amalga oshirish.

**4.2.2.** Amaldagi qonunchilikka muvofiq Operatsiyalar, Hisobvaraqlar, omonatlar va Mijozlar to'g'risidagi ma'lumotlar sirini saqlash. Bank Operatsiyalar, Hisobvaraq(lar), Mijozning omonatlari va Mijoz tomonidan olingan kredit miqdori va uni so`ndirish to'g'risidagi ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga faqat Amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda va tartibda taqdim etadi.

**4.2.3.** Mijozning talabiga binoan unga Hisobvaraqlar/Kartalar/Kreditlar bo'yicha mablag'larning holati va harakati to'g'risida ko'chirmalar va Amaldagi qonunchilikda, Bank Tariflarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlarni taqdim etish.

**4.2.4.** Elektron hujjatlar arxivlarini yuritish, ularni ekvivalent hujjatlarni qog'ozda saqlash uchun belgilangan muddat ichida saqlash.

**4.2.5.** Mijozni Operatsiya amalga oshirilgandan keyin uch Operatsion kun ichida Shaxsiy kabinetda joylashtirilgan Karta yoki uning rekvizitlaridan foydalangan holda, va/yoki MBXdan foydalangan holda Karta va/yoki Hisobvaraq bo`yicha ko`chirma shaklida har bir Operatsiyani amalga oshirilganligi to'g'risida xabardor qilish. Shu bilan birga, Mijozga Universal shartnomaga muvofiq MBX servislaridan foydalanishni va Karta/Hisobvaraq bo`yicha ko'chirma shakllantirish imkoniyatini taqdim etilganda, Karta yoki uning rekvizitlari yordamida va/yoki MBXdan foydalangan holda Operatsiyani amalga oshirish to'g'risida Mijozni xabardor qilish bo`yicha Bankning majburiyati, Bank tomonidan bajarilgan hisoblanadi.

**4.2.6.** Mijozga Universal shartnomaga muvofiq bank xizmatlarini taqdim etish va Mijozning Topshiriqlarini Amaldagi qonunchilikda va Mijoz va Bank o'rtasida tuzilgan Shartnomalarda nazarda tutilgan tartibda ijro etish.

**4.2.7.** Mijozda soliq solinadigan daromad vujudga kelgan taqdirda, Amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblash, ushlab qolish va byudjetga to'lash bo'yicha, shuningdek soliq davri (kalendar yili) tugaganidan keyin jismoniy shaxslarning daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlarni Amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda o`zi hisobda turgan joydagi soliq organiga taqdim etish bo`yicha soliq agenti funksiyalarini bajarish.

**4.2.8.** Mijozning Hisobvaraqlari xatlangan yoki Hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalar to'xtatilgan taqdirda, agar texnik imkoniyat mavjud bo'lsa (PIN-kod noto'g'ri kiritilganligi sababli Kartani blokirovka qilish hollari bundan mustasno), keyingi ish kunidan kechiktirmay bu haqda xabarnoma yuborish.

**4.3.** Mijoz quyidagilarga haqli:

**4.3.1.** Shaxsan yoki Vakil orqali harakat qilish (MBX orqali amalga oshiriladigan harakatlar, Shartnoma shartlarida harakatlar Mijoz tomonidan shaxsan amalga oshirilishi belgilangan holatlar bundan mustasno, shuningdek, agar bu Amaldagi qonunchilikka, Bankning ichki hujjatlariga va tartib-taomillariga zid bo'lmasa). Mijoz Vakilining vakolatlari mavjudligi Bank tomonidan Amaldagi qonunchilikka muvofiq ko'rsatilgan vakolatlarni tasdiqlovchi taqdim etilgan hujjatlar asosida, Mijoz Vakilining vakolatlarini tugatish to'g'risida Mijozning yozma Arizasi Bankka kelib tushgunga qadar belgilanadi. Shu bilan birga, Mijoz Vakilining vakolatlari muddatidan oldin tugatilganligi to'g'risida o'z vaqtida xabar berilmagan taqdirda, Bank Mijoz Vakili tomonidan amalga oshirilgan operatsiyalar uchun javobgar bo'lmaydi.

**4.3.2.** Xizmat ko`rsatish bilan bog'liq masalalar bo'yicha Bankning Aloqa-Markaziga murojaat qilish.

**4.3.3.** Hisobvaraqlar bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha ko'chirmalarni so'rov bo'yicha olish. Amaldagi qonunchilikka muvofiq, shuningdek, agar Hisobvaraq bo`yicha Operatsiya Karta yoki uning rekvizitlari yordamida amalga oshirilgan bo'lsa, Karta tegishli bo'lgan To'lov tizimining qoidalariga muvofiq Hisobvaraqlar bo'yicha Operatsiyalar to'g'risida yozma ravishda da'volar taqdim etish.

**4.3.4.** MBX orqali Bankka topshirilgan ijro etilgan Topshiriqlar to'g'risida dolzarb va ishonchli axborotlarni olish.

**4.3.5.** Bank mahsulotidan foydalanishni rad etish va tegishli Shartnomani bekor qilish, shu jumladan Bank tomonidan Universal shartnomaga kiritilgan o'zgartirishlar, Universal shartnomaga ilovalar, Bank Tariflari, boshqa o'zgarishlar, shu jumladan To'lov tizimlari qoidalari bilan rozi bo'lmagan taqdirda, Bank tomonidan belgilangan shakl bo`yicha va bank mahsulotini taqdim etish to'g'risidagi Shartnomada belgilangan tartibda Bank mahsulotidan foydalanishni rad etish to'g'risida Bankka tegishli ariza berish orqali.

**4.3.6.** Bankning Aloqa-Markazi orqali ko'rsatilayotgan bank xizmatlari to'g'risida oldindan maslahat olish.

**4.4.** Mijozning majburiyatlari:

**4.4.1.** Shartnomalarga muvofiq ochilgan Hisobdan/Kartalardan quyidagi Operatsiyalarni amalga oshirish uchun (shu jumladan Bank tomonidan xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirishni nazarda tutuvchi) foydalanmaslik:

- tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq;

- bu Bank va/yoki Mijozda yo'qotishlar paydo bo'lishiga, boshqa salbiy oqibatlarga, shu jumladan Mijozga (uning pul mablag'lariga) va/yoki Bankka xorijiy davlatlarning vakolatli organlari va/yoki xorijiy davlatlarning moliyaviy tashkilotlari tomonidan, shu jumladan xorijiy davlatlar qonunchiligi, xalqaro huquqiy hujjatlar, sud qarorlari va xorijiy davlatlarning boshqa vakolatli organlarining qarorlari bilan Mijozga (uning pul mablag'lariga) nisbatan belgilangan cheklovlar bilan bog'liq sanktsiyalarni qo'llashga olib kelishi mumkin;
- Amaldagi qonunchilikka zid.

**4.4.2.** Shartnoma tuzilgunga qadar Amaldagi qonunchilikka, Universal shartnomaga va Bankning boshqa lokal normativ hujjatlariga muvofiq taqdim etilgan vaqtda ishonchli va haqiqiy axborotlar (ma'lumotlar) va hujjatlarni taqdim etish.

Mijoz tomonidan taqdim etilgan hujjatlar Bankka taqdim etilgan sanada amalda bo`lishi kerak. Bankka taqdim etilgan, to'liq yoki ularning biron-bir qismida chet tilida tuzilgan hujjatlar, zarur hollarda, Amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda tasdiqlangan davlat yoki rus tiliga tarjimasi ilova qilinishi kerak, Amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan hujjatni tarjima qilish talab qilinmasligi hollari bundan mustasno. Amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda, Mijoz tomonidan Bankka taqdim etiladigan xorijiy rasmiy hujjatlar Bank tomonidan faqat legallashtirilgan (konsullik legallashtirish) mavjud bo'lgan taqdirda yoki imzoning haqiqiyligini, hujjatni imzolagan shaxsning ishtirok etgan sifatini va hujjatga bosilgan muhr yoki shtampning haqiqiyligini tasdiqlash uchun apostil qo'yilgan holda qabul qilinadi.

**4.4.3.** Bankni, shu jumladan Bankning Aloqa-Markazi orqali Mijoz, Mijoz Vakili (SHTH ma'lumotlari, uning almashinuvi, shuningdek yashash joyi bo`yicha ro'yxatdan o'tish to'g'risidagi ma'lumotlar, telefon raqamlari, shu jumladan mobil telefon raqami, faks, elektron (pochta) manzili va boshqa ma'lumotlar) to'g'risidagi ma'lumotlarning o'zgarganligi to'g'risida, o'zgartirilgan kundan boshlab 3 (uch) kalendar kun ichida xabardor qilish. Hujjatlarga kiritilgan barcha o'zgartirishlar Bankka taqdim etilgan vaqtdan boshlab Bank uchun amal qiladi.

Agar Bank Mijozdan anketa (shaxsiy) ma'lumotlarning o'zgarganligi to'g'risidagi xabarnomani tegishli oldingi xabarnoma yoki Mijozni, Mijoz Vakilini (jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq) dastlabki identifikatsiya qilgan paytdan e'tiboran 12 (o'n ikki) oy ichida olmagan bo'lsa, Bank Mijoz tomonidan ilgari taqdim etilgan axborotlarni, tasdiqlangan, deb hisoblaydi.

Mijoz tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar va aloqa axborotlari o'zgarganligi to'g'risida xabarnomani o'z vaqtida olmaslik natijasida kelib chiqadigan oqibatlar uchun Bank javobgar bo`lmaydi.

Mijozning ilgari taqdim etilgan anketa (shaxsiy) ma'lumotlarini o'zgartirish uchun Mijoz Bankka kodli so'zni aytgan holda Bankning Aloqa-Markazi orqali murojaat qilishi kerak yoki imkoniyat bo`lgan taqdirda, yuqorida ko`rsatilgan ma'lumotlarni taqdim etish Bankning tegishli ilovalaridan foydalangan holda yoki Bank tomonidan belgilangan uchinchi tomonni jalb qilgan holda masofadan amalga oshirilishi mumkin.

**4.4.4.** Bankning talabiga binoan va/yoki Amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda, Operatsiya o'tkazilgunga qadar Naf oluvchilar foydasiga hujjatlar, shu jumladan agentlik shartnomalari, topshiriq, komissiyalar, ishonchli boshqaruv shartnomalari va boshqa fuqarolik-huquqiy shartnomalar, shuningdek Naf oluvchilar bo`yicha identifikatsiya ma'lumotlarini/hujjatlarni taqdim etish.

**4.4.5.** Agar Mijoz jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq yuqori mansabdor shaxslariga tegishli bo'lsa yoki ularning Vakili, ishonchli vakili, turmush o'rtog'i yoki yaqin qarindoshi bo'lsa (nasl-nasab shajarasi bo`yicha to'g'ri tutashgan, (ota-onalar va bolalar, bobolar, buvilar va nabiralar, tug`ishgan va o`gay (umumiy ota yoki ona bo`lganlar) aka-uka va opa-singillar, farzandlikka oluvchilar va farzandlikka olinganlar) Bankni xabardor qilish.

**4.4.6.** Agar mijoz AQSh fuqarosi bo'lgan yoki ilgari AQSh fuqarosi bo'lgan bo'lsa, AQShda doimiy yashash uchun ruxsatnomaga ega bo'lsa (doimiy yashovchining kartasi (I-551 (Green Card) shakli), joriy kalendar yili davomida AQSh xududida kamida 31 kun va 3 yil davomida kamida 183 kun, shu jumladan joriy yil va undan oldingi ikki yil, AQSh fuqarosining ijtimoiy sug'urta raqami (Social Security Number) yoki AQSh soliq to'lovchisining shaxsiy identifikatsiya raqami (Individual Taxpayer Identification Number)ga ega.

**4.4.7.** Bank so'rovi olingan kundan keyingi 2 (ikki) kalendar kun ichida Universal shartnomaga muvofiq Bank tomonidan so'ralgan ma'lumotlar va hujjatlarni taqdim etish.

Bank ko`rsatilgan ma'lumotlarni tekshirish va aniqlashtirish uchun rasmiy axborot manbalaridan foydalanishga haqli.

**4.4.8.** Bank Tariflari va Shartnomalariga muvofiq Bank foydasiga komissiyalar va/yoki boshqa to'lovlarni to'lash uchun Hisobvaraqda yetarli pul mablag'lari mavjudligini ta'minlab, tegishli Shartnomalar va Bank Tariflari shartlariga muvofiq Universal shartnomada va/yoki Shartnomalarda nazarda tutilgan mukofotlarni va boshqa to'lovlarni Bankka to'lash.

**4.4.9.** MBXdan foydalanilganda, Universal shartnoma shartlariga va Bank Tariflariga va MBX doirasidagi Tomonlarning munosabatlarini tartibga soluvchi boshqa hujjatlarga rioya qilish.

**4.4.10.** Universal shartnoma va Shartnomalarni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik natijasida Bankka yetkazilgan zararni qoplash.

**4.4.11.** Mustaqil ravishda yoki ishonchli shaxslar orqali Universal shartnomaga va/yoki Bank Tariflariga va/yoki boshqa hujjatlarga kiritiladigan o'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalar, shuningdek Bankning yangi xizmatlari/mahsulotlari to'g'risida o'z vaqtida ma'lumot olish maqsadida Bank saytining tegishli bo'limlariga muntazam ravishda tashrif buyurish. Mijozni Universal shartnomaga va/yoki Bank Tariflariga va/yoki boshqa hujjatlarga kiritilgan o'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalar bilan o'z vaqtida tanishtirmaslik ularni Bank tomonidan qo'llanilmasligi uchun asos bo'lmaydi.

**4.4.12.** Universal shartnomani tuzish va bajarish uchun Bankka taqdim etilgan Ariza(lar) va boshqa hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlarning ishonchliligi uchun javobgar bo'lish.

**4.4.13.** Agar Hisobvaraq(lar)ga/Karta(lar)ga Hisobvaraq(lar)dan/Karta(lar)dan noto'g'ri kiritilgan/ hisobdan chiqarilgan summa aniqlansa, bu haqda darhol Bankka xabar berish.

**4.4.14.** Ushbu Shartnomani tuzish (aktseptlash) orqali Mijoz, Mijoz nomiga virtual kartani avtomatik ravishda chiqarishga, keshbek yoki bonus olishga, shuningdek bonuslarni olish munosabati bilan soliq solish bo`yicha xarajatlarni olishga o`z roziligini beradi.

**4.4.15.** Universal shartnomaga va Bank va Mijoz o'rtasida tuzilgan Shartnomalarning shartlariga muvofiq boshqa majburiyatlarni bajarish.

**4.5.** Universal shartnomada nazarda tutilgan huquq va majburiyatlardan tashqari, Bank va Mijoz tegishli Shartnomalarda belgilangan huquq va majburiyatlarga ega.

## 5. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

**5.1.** Tomonlar o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganliklari uchun Amaldagi qonunchilik va Universal shartnomaga muvofiq javobgar bo`ladilar. Mijoz tomonidan Universal shartnomani bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi sababli Bankka yetkazilgan zarar Mijoz tomonidan qoplanishi kerak.

**5.2.** Universal shartnoma doirasida ochilgan Mijozning omonatlariga joylashtirilgan pul mablag'lari “Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoya qilish kafolatlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan tartibda, miqdorlarda va shartlarda kafolatlanadi.

**5.3.** Agar Bank Universal shartnomaning 3, 4-bo'limlariga muvofiq Karta yoki uning rekvizitlari va/yoki MBX yordamida amalga oshirilgan Operatsiya to'g'risida Mijozni xabardor qilish majburiyatini bajarsa, Mijoz esa Universal shartnomaning 4-bo`limida belgilangan tartibda va muddatlarda Karta yo'qolganligi va/yoki Mijozning roziligisiz undan foydalanilganligi va/yoki MBXga ruxsatsiz kirilganligi to'g'risida Bankni xabardor qilmasa, Bank Mijozning roziligisiz Karta/Hisobvaraq yoki uning rekvizitlari va/yoki MBX yordamida amalga oshirilgan Operatsiyalar uchun javobgar bo'lmaydi,

**5.4.** Karta yo'qolganligi va/yoki Mijozning roziligisiz undan foydalanilganligi va/yoki MBXga ruxsatsiz kirilganligi, kirish Vositalarining yo'qolganligi to'g'risida Bankni xabardor qilguniga qadar, Hisobvaraqlar va Kartalar bo'yicha amalga oshirilgan barcha Operatsiyalar, shuningdek MBX orqali amalga oshirilgan boshqa harakatlar uchun Mijoz javobgar bo`ladi.

**5.5.** Bank quyidagilar uchun javobgar bo`lmaydi:

- uning nazorati ostida bo'lmagan va pochta, Internet, aloqa tarmoqlari va boshqa tashqi tashkilotlar va tarmoqlarning uzulishi bilan bog'liq bo'lgan holatlarda Mijoz tomonidan Bank xabarnomalarini o'z vaqtida qabul qilmaganligi yoki olmaganligi uchun;
- Mijozning Abonent qurilmasi zararli viruslar bilan zararlanganligi va ularning ishlashidagi uzulishlar uchun;

- O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi o'zgarishlar tufayli Bankning Universal shartnomani taqdim etish bo'yicha o'z majburiyatlarining bajarilishini imkonsiz qilib qo`yilishi uchun;
- Mijoz Vakilining vakolatlari tugatilganligi to'g'risidagi Mijozning yozma arizasi Bankka kelib tushguniga qadar Mijoz Vakili tomonidan sodir etilgan harakatlari uchun.

**5.6.** Bank Universal shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi, shu jumladan Mijozning Arizalari, Topshiriqlarini bajarmaganligi/o'z vaqtida bajarmaganligi uchun javobgar bo'lmaydi, agar:

- Ijro etilishi uchinchi tomonning muayyan harakatlariga bog'liq bo'lib, bajarilmasligi yoki o'z vaqtida bajarilmasligi uchinchi tomon zarur harakatlarni amalga oshira olmasligi yoki rad etishi, ularni belgilangan tartibni buzgan holda amalga oshirishi yoki Bank uchun mavjud emasligi bilan bog'liq;
- Ijro etmaslik yengib bo`lmas kuch holatlari, ya'ni Shartnoma tuzilgandan keyin yuzaga kelgan ushbu shartlarda favqulodda va kutilmagan holatlar natijasida yuzaga kelsa;
- ijro etmaslik/o'z vaqtida ijro etmaslik O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, uning bo'linmalari, vakillik-banklar yoki boshqa uchinchi shaxslarning harakatlari/harakatsizligi natijasi, shu jumladan Mijozga (uning pul mablag'lariga) nisbatan xorijiy davlatlar qonunchiligi, xalqaro huquqiy hujjatlar, sud qarorlari va boshqa vakolatli organlarning qarorlari bilan belgilangan cheklovlar bilan bog'liq hisoblanadi;
- ijro etmaslik uskunalar, elektrenergiya yetkazib berish tizimlari va/yoki uchinchi shaxslar tomonidan ta'minlanadigan, yetkazib beriladigan, ishlaydigan va/yoki xizmat ko'rsatadigan aloqa liniyalari yoki tarmoqlarining buzilishi bilan bog'liq baxtsiz hodisalar, uzulishlar yoki xizmat ko'rsatishdagi uzilishlar natijasida yuzaga kelsa;
- mumkin bo'lgan uzulishlarda, banklararo elektron to'lovlar tizimida profilaktika ishlarini olib borish;
- to'lov hujjatlarini rasmiylashtirishda Mijoz tomonidan yo'l qo'yilgan kamchiliklar natijasida;
- Amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk muzlatib qo'yilgan, shuningdek Hisobvaraqdagi pul mablag'lari xatlangan yoki Hisobvaraqdagi operatsiyalar to'xtatilgan hollarda.

**5.7.** Mijoz Universal shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlikning barcha salbiy oqibatlari uchun javobgar bo'ladi, shuningdek, Mijoz ko`rsatilgan majburiyatlarni bajarmaganligi oqibatida Bankka yetkazilgan barcha zararlarni qoplaydi.

**5.8.** Bank MBX doirasida taqdim etilgan ma'lumotlarga uchinchi shaxslarning ruxsatsiz kirishi, shuningdek MBX yordamida uzatiladigan ushbu ma'lumotlarning buzilishi uchun javobgar bo`lmaydi.

**5.9.** Mijoz Arizalar, Topshiriqlarni to'g'ri tuzish uchun javobgar bo`ladi. Xatolar bilan tuzilgan Mijozning Arizalari, Topshiriqlari Bank tomonidan bajarilishi natijasida Mijozga yetkazilgan zarar uchun Bank javobgar bo'lmaydi.

**5.10.** Mijozga tegishli va unga tegishli bo'lmagan qurilmalarda MBX servislariga kirishni amalga oshirish, OTPni uchinchi shaxslarga o'tkazish, ma'lumotlarning maxfiyligi va yaxlitligini buzish bilan bog'liq tavakkalchiliklar, shuningdek uchinchi shaxslarning mumkin bo'lgan noqonuniy xatti-harakatlari uchun Mijoz (foydalanuvchi) javobgar bo`ladi.

**5.11.** Mijoz Vakilining vakolatlari tugatilganligi to'g'risida Mijozning yozma arizasi Bankka kelib tushguniga qadar Mijoz Vakili tomonidan sodir etilgan xatti-harakatlari uchun Bank Mijoz oldida javobgar bo'lmaydi.

**5.12.** Mijoz, agar uning kontragenti yoki mablag' oluvchisi daromadlarni legallashtirish va/yoki terrorchilik faoliyati va/yoki ommaviy qirg'in qurollarini tarqatish va/ yoki sanktsiyalar ro'yxatida ishtirok etgan yoki shubha qilingan shaxslar ro'yxatida bo'lsa javobgar (shu jumladan moliyaviy) bo'ladi.

## 6. MASOFAVIY BANK XIZMATLARI ORQALI XIZMATLARNI TAQDIM ETISH TARTIBI

**6.1.** Ariza-anketa orqali Universal shartnomaga qo'shilish orqali Tomonlar Bank Mijozi Bank tomonidan taqdim etiladigan barcha MBX servislariga kirish huquqiga ega ekanligini tan olishadi.

**6.2.** MBX servislari orqali xizmatlar/Bank mahsulotlari ba'zi hollarda MBX dasturiy-texnik imkoniyatlariga va bankning ichki-normativ hujjatlariga qarab cheklangan miqdorda taqdim etilishi mumkin.

**6.3.** Shaxsiy kabinetga kirish Mobil ilova va Bank sayti orqali amalga oshiriladi. Shaxsiy kabinetga kirish Mijozga ijobiy Autentifikatsiya, shu jumladan raqamli Autentifikatsiya orqali taqdim etiladi.

**6.4.** Mijoz mustaqil ravishda va o'z hisobidan MBX servislariga kirishni tashkil qilish uchun zarur bo'lgan texnik, dasturiy va kommunikatsion resurslarni ta'minlaydi, shuningdek ushbu resurslarni ruxsatsiz kirish va zararli dasturiy ta`minotlardan himoya qilishni ta`minlaydi.

**6.5.** MBX orqali xizmatlarni taqdim etish Amaldagi qonunchilikka, Universal shartnomaga, uning Ilovalariga, Bank Tariflariga, shuningdek To'lov tizimining qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

**6.6.** MBX servislaridan foydalanish Mijoz tomonidan shaxsan amalga oshiriladi, MBX doirasidagi huquqlarni Mijoz vakiliga o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi.

**6.7.** Bank istalgan vaqtda o'z ixtiyori bilan MBX orqali taqdim etiladigan Xizmatlar/Bank mahsulotlari ro'yxatini ushbu Universal shartnomada nazarda tutilgan tartibda o'zgartirish huquqini o'zida saqlab qoladi.

**6.8.** Arizalar, Topshiriqlarni qabul qilish Bank tomonidan kechayu-kunduz amalga oshiriladi. Mijozning Arizalari, Topshiriqlarini ijro etish Bank tomonidan keyingi Operatsion kundan kechiktirmay kelib tushgan tartibda amalga oshiriladi yoki agar Mijoz va Bank o'rtasida tuzilgan shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, Amaldagi qonunchilik bilan belgilanadi.

**6.9.** Bank bir tomonlama tartibda MBX orqali shakllantiriladigan Mijozning topshiriqlari summasi va soniga doimiy yoki vaqtinchalik cheklovlarini kiritishga, shuningdek MBX orqali hisob-kitoblarning xavfsizligini ta'minlash maqsadida boshqa cheklovlarni joriy etishga haqli.

**6.10.** Bank quyidagi hollarda Mijozga MBXdan foydalangan holda berilgan Ariza, Topshiriqni ijro etishni rad etishga haqlidir, agar:

- MBX servislarining dasturiy ta'minotida, Bank tomonidan dasturiy ta'minotning profilaktika choralarini amalga oshirishda, shuningdek Bank irodasiga bog'liq bo'lmagan boshqa holatlarda (fors-major holatlari, elektr energiyasining o`chirilishi, telekommunikatsiya uzulishlari va boshqalar) uzulishlar mavjud bo'lganda;
- MBXdan foydalangan holda Ariza, Topshiriqni topshirishda xavfsizlik buzilishi belgilarini aniqlash, shu jumladan, agar Bank Ariza, Topshiriqning ijro etilishi Bank yoki Mijoz uchun yo'qotishlarga olib kelishi mumkin deb hisoblashga asos mavjud bo'lsa;
- agar Mijozning Hisobvarag'ida/Kartasida/Hamyonida Ariza yoki Topshiriqda ko'rsatilgan Operatsiyani bajarish, shu jumladan Operatsiya sanasida amaldagi Bank Tariflariga muvofiq Bank komissiyasi summasi uchun yetarli pul mablag'lari bo'lmasa;
- agar Operatsiya summasi belgilangan Xarajatlar chegarasidan oshsa;
- Mijoz tomonidan Arizada, Topshiriqda ko'rsatilgan mavjud bo'lmagan/noto'g'ri rekvizitlar aniqlanganda;
- agar Bank Mijoz tomonidan Universal shartnoma shartlari buzganligi to'g'risida axborot olgan bo'lsa;
- agar Topshiriq bilan rasmiylashtirilgan Operatsiya Mijozning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishi bilan bog'liq bo'lsa;
- Mijoz tomonidan Amaldagi qonunchilikni buzish belgilarini aniqlash;
- Amaldagi qonun hujjatlarida, Universal shartnomada, to'lov tizimi qoidalarida va Bank va Mijoz o'rtasida tuzilgan shartnomalarda nazarda tutilgan boshqa hollarda.

**6.11.** Agar Bank Mijoz nomidan ruxsatsiz kirishga urinish mumkin deb hisoblash uchun yetarli asosga ega bo'lsa, Bank Mijozni ogohlantirmasdan Mijozning MBXga kirishini vaqtincha to'xtatib qo'yish yoki cheklash huquqiga ega. Tomonlardan birining tashabbusi bilan Mijozning MBXga kirishini to'xtatib turish yoki cheklash MBX taqdim etilishi to'xtatilguniga qadar yuzaga kelgan o'zaro hisob-kitoblar va zararni qoplash bo'yicha majburiyatlarning bekor qilinishiga olib kelmaydi.

**6.12.** Mijoz MBX orqali berilgan Arizalar, Topshiriqlarning bajarilishini tasdiqlash to'g'risida Bankning Aloqa Markaziga murojaat qilishga haqli.

**6.13.** Mijoz MBX orqali operatsiyalarni amalga oshirishda qo'llaniladigan Mijozni identifikatsiya qilish va Autentifikatsiya qilish usullari Mijozning Hisobvaraqlari/Kartalari bo'yicha Operatsiyalarni amalga oshirishga va MBX doirasida boshqa axborotlarni taqdim etishga bo`lgan Bankning huquqini yetarli va tegishli ravishda tasdiqlashiga rozi bo`ladi.

**6.14.** Tomonlar Mijoz tomonidan MBX orqali berilgan Arizalar, Topshiriqlarning qonuniyligi, haqiqiyligi, o'zgarmasligi, yaxlitligi va muallifligini tasdiqlash sifatida tan oladilar, Mijoz kirish Vositalaridan foydalanadi va bu quyidagilar ekanligiga rozi bo'ladilar:

- Mijoz nomidan Ariza, Topshiriq tuzish va imzolash faktini tasdiqlaydi;
- qog'oz hujjatdagi qo'lda shaxsan qo`yilgan imzo bilan bir xil deb tan olinadi;
- Tasdiqlash oynasida aktseptlangan Ariza, Topshiriq Universal shartnomada nazarda tutilgan tarzda, Ariza, Topshiriqning barcha majburiy rekvizitlari saqlanishi ta'minlangan holda Bankka topshiriladi.

Mijoz va Bank dasturiy ta'minotining ishlashi va Mijozning Autentifikatsiyasi amal qiladigan bir uzluksiz vaqt oralig'ida MBX orqali Mijoz tomonidan berilgan barcha Arizalar, Topshiriqlar Mijoz tomonidan berilgan va Bank tomonidan olingan deb hisoblanadi.

**6.15.** MBXdan foydalanganda, Mijoz MBXga kirish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan axborotlarni, shu jumladan kirish Vositalarini boshqa shaxslarga oshkor qilmasligi shart.

**6.16.** Mijoz yoki Bank tomonidan MBX orqali amalga oshiriladigan barcha harakatlar/Operatsiyalar Bankning axborot tizimlarida elektron hujjatlar va elektron xabarlar shaklida qayd etiladi. Bank va Mijoz o'rtasida MBX orqali amalga oshirilgan harakatlar/Operatsiyalar bilan bog'liq har qanday kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda, Tomonlar Bankda saqlanadigan elektron hujjatlar va elektron xabarlarni dalil sifatida tan oladilar.

Bankning vakolatli shaxsi tomonidan imzolangan va Bank muhri bilan muhrlangan qog`oz tashuvchisidagi Bank shakli bo`yicha MBX yordamida amalga oshirilgan harakatlar/Operatsiyalar bo'yicha Bank tomonidan shakllantirilgan tegishli ko'chirmalar Tomonlar tarafidan Universal shartnomada nazarda tutilgan Operatsiyalar va harakatlar sodir etilganligi faktlarining yetarli dalillari hisoblanadi va har qanday nizolarni hal qilishda ulardan foydalanish, shuningdek har qanday sud organlariga taqdim etilishi mumkin

Bank va Mijoz tomonidan MBX orqali tuzilgan/ yuborilgan/ shakllantirilgan elektron hujjatlar va elektron xabarnomalar Amaldagi qonunchilikda belgilangan muddatlarda Bankda saqlanadi.

**6.17.** MBXga ruxsatsiz kirish va/yoki kirish Vositalarini Yo'qotish holatlarida, Mijoz darhol Bankning Aloqa Markaziga qo'ng'iroq qilgan holda, SHTH ma'lumotlarini yoki kodli so'zni xabar qilib, MBXga kirishni bloklashga majbur. MBX servislariga kirishni davom ettirish uchun Mijoz Bankning Aloqa Markaziga murojaat qilishi lozim.

**6.18.** Mijoz boshqa shaxslar tomonidan mobil telefon Raqamidan foydalanish imkoniyatini istisno qilishga majbur va agar mobil telefon Raqamidan vijdonsiz foydalanish mumkin deb taxmin qilish uchun asoslar vujudga kelsa, Bankning Aloqa Markaziga murojaat qilib, yo'qolganligi/o'g'irlanganligi, mobil telefon Raqami o'zgarganligi to'g'risida darhol Bankka xabar berishga majbur.

Bank mobil telefon Raqamini o'zgartirish to'g'risidagi arizani qabul qilguniga qadar, Mijoz Bankka taqdim etilgan yoki o'zi ko'rsatgan/o'zgartirgan mobil telefon Raqamidan foydalangan holda amalga oshirilgan harakatlar uchun javobgar bo`ladi

**6.19.** Bank Mijozning MBXdan foydalanishi bilan bog'liq cheklangan axborotlarga uchinchi shaxslarning ruxsatsiz/noqonuniy kirishini oldini olish uchun barcha oqilona choralarni ko'radi.

**6.20.** Mijoz, MBX servislariga kirish amalga oshiriladigan qurilmaning axborot xavfsizligini mustaqil ravishda ta'minlaydi.

**6.21.** Mobil bank servislarini taqdim etish va ulardan foydalanish tartibi.

**6.22.** Mobil bank servisi Bankning barcha Mijozlariga bank mahsulotlarini sotib olish, Bir martalik operatsiyalarni amalga oshirish va Axborot operatsiyalarini olish imkoniyati bilan taqdim etiladi.

Mobil bank servisiga kirish uchun Mijoz kirish Vositalaridan foydalanadi.

MBX servislaridan foydalanganda Mijoz Bankka Ariza va Topshiriqlarni yuborish imkoniyatiga ega.

MBX servislari orqali Mijoz quyidagi imkoniyatlarga ega:

- tegishli shablonlarni sozlash orqali Muntazam topshiriqlarni rasmiylashtirish, Mijoz Muntazam topshiriqni bajarish davritligining mavjud variantlardan birini mustaqil ravishda tanlaydi. Muntazam topshiriqni bajarish uchun Mijoz Kartada/Hisobvaraqda pul mablag`lari o'tkazmalarini, shu jumladan Bank tariflarida nazarda tutilgan Bank komission haqlarini amalga oshirish uchun yetarli pul mablag'lari mavjudligini ta'minlashi kerak. Agar Bank Muntazam topshiriqni bajarayotgan vaqtda Kartada/Hisobvaraqda Bankning komission haqlarini hisobga olgan holda Muntazam topshiriqni bajarish uchun pul mablag'lari yetarli bo'lmasa, pul mablag'lari o`tkazilmaydi, bu haqda Bank Mijozni mobil telefon Raqamiga tegishli SMS-xabarnoma yuborish yoxud tegishli xabarnomani Shaxsiy kabinetiga joylashtirish yo'li bilan xabardor qiladi;
- pul mablag'larini milliy valyutada (O'zbekiston Respublikasi ichida) Bankda ochilgan Hisobvaraqlardan/Kartalardan, shu jumladan uchinchi shaxslar foydasiga Bankda ham, boshqa banklarda ham ochilgan Hisobvaraqlarga/Kartalarga o'tkazishni amalga oshirish. Chet el valyutasida Mijozlarning hisobvaraqlaridan Mijozning nomiga ochilgan o`zlarining hisobvaraqlariga. Xalqaro pul o'tkazmalari tizimlari orqali amalga oshiriladigan pul o'tkazmalari;
- tovarlar/ishlar/xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirish, shu jumladan Bank tomonidan berilgan kreditlarni, YHXBB jarimalari, soliqlar va yig'imlar, byudjet tashkilotlari, kommunal, telekommunikatsiya xizmatlari ko`rsatuvchi tashkilotlar xizmatlarini va boshqa to'lovlarni to`lash;
- MBXga kiritilgan boshqa imkoniyatlar.

MBX servislarida Arizalar, Topshiriqlarni shakllantirish va Arizalar, Topshiriqlarning qonuniyligi, haqiqiyligi, yaxlitligi va muallifligini tasdiqlash uchun Mijoz kirish Vositalaridan, operatsiyani Aktseptlash va/yoki Tekshiruv kodidan foydalanadi.

Ushbu bilan, Mijoz Internet tarmog`i xavfsiz kirish kanali hisoblanmasligini tan oladi va Internet tarmog`i orqali uzatilganda axborotlarning maxfiyligi va yaxlitligini buzish bilan bog'liq barcha xavflarni o'z zimmasiga oladi

**6.23.** MBX doirasida Bank tomonidan ko'rsatiladigan qo'shimcha xizmatlar.

**6.23.1.** ***SMS-axborot:***

Ushbu xizmatni ulagan Mijozlarga SMS-axborot quyidagilar orqali taqdim etiladi:

- Bankning Aloqa Markazi;
- Bankning savdo nuqtalarida;
- MBX;
- Uzcard, HUMO kartalari va MPS kartalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi istalgan banklarining infokiosklari/ bankomatlari orqali.

SMS-axborot xizmati doirasida Bank/Protsessing markazi Mijozning mobil telefon Raqamiga Karta yoki uning rekvizitlaridan foydalangan holda amalga oshirilgan Operatsiyalar bo'yicha SMS-xabarnomalar ko'rinishidagi axborotlarni, Kartaning amal qilish muddati o`tganligi, Hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turilganligi to'g'risidagi axborotlarni, agar texnik imkoniyat mavjud bo'lsa (vakolatli organlarning qarorlari asosida), Mijozning kreditlar bo`yicha Bank oldidagi majburiyatlari va boshqa axborotlarni yuboradi.

Bank Universal shartnomada nazarda tutilgan tartibda SMS-axborot xizmati doirasida taqdim etiladigan axborotlar ro'yxatiga o'zgartirishlar kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi.

Ushhu bilan Mijoz shuni tasdiqlaydiki, ya`ni Bankni mobil telefon Raqami o'zgarganligi to'g'risida xabardor qilingunga qadar, Mijoz tomonidan Bankka taqdim etilgan mobil telefon Raqamiga yo'naltirilgan SMS-xabarnoma bevosita Mijozning o'ziga yuborilgan, deb hisoblanadi.

Mijoz tomonidan SMS-xabarnomalarni (SMS-bildirishnomalarni) qabul qilgan sana, Bank/Protsessing markazi tomonidan SMS-xabarnomani mobil telefon Raqamiga yuborgan sana hisoblanadi.

Uyali aloqa operatorining aybi bilan yoki Mijoz uyali aloqa tarmog'ining amal qilish zonasidan tashqarida bo'lgan hollarda, mobil telefon o'chirilganda, nosoz va Bankka bog`liq bo`lmagan va noma'lum bo'lgan boshqa holatlarda Bank Mijozga SMS-xabarnomalarni yetkazib bermaslik uchun javobgar bo`lmaydi, Bank tomonidan yuborilgan kuni SMS-xabarnoma Mijoz tomonidan qabul qilingan, deb hisoblanadi.

Mijoz, mobil telefon Raqamiga yo'naltirilgan SMS-xabarnoma to'g'ridan-to'g'ri Mijozning o'ziga yuborilganligini tasdiqlaydi.

## 7. UNIVERSAL SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI VA BEKOR QILISH TARTIBI

**7.1.** Universal shartnoma Mijoz Universal shartnomaga qo'shilgan kundan boshlab kuchga kiradi va muddatsiz amal qiladi. Shu bilan birga, Universal shartnoma doirasida tuzilgan Shartnomalarning amal qilish muddati cheklanishi mumkin.

**7.2.** Universal shartnomani bekor qilish Bankning Aloqa Markazi, MBX va Bankning bo`linmalari orqali taqdim etilgan Mijozning arizasi asosida amalga oshiriladi. Universal shartnomani bekor qilish, agar bank mahsulotlarini taqdim etish bo'yicha aniq Shartnomalarda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, Universal shartnoma doirasida tuzilgan barcha Shartnomalarning bekor qilinishiga va tegishli Hisobvaraqlarning (Kartalarning) yopilishiga olib keladi, bunda Mijoz Universal shartnomani bekor qilishdan oldin vujudga kelgan tuzilgan barcha Shartnomalar bo'yicha o`z majburiyatlarini bajarishi lozim.

**7.3.** Universal shartnoma doirasida tuzilgan bank mahsulotini taqdim etish to'g'risidagi alohida Shartnomani bekor qilish, Universal shartnomani bekor qilishga olib kelmaydi.

**7.4.** Hisob(lar)/Karta(lar)ni yopish va Mijozga pul qoldiqlarini qaytarish Amaldagi qonunchilikda va Universal shartnomaning Ilovalari shartlari va To'lov tizimlari qoidalari (zarur hollarda) asosida tuzilgan bank mahsulotini taqdim etish to'g'risidagi Shartnomada belgilangan tartibda va muddatlarda amalga oshiriladi.

**7.5.** Bank Universal shartnomada nazarda tutilgan hollarda, Bankning Aloqa Markazi, MBX yoki yozma ravishda xabardor qilish orqali Universal shartnomani to'liq yoki qisman bajarishdan bir tomonlama rad etishga haqlidir. Bunday holda, Bank tomonidan xabarnoma yuborilgan kundan boshlab uchinchi kuni Universal shartnoma bekor qilingan hisoblanadi.

## 8. FORS-MAJOR

**8.1.** Tomonlar Universal shartnoma va/yoki Shartnomalar bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganliklari uchun javobgar bo`lmaydilar, agar bu bajarmaslik tabiiy ofatlar, harbiy harakatlar, zilzila, yong'in, ish tashlash yoki boshqa ofatlar (tomonlardan birining aybisiz yuzaga kelgan, lekin ularning o`z majburiyatlarini bajarishga ta`sir qiladigan uskunaning ishlamay qolishi, dasturiy ta'minot, elektr ta'minoti va ma'lumotlar uzatish tizimlardagi uzilishlar), ommaviy tartibsizliklar, Davlat organlari, davlat boshqaruvi va nazorat organlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan cheklangan-taqiqlovchi hujjatlarning qabul qilinishi, kommunal avariyalar, davlatlarga nisbatan sanksiyalar va embargolar hamda tomonlar ta'sir ko'rsata olmaydigan va ularning kelib chiqishi uchun javobgar bo'lmaydigan boshqa hodisalar bo`lib, ularning natijasi Universal shartnomani yoki bank mahsulotini taqdim etish to'g'risida tuzilgan shartnomalardan birini bajarish imkoniyatini cheklash yoxud istisno qilish kabi yengib bo`lmas kuch holatlari natijasida yuzaga kelgan bo'lsa, Tomonlarning majburiyatlarini bajarish muddati, Universal shartnoma yoki bank mahsulotini taqdim etish to'g'risidagi tegishli shartnomaning bajarilishiga ta'sir qiluvchi ushbu holatlar amal qilish muddati tugagunga qadar qoldiriladi. Agar Yengib bo`lmas kuch holatlari yuzaga kelsa, Mijoz 3 (uch) kalendar kun ichida Bankka va Bank esa mavjud bo'lgan har qanday usulda, shu jumladan (Bank saytida, SMS-axborot, MBX va boshqalar) Universal shartnoma va/yoki uning doirasida tuzilgan bank mahsulotini taqdim etish Shartnomalari bo'yicha majburiyatlarni bajarish mumkin emasligi to'g'risida xabardor qilishi kerak.

**8.2.** Yengib bo`lmas kuch holatlari, ular qonunda belgilangan tartibda vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan taqdirda, fors-major deb hisoblanadi.

## 9. YAKUNIY QOIDALAR

**9.1.** Agar Universal shartnoma va/yoki uning doirasida tuzilgan alohida Shartnomalarning shartlari va shartlari bo'yicha kelishmovchiliklar va nizolar yuzaga kelsa, Tomonlar nizoli vaziyatni muzokaralar va xatlarni yuborish orqali hal qilishga qaratilgan barcha choralarni ko'radilar. Kelishmovchiliklar to`g`risidagi xatni olgan Tomon 15 (o'n besh) kun ichida uni ko'rib chiqishi va asoslantirilgan javob yuborishi shart.

**9.2.** Universal shartnoma bo'yicha xizmatlar ko'rsatish doirasida Bankning harakatlariga rozi bo'lmagan, shu jumladan MBX doirasida Ariza, Topshiriq bo'yicha Bank tomonidan amalga

oshirilgan Operatsiyaga Mijoz norozilik bildirgan taqdirda, Mijoz Bankning Aloqa Markaziga murojaat qilishi mumkin.

**9.3.** Tomonlar o'rtasidagi Universal shartnomadan, Shartnomalardan va ulardan kelib chiqadigan majburiyatlardan kelib chiqadigan barcha nizolar, shu jumladan shartnomani bajarmaslik natijasida kelib chiqadigan ularni bajarish, o'zgartirish, bekor qilish, to`xtatish nizolari Bankning yuridik ro'yxatdan o'tgan joyidagi fuqarolik ishlari bo'yicha sudda ko'rib chiqilishi kerak.

**9.4.** Universal shartnomada nazarda tutilmagan barcha masalalarda Tomonlar Amaldagi qonunchilikka rioya qiladilar.

**9.5.** Universal shartnomaning barcha o'zgarishlari va qo'shimchalari va/yoki Universal shartnomaning Ilovalari, agar ular Universal shartnoma talablariga muvofiq amalga oshirilgan bo`lsa, haqiqiy hisoblanadi.

## 10. BANK MANZILI VA REKVIZITLARI

**«Tenge Bank» ATB**
Manzil: Toshkent sh., Yashnobod tumani,
Parkent ko`chasi, 66-uy
MFO: 01176, STIR: 207297973
Aloqa-markazi raqami: 1245

«Tenge Bank» ATBda jismoniy shaxslarga
xizmat ko`rsatish bo`yicha Universal shartnomaga
**1-ILOVA**

**«Tenge Bank» ATBda jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatish bo'yicha Universal shartnomaga qo'shilish to'g'risida**
**OMMAVIY OFERTA**

Ushbu Ommaviy oferta (bundan buyon matnda “Oferta” deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan chiqarilgan O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasidagi bank kartalari saqlovchilari bo'lgan jismoniy shaxslarga yo`naltirilgan bo`lib, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 360 va 369-moddalari shartlari asosida, ushbu Ommaviy ofertada bayon qilingan tartibda va hajmda «Tenge Bank» ATBda jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatish bo'yicha Universal shartnomaga (bundan buyon matnda “Universal shartnoma” deb yuritiladi) qo'shilish shartnomasini tuzish to'g'risidagi «Tenge Bank» ATBning (bundan buyon matnda “Bank” deb yuritiladi) rasmiy ommaviy taklifi hisoblanadi.

Ushbu Ommaviy Oferta jismoniy shaxsning Universal shartnomani tuzishi va unga qo'shilishi uchun umumiy shartlarni o'z ichiga oladi.

Bankda ochilgan bank hisobvarag'iga ega bo'lmagan bank kartalari egalari Bankda ularning nomlariga ochilgan hisobvaraqlardan foydalanmasdan amalga oshiriladigan masofaviy bank xizmatlaridan (MBX) foydalanishlari mumkin. Bunday xizmatlarning ro'yxati Universal shartnomada ko'rsatilgan, shuningdek Bank mobil ilovasining funktsionali bilan belgilanadi.

Bunda, keyinchalik Bankda hisobvaraq/MKH ochilgan taqdirda, jismoniy shaxs Bank tomonidan taqdim etiladigan bank xizmatlari va mahsulotlarining to'liq funktsionalidan foydalanishi mumkin, buning uchun Bank tomonidan chiqarilgan kartani Bankning Mobil ilovasida ro'yxatdan o'tkazish kerak bo'ladi.

1. Universal shartnomaga qo'shilish shartnomasi jismoniy shaxs (bundan buyon matnda “Mijoz” deb yuritiladi) ushbu Ofertada nazarda tutilgan va Mijoz tomonidan ushbu Ommaviy ofertaning va Universal shartnomaning barcha shartlarini hech qanday olib qo'yish yoki cheklovlarsiz so'zsiz qabul qilishini (aktseptlashni) anglatuvchi harakatlarni amalga oshirgan paytdan boshlab tuzilgan deb hisoblanadi va kuchga kiradi.

2. Ommaviy ofertani aktseptlash, Mijoz tomonidan quyidagi harakatlarni amalga oshirgandan so'ng tasdiqlangan hisoblanadi:

- oldindan o'rnatilgan operatsion tizimi (Android va/yoki iOS) bo`lgan Mobil qurilmaga Bankning mobil ilovasini yuklab olish yoki login orqali Internet-bankka kirish;
- Bankning mobil ilovasida yoki Internet-bankda kerakli ma'lumotlarni taqdim etish (ro'yxatdan o'tish tartib-taomilidan o'tish);
- Tasdiqlash kodini olish va uni Bankning Mobil ilovasining Tasdiqlash oynasiga yoki Internet-bankka kiritish (*PIN-kod va/yoki Touch IDni sozlash*).

3. Huquq va majburiyatlar, nizolarni ko'rib chiqish tartibi va Tomonlarning boshqa munosabatlari Universal shartnomada belgilanadi va, shu jumladan, Mijozning harakatlari asosida, Mijoz tomonidan Topshiriqlar, arizalar, buyurtmalar va boshqalarni, shu jumladan Mijoz tomonidan Mobil bank va Bankning Aloqa-Markazi orqali taqdim etish va Bank tomonidan ijro etish uchun qabul qilish orqali yuzaga keladi.

4. Ushbu Ofertani aktseptlab, Mijoz quyidagilarni tasdiqlaydi:

- ushbu Oferta, Universal shartnoma shartlari va Bank Tariflari bilan tanishganligini va rozi ekanligini va ularga rioya qilish majburiyatini olishini;
- Ofertaga muvofiq foydalaniladigan Login, Parol, bir martalik o'zgaruvchan kodlar uning bank hisobvaraqlaridagi mablag'larni tasarruf etish huquqini tasdiqlovchi yetarli vositalar hisoblanishini;
- Tizim servislari va Mobil ilova doirasida amalga oshirilayotgan harakatlarni tasdiqlash, shu jumladan SMS/xabarlar orqali mobil telefon Raqamiga va/yoki Elektron pochtaga yuboriladigan bir martalik o'zgaruvchan kodlar yordamida amalga oshirilishidan xabardorligini;

- mobil telefon yo'qolgan taqdirda, shuningdek elektron pochta manzili va boshqa shaxsga doir ma'lumotlarning o'zgarganligi to'g'risida, bunday o'zgarishlar sodir bo'lgan kundan boshlab 1 ish kuni ichida Bankka xabar berish zarurligi to'g'risida o`zining xabardorligini;
- raqamli identifikatsiyadan muvaffaqiyatli o'tganidan keyin va milliy valyutada ilgari ochilgan talab qilib olinguncha omonat mavjud bo'lmaganidan so`ng talab qilib olinguncha omonat ochishga o`z roziligini.

5. Mijoz Bankka shaxsga doir ma'lumotlariga ishlov berish, shuningdek, Mijoz tomonidan tanlangan bank/moliyaviy xizmatlarni ko`rsatishda, shuningdek Bankning moliyaviy servislarini yaxshilash va Mijozlarga takliflarni shakllantirish maqsadida, ularni topshirish va ularga uchinchi shaxslar tomonidan ishlov berish huquqini beradi (“YUPM” MCHJ, “Milliy banklararo protsessing markazi” MCHJ, kredit tarixi byurosi, DSQ, “Xalk bank” ATdan SHJPHga ajratmalar holati to'g'risida va ma'lumot olish uchun Bank sheriklarining va davlat organlarining boshqa integratsiyalashgan bazalariga).

6. Universal shartnomaning qoidalari Tomonlar tarafidan tuzilgan sanadan boshlab kuchga kiradi va Universal shartnomada, shuningdek O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha u tugatilgunga qadar amal qiladi.

7. Bank Ilovadan foydalanishning va/yoki foydalana olmaslikning har qanday oqibatlari (ilovani mobil qurilmaga o'rnatishda (yuklab olishda) va keyinchalik ilovadan foydalanishda), shuningdek, Ilovadan bunday foydalanish va/yoki foydalana olmaslik natijasida uchinchi shaxsga yetkazilgan zarar uchun javobgar bo`lmaydi.

8. Universal shartnoma har qanday asoslarga ko`ra bekor qilingan taqdirda, Universal shartnoma bekor qilinguniga qadar yuzaga kelgan barcha majburiyatlar to'liq hajmda va uning shartlariga muvofiq bajarilishi kerak. Oferta Universal shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

9. Oferta Universal shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

10. Ushbu Oferta bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan o'zbek va rus tillarida e`lon qilingan. Nomuvofiqliklar yuzaga kelgan taqdirda, rus tilidagi matn ustunlik qiladi.

## 11. BANK MANZILI VA REKVIZITLARI

**«Tenge Bank» ATB**
Manzil: Toshkent sh., Yashnobod tumani,
Parkent ko`chasi, 66-uy
MFO: 01176, STIR: 207297973
Aloqa-markaz raqami: 1245

«Tenge Bank» ATBda jismoniy shaxslarga
xizmat ko`rsatish bo`yicha Universal shartnomaga
**2-ILOVA**

**«Tenge Bank» ATBda**
**jismoniy shaxslarga xizmat ko`rsatish bo`yicha universal shartnomaga qo`shilish to`g`risida**
**_______-sonli ARIZA-ANKETA**

**Men, fuqaro___________________________________________________________________**
*(familiyasi, ismi, otasining ismi)*

Keyinchalik **"Mijoz"** deb yuritiladi, **ushbu bilan, men «Tenge Bank» ATBda jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatish bo'yicha Universal shartnomaning (bundan buyon matnda "Universal shartnoma" deb yuritiladi) amaldagi tahririga so'zsiz va to'liq (hech qanday izohlar, istisnolar, olib qo'yishlar va e'tirozlarsiz) qo'shilishimni bayon qilaman va qo`lda shaxsan qo`yilgan imzoim bilan tasdiqlaqman,**

1. Universal shartnomaga qo'shilish O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 360-moddasiga muvofiq Mijoz sifatida qo'shilish orqali amalga oshiriladi. Universal shartnoma Internet tarmog`ida quyidagi manzil bo`yicha e'lon qilindi: **www.tengebank.uz.**

2. Universal shartnoma doirasida bildirishnomalarni olish (xabarnonama) uchun quyidagi elektron pochta manzili/telefon raqami xabarlarni yuborish va qabul qilish uchun Mijozning avtorizatsiyalangan elektron pochta manzili sifatida tan olinadi:

_______________________________________/_______________________________________
__.

Xabar berish uchun elektron pochta manzili/telefon raqami bo'lmagan taqdirda, barcha bildirishnomalar Mijozning doimiy yashash joyi bo`yicha hisobga olingan joyga yuboriladi.

3. Tomonlarning huquqlari va majburiyatlari Universal shartnomada belgilanadi va Mijozning harakatlari, Mijoz tomonidan Topshiriqlarni, arizalarni taqdim etish, shu jumladan Mijoz tomonidan Mobil bank va Bankning Aloqa-markazi orqali yuborish va "Tenge Bank" ATB (bundan buyon matnda "Bank" deb yuritiladi) tomonidan ijro uchun qabul qilish asosida vujudga keladi.

4. Universal shartnomani tuzish orqali Mijoz **Universal shartnoma shartlari va Bank Tariflari bilan tanishganligini va rozi ekanligini** tasdiqlaydi.

1. 5.

2. Mijoz Bankka quyidagi huquqlarni beradi:

- uning shaxsga doir ma'lumotlariga ishlov berish, shuningdek, Mijoz tomonidan tanlangan bank/moliyaviy xizmatlarni ko`rsatishda, shuningdek Bankning moliyaviy servislarini yaxshilash va Mijozlarga takliflarni shakllantirish maqsadida, ularni topshirish va ularga uchinchi shaxslar tomonidan ishlov berish huquqini beradi ("YUPM" MCHJ, "Milliy banklararo protsessing markazi" MCHJ, kredit tarixi byurosi, DSQ, "Xalk bank" ATdan SHJPHga ajratmalar holati to'g'risida va ma'lumot olish uchun Bank sheriklarining va davlat organlarining boshqa integratsiyalashgan bazalariga).
- "Garov reestri" DUKga yozuvlarni kiritish/o'zgartirish/o'chirish uchun (shu jumladan, taqiqni tekshirish, taqiq qo`yish va uni olib tashlash);
- o`zaro munosabatning quyidagi usullaridan foydalanish: telefon suhbatlari, pochta jo'natmalari, SMS-bildirishnomalar, matnli, ovozli va aloqa tarmoqlari orqali va "Internet" axborot-telekommunikatsiya tarmog'idan foydalangan holda uzatiladigan boshqa xabarlar;

- "Tenge Bank" ATB bilan shartnomalar tuzish maqsadida shaxsga doir ma'lumotlarni, shu jumladan davlat ma'lumotlar bazalaridan olingan ma'lumotlarni uchinchi shaxslar tomonidan to'plash va ishlov berish uchun;
- Bankdan xizmatlar olish maqsadida Mijoz va hujjatlarni suratga olish, shuningdek identifikatsiya qilish uchun rasmdan foydalanish;
- ushbu Shartnoma bo'yicha to'lanishi kerak bo'lgan summalarni barcha hisobvaraqlardan, Qarz oluvchining bankdagi bank kartalaridan va boshqa banklardagi bank hisobvaraqlaridan, shuningdek Qarz oluvchining har qanday valyuta hisobvaraqlaridan hisobdan chiqarish sanasida Markaziy bank valyutasini sotish kursi bo'yicha konvertatsiya qilish bilan aktseptsiz tartibda hisobdan chiqaradi.

6. Universal shartnoma Tomonlar tarafidan tuzilgan sanadan boshlab kuchga kiradi va Universal shartnomada, shuningdek O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha u tugatilgunga qadar amal qiladi.

7. Universal shartnoma har qanday asoslar bo`yicha bekor qilingan taqdirda, Universal shartnoma bekor qilinishidan oldin yuzaga kelgan barcha majburiyatlar to'liq hajmda va uning shartlariga muvofiq bajarilishi kerak.

8. Ushbu Ariza-anketa Universal shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi va Tomonlarning xohish-irodasi bilan rus tilida tuzilgan.

| |
|---|
| **Mijoz:**<br>______________________________________________________________<br>Shaxsni tasdiqlovchi hujjatning seriyasi va raqami: _______________________<br>Berilgan sana va joy: _______________________________________________<br>Manzil: ________________________________________________________<br>Mijozning imzosi: _____________________________«___» ________ **202__ y.** |

**«Tenge Bank» ATBda jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatish bo'yicha Universal shartnomaga 3-sonli ILOVA**

# «TENGE BANK» ATBDA JISMONIY SHAXSLARNING OMONAT OPERATSIYALARINI AMALGA OSHIRISH ASOSIY SHARTLARI VA TARTIBIGA QO'SHILISH TO'G'RISIDA OMMAVIY OFERTA

## 1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Mazkur Ommaviy oferta (bundan buyon matnda – "Oferta") "Tenge Bank" ATBda jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatish bo'yicha Universal shartnomaning (bundan buyon matnda Universal shartnoma deb yuritiladi) ajralmas qismi va «Tenge Bank» ATB (bundan buyon matnda – "Bank")ning O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 360 va 369-moddalariga muvofiq, Mijozning Bankda jismoniy shaxslarning omonat operatsiyalarini amalga oshirish asosiy shartlari va tartibiga qo'shilishi, shuningdek Mijozga mazkur Ofertaning 1.4-bandida belgilangan turdagi xizmatlar taqdim qilinishi yuzasidan rasmiy taklifi hisoblanadi.

1.2. Ofertada Mijoz va Bankning (bundan buyon matnda – "Taraflar") huquqlari va majburiyatlarini, javobgarligini, komissiya haqini to'lash tartibini va boshqa shartlarni o'z ichiga olgan omonat operatsiyalari bo'yicha bank xizmatlarini ko'rsatish asosiy shartlari belgilanadi, ularga rioya qilinishi Taraflar o'zaro munosabatlarining asosiy tamoyili va Shartnoma/ArizaOfertaning ajralmas qismi hisoblanadi.

1.3. Mazkur Oferta Mijozga omonat operatsiyalarini amalga oshirish tartibini, ularni amalga oshirish va bekor qilish shartlarini belgilaydigan hujjat hisoblanadi. Oferta Mijoz tomonidan muayyan bank xizmatlaridan foydalanish uchun belgilangan shaklda rasmiylashtirilgan hujjatning ajralmas qismi hisoblanadi.

1.4. Mazkur Oferta doirasida Mijoz Bankda jismoniy shaxslar uchun quyidagi kabi joiz xizmatlar olishga haqli:

- milliy valyutada talab qilib olguncha saqlanadigan omonat hisobvarag'ini ochish va unga xizmat ko'rsatish;
- xorijiy valyutada talab qilib olguncha saqlanadigan omonat hisobvarag'ini ochish va unga xizmat ko'rsatish;
- muddatli va jamg'arma omonatlarga xizmat ko'rsatish;
- yuqorida qayd etilgan omonatlardan foydalanib amalga oshiriladigan boshqa turdagi bank xizmatlari.

1.5. Mazkur Ofertani akseptlash orqali Mijoz Bankda barcha joiz xizmatlardan foydalanish majburiyatini o'ziga olmaydi, balki faqat o'z xohish-istagiga asosan yoki zaruriyatga qarab foydalanish majburiyatini oladi.

1.6. Mazkur Ofertadan Mijozga (bundan buyon matnda – "Omonatchi") Bank bo'linmasida yoki MBX orqali xizmatlar taqdim qilish uchun foydalanish mumkin.

1.7. Omonatlar bo'yicha hisobvaraq ochish uchun arizani (mazkur Ofertaga 1-sonli Namuna va 2-sonli Namuna) imzolash yoki mazkur Ommaviy ofertani MBX tizimi yordamida akseptlash orqali Omonatchi mazkur Oferta, Universal shartnoma va amaldagi Bank Tariflari bilan tanishib chiqqanligini va roziligini tasdiqlaydi, bu mazkur Oferta va Universal shartnomaning barcha shartlari so'zsiz qabul qilinganligini (akseptlanganligini) anglatadi.

1.8. Omonat hisobvarag'iga pul mablag'lari summasining o'tkazmasi bo'yicha operatsiyaning amalga oshirilishi va operatsiya amalga oshirilganligi to'g'risida SMS-xabarnoma olinishi Oferta tuzilganligi va/yoki MBX tizimi ("Shaxsiy kabinet", Bank mobil ilovasi va h.k.) orqali

Omonatchining talab qilib olguncha saqlanadigan omonatlar, muddatli yoki jamg'arma omonatlar (bundan buyon matnda – "Omonat") hisobvaraqlariga pul mablag'lari o'tkazmasining tasdig'i hisoblanadi.

1.9. Kirim orderi/memorial order Bank bo'linmasida rasmiylashtirilgan Omonat hisobvaraqlariga pul mablag'lari o'tkazmasining tasdig'i hisoblanadi. Mijozning xohish-istagiga qarab, tasdiqlash sifatida qo'shimcha ravishda Omonat blanki beriladi.

1.10. Omonat blanki Bank tomonidan omonat bo'yicha bajarilgan operatsiyalarni tasdiqlaydigan va omonat bo'yicha majburiyatlar qabul qilinishini kafolatlaydigan hujjat hisoblanadi. Omonat blanki omonat kassa daftarchasiga tenglashtiriladi.

1.11. Omonat qoldiqlari, kirim-chiqim operatsiyalari, omonat muddati tugashi to'g'risidagi ma'lumotlarni, shuningdek omonat bo'yicha boshqa kerakli axborotni Omonatchi SMSxabarnoma, Bank rasmiy sayti yoki Bank mobil ilovasi orqali ochilgan shaxsiy kabinet xizmatlari yordamida olishi mumkin.

1.12. Omonatchi Bank tomonidan taklif qilingan tanlangan Omonatga pul mablag'larini kiritadi, Bank esa Omonat summasini qabul qilish va qaytarish, shuningdek Omonat shartlariga asosan foizlarni to'lash (bunday shartlar belgilangan holatda) majburiyatini oladi.

1.13. Bank tomonidan Omonatga qabul qilingan pul mablag'larining qaytarilishi O'zbekiston Respublikasining 2002 yil 05 apreldagi "Banklarda fuqarolarning omonatlarini himoya qilish kafolatlari to'g'risida"gi 360-II-sonli Qonuniga asosan O'zbekiston Respublikasi banklarida fuqarolarning omonatlarini kafolatlash fondi tomonidan kafolatlanadi.

1.14. Omonatchi Bank tomonidan taklif qilinadigan Omonat turini mustaqil ravishda tanlaydi, u Omonatni Bank bo'linmasida yoki MBX orqali ochishi mumkin.

1.15. Barcha amaldagi Omonatlar shartlari bilan Omonatchi Bankda umumiy foydalanish joyida o'rnatilgan axborot stendlarida yoki MBX orqali, shu jumladan Bankning www.tengebank.uz veb-saytida tanishib chiqishi mumkin.

## TALAB QILIB OLGUNCHA SAQLANADIGAN OMONATLAR BO'YICHA PUL MABLAG'LARINI JOYLASHTIRISH VA QAYTARISH SHARTLARI

Talab qilib olguncha saqlanadigan Omonatlar bo'yicha ochilgan hisobvaraqlar Omonatchining birinchi talabiga binoan pul mablag'lari (to'liq yoki qisman) berilishi shartlarida muddatsiz hisoblanadi.

Bank tomonidan talab qilib olguncha saqlanadigan Omonatning minimal va maksimal miqdori belgilanmagan.

Talab qilib olguncha saqlanadigan Omonatlardagi pul mablag'larini saqlash foizlar hisoblab yozilmagan holda amalga oshiriladi.

Qo'shimcha tovonlar va qisman olinishi summa bo'yicha cheklovsiz nazarda tutilgan.

Talab qilib olguncha saqlanadigan Omonatdagi pul mablag'larini joylashtirish O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan usullar yordamida naqd pul shaklida va naqd pulsiz shaklda amalga oshiriladi.

Talab qilib olguncha saqlanadigan Omonatlar Bank bo'linmasiga bevosita kelish tartibida, shuningdek MBX orqali ochiladi.

Talab qilib olguncha saqlanadigan Omonatlar Bank bo'linmasiga bevosita kelish tartibida O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga asosan shaxsini tasdiqlovchi hujjat taqdim qilingan holda, Omonatchi tomonidan Bankda belgilangan shaklda va tartibda mazkur Ofertaga havola qilingan ariza berilishi orqali ochiladi. Bunda, yozma shaklda Shartnoma tuzish talab qilinmaydi, Oferta berilgan arizaning ajralmas qismi hisoblanadi.

Omonatchi arizani imzolash orqali mazkur Oferta bilan tanishib chiqqanligini va so'zsiz roziligini tasdiqlaydi.

Talab qilib olguncha saqlanadigan Omonatlarning MBX orqali ochilishi «Tenge Bank» ATBda jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatish bo'yicha Universal shartnomaga qo'shilish to'g'risida Ommaviy oferta"ni akseptlash asosida amalga oshiriladi, bu Omonat va Oferta shartlariga so'zsiz rozilikni anglatadi.

Omonatchining Bank bo'linmasiga bevosita kelish tartibida talab qilib olguncha saqlanadigan Omonatdan pul mablag'lari o'tkazmasi to'g'risida farmoyishi ijrosi faqat O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga asosan Omonatchi shaxsini tasdiqlovchi hujjat

taqdim qilingan holda amalga oshiriladi. MBX orqali talab qilib olguncha saqlanadigan Omonatdan pul mablag'lari o'tkazmasi MBX tizimida tegishli so'rovnoma berish orqali amalga oshiriladi.
Omonatchining xohishiga ko'ra, talab qilib olguncha saqlanadigan Omonatni istalgan vaqtda Bankka ariza berish yoki MBX tizimi bo'yicha so'rovnoma yuborish orqali yopish mumkin.
Talab qilib olguncha saqlanadigan Omonat bo'yicha pul mablag'lari qoldig'i va 12 oy mobaynida operatsiyalar bo'lmagan holatda, Bank tegishli ariza rasmiylashtirilmagan holda hisobvaraqni avtomatik ravishda yopishga haqli.
Talab qilib olguncha saqlanadigan Omonat bo'yicha pul mablag'lari qoldig'i bo'lgan va 12 oy mobaynida operatsiyalar bo'lmagan holatda, Omonatchiga SMS-xabarnoma yuborilganidan so'ng ushbu Omonatlar faoliyatsiz (uxlayotgan) hisobvaraqlarga o'tkaziladi. Pul mablag'lari o'tkazilganidan so'ng, Omonat hisobvarag'i yopiladi, faoliyatsiz hisobvaraqlarga chiqim operatsiyalarini amalga oshirish uchun taqiq qo'yiladi. Omonatchi faoliyatsiz hisobvaraqdagi pul mablag'larini olish istagini bildirgan holatda, u taqiqni olib tashlash va pul mablag'larini yangi omonat hisobvarag'iga o'tkazish uchun Ariza/so'rovnoma taqdim qiladi.
MBX orqali Omonatdan pul mablag'larini qisman olish (asosiy summa) yoki butun summani muddatdan oldin qaytarish «Tenge Bank» ATBda ochilgan hisobvaraqqa yoki bank kartasiga amalga oshiriladi. Bunda, boshqa banklarda ochilgan hisobvaraqlarga yoki bank kartalariga kelgusi pul mablag'lari o'tkazilishi amaldagi Bank Tariflariga asosan belgilanadi.

## JAMG'ARMA/MUDDATLI OMONATLAR BO'YICHA PUL MABLAG'LARINI JOYLASHTIRISH VA QAYTARISH SHARTLARI

Muddatli va jamg'arma Omonatlarga pul mablag'larini joylashtirish O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan usullarda va muayyan Omonat shartlariga asosan naqd pul shaklida va naqd pulsiz shaklda amalga oshiriladi.
Bank bo'linmasiga bevosita kelish tartibida Omonat rasmiylashtirilgan holatda, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga asosan Omonatchi shaxsini tasdiqlovchi hujjatni va Bank tomonidan belgilangan namunadagi arizani taqdim qiladi. Taraflar muddatli va jamg'arma Omonatlar bo'yicha shartnoma tuzadilar, ushbu shartnomada Omonatning barcha muhim shartlari belgilanadi. Taraflarning huquqlari va majburiyatlari, shuningdek javobgarligi tuzilgan shartnomaning ajralmas qismi va unga qo'shimcha hisoblangan mazkur Ofertada belgilangan. Rasmiylashtirilgan shartnomada Omonatchi imzosi mazkur Oferta bilan tanishib chiqqanlikni va unga so'zsiz rozilikni anglatadi.
MBX orqali ochilgan Omonatlar Ofertani akseptlash asosida ochiladi, bu Mijozning Bank Tariflariga va Bank tomonidan taklif qilinadigan shartlarga to'liq roziligini anglatadi.
MBX orqali Omonatlar bo'yicha operatsiyalar quyidagi holatlarda amalga oshirilmaydi:
- agar MBXni ko'rsatish tizimlari operatsiya o'tkazish jarayoni
ishtirokchilaridan biri texnik sabablarga ko'ra vaqtincha faoliyat olib bormasa; - Bank operasion kuni ochilish/yopilish jarayonida.
3.5. Omonat bo'yicha foizlar "Tijorat banklarida foizlarni hisoblab yozish to'g'risida"gi Nizomga asosan (Adliya vazirligi tomonidan 2004 yil 30 yanvarda 1306-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) har kuni hisoblab yoziladi. Bunda, bir yilda hisob-kitob kunlari soni 365 kun deb qabul qilinadi.
3.6. Omonat ochilganida foizlar hisoblab yozilishi Omonatchi hisobvarag'iga pul mablag'lari o'tkazilgan kundan keyingi kundan e'tiboran boshqa asoslar bo'yicha ular to'liq qaytariladigan/to'liq chegirib olinadigan kungacha har kuni amalga oshiriladi.
3.7. Omonatga kelgusi qo'shimcha tovonlarda foizlar hisoblab yozilishi Omonatchi hisobvarag'iga pul mablag'lari o'tkazilgan/tushgan kundan keyingi kundan e'tiboran har kuni amalga oshiriladi.
3.8. Omonat hisobvarag'iga pul mablag'lari ishlamaydigan/bayram kunlarida o'tkazilgan holatda, ishlamaydigan kundan keyingi birinchi ish kuni pul mablag'lari o'tkazilgan kun hisoblanadi, bunda foizlar hisoblab yozilishi MBX tizimida Omonatni to'ldirish bo'yicha operatsiya amalga oshirilgan kundan keyingi kundan e'tiboran amalga oshiriladi.
3.9. Omonat hisobvarag'iga pul mablag'lari operasion kun ochilishi/yopilishidan so'ng o'tkazilgan holatda, navbatdagi operasion kun hisobvaraqqa pul mablag'lari o'tkazilgan kun

hisoblanadi, bunda foizlar hisoblab yozilishi Omonatchi hisobvarag'iga pul mablag'lari o'tkazilgan kundan keyingi kundan e'tiboran amalga oshiriladi.
3.10. Omonat asosiy summasining qisman olinishi Bankda ochilgan hisobvaraqqa yoki bank kartasiga amalga oshiriladi, bunda foizlar kun mobaynida to'ldirilgan summalar hisobga olinmagan holda omonat bo'yicha haqiqiy qoldiqqa hisoblab yoziladi. Foizlar hisoblab yozilishi kun mobaynida Omonat bo'yicha eng kam qoldiq summasiga amalga oshiriladi, bunda Omonat bo'yicha eng kam qoldiq summasi, omonatga to'ldirilgan summalar hisobga olinmagan holda, kun mobaynida omonatdan olingan barcha summalar chegirib qolingan holda minimal qoldiq summasidan iborat bo'ladi.
3.11. Bank Omonatchi hisobvarag'ining xatlanishi oqibatida ushbu hisobvaraqdagi pul mablag'laridan foydalanish imkoniyati bo'lmagan davrda foizlar hisoblab yozilmaydi.
3.12. Omonatlar bo'yicha foizlar to'lovi Omonat shartlariga muvofiq amalga oshiriladi, foizlar to'lovi tartibi tuzilgan shartnomada yoki akseptlangan Ofertada belgilanadi.
3.13. Omonat muddati tugashi munosabati bilan uni qaytarish kuni dam olish yoki bayram (ishlamaydigan) kunlariga to'g'ri kelgan holatda, omonatni berish dam olish yoki bayram (ishlamaydigan) kunlaridan so'ng birinchi ish (bank) kunida amalga oshiriladi. Bunda, dam olish yoki bayram (ishlamaydigan) kunlari uchun foizlar hisoblab yozilmaydi.
3.14. Omonatning muddatidan oldin yopilishi Omonat shartlari asosida faqat Bankda ochilgan hisobvaraqqa yoki bank kartasiga amalga oshiriladi va tuzilgan shartnomada yoki akseptlangan Ofertada belgilanadi.
3.15. Omonatni saqlash muddati tugaganidan so'ng yoki Omonat muddatidan oldin yopilgan holatda, Omonat pul mablag'lari o'tkazmasidan so'ng Omonat hisobvarag'i avtomatik ravishda yopiladi.
3.16. MBX orqali boshqariladigan jismoniy shaxslarning Omonatlaridagi pul mablag'lari Bank kassasi orqali naqd pul shaklida berilmaydi.

## 4. OMONATCHI HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

4.1. Mazkur Ofertani akseptlash (rozilik bildirish) orqali Omonatchi mazkur Oferta bilan tanishib chiqqanligini va roziligini, shuningdek barcha talablari va shartlariga rioya qilish majburiyatini o'ziga olishini tasdiqlaydi, shuningdek Bank Omonatchi uchun kerakli valyutada tegishli hisobvaraqlar ochganligiga rozilik bildiradi.
4.2. Omonatni ochishda Omonatchi Bank yuqorida qayd etilgan mobil aloqa raqamiga SMSxabarnoma shaklida va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa usullar orqali operatsiyalar bo'yicha axborot, shuningdek Bank yangiliklarini yuborishi mumkinligi to'g'risida xabardor qilingan va bunga rozilik bildirgan.
4.3. Mazkur Oferta orqali Omonatchi o'zining barcha shaxsiy ma'lumotlarini bank xizmatlaridan foydalanish uchun kerakli bo'lgan, olinganlik faktini tasdiqlash imkonini beradigan har qanday shaklda to'plash, ishlash, yig'ish, saqlash, o'zgartirish, to'ldirish, ishlatish, identifikasiyalash va bank xizmatlaridan foydalanish maqsadida Bankni qoniqtiradigan shaklda hujjatlarni skanirlash, fotosuratga olish va olingan tasvirlardan foydalanish uchun rozilik beradi.
4.3.1. Bank tomonidan Omonatga pul mablag'lari yanglish o'tkazilgan holatda, Mijoz Bankka Mijozning qo'shimcha topshiriqlarisiz Omonatga yanglish o'tkazilgan pul mablag'lari miqdorida va/yoki Omonat summasiga ortiqcha hisoblab yozilgan/to'langan foizlar miqdorida pul mablag'larini Omonatdan chegirib olish huquqini beradi va rozilik bildiradi (oldindan berilgan aksept).
4.4. Omonatchi quyidagilarga haqli:
4.4.1. Omonatga pul mablag'lari o'tkazilganidan so'ng, belgilangan tartibda tasdiqlanishni olish;
4.4.2. SMS-xabarnoma va/yoki MBX tizimi (Bank mobil ilovasi, Bankning www.tengebank.uz rasmiy saytida joylashgan shaxsiy kabinet) orqali Omonat bo'yicha operatsiyalar to'g'risida ma'lumotlar olish;
4.4.3. Omonat bo'yicha bank xizmatlarini, shu jumladan MBXni
ko'rsatish tizimi orqali amalga oshirish;
4.4.4. belgilangan tartibda omonat hisobvarag'i bo'yicha ko'chirmalar olish;

4.4.5. O’zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq Omonatdan shaxsan foydalanish yoki uchinchi shaxslarga Omonatdan foydalanish huquqini berish;
4.4.6. O’zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq Omonatchining boshqa huquqlaridan foydalanish;
4.4.7. Omonat summasidan va hisoblab yozilgan foizlardan (bunday foizlar bo’lgan holatda) erkin foydalanish;
4.4.8. Omonat muddati tugaganidan so’ng, shuningdek mazkur Ofertada belgilangan tartibda muddatidan oldin Omonat summasini talab qilib olish;
4.4.9. O’zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq Omonatchining boshqa huquqlaridan foydalanish.
4.5. Omonatchi quyidagi majburiyatlarga ega:
4.5.1. Omonat va mazkur Oferta shartlari bilan tanishib chiqish;
4.5.2. mazkur Oferta shartlariga rioya qilish;
4.5.3. Bankka faqat to’g’ri, aniq, asoslangan ma’lumotlarni taqdim qilish;
4.5.4. O’zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga, O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki va boshqa vakolatli organlar normativ hujjatlariga qat’iy muvofiqlikda hisobvaraqlar bo’yicha operatsiyalar o’tkazish;
4.5.5. MBX orqali Omonat ochilganida MBX tizimi foydalanuvchi bo’lish, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda raqamli identifikasiyalash, verifikasiyalashdan o’tish va Omonatning boshlang’ich summasini (tovonini) to’lash uchun bank kartochka hisobvarag’ida yetarlicha pul mablag’lariga ega bo’lish;
4.5.6. hisobvaraqqa yanglish o’tkazilgan va/yoki hisobvaraqlardan yanglish chegirib olingan pul mablag’lari aniqlangan holatda, darhol bu haqda Bankka ma’lum qilish va hisobvaraqdan tadbirkorlik faoliyati bilan bog’liq operatsiyalarni amalga oshirish uchun foydalanmaslik;
4.5.7. operatsiya amalga oshirilgan kunda Bank Tariflarida nazarda tutilgan Omonat bo’yicha bank operatsiyalari bilan bog’liq komissiya haqlarini to’lash;
4.5.8. MBX orqali Omonat mablag’laridan foydalanish huquqini beradigan ma’lumotlar (login, parollar, PIN kodlar) maxfiyligini ta’minlash va ularni uchinchi shaxslarga bermaslik;
4.5.9. MBX orqali login va parolidan har qanday ruxsatsiz foydalanish holati va/yoki har qanday xavfsizlik buzilishi to’g’risida Bankni darhol xabardor qilish;
4.5.10. O’zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq Omonatdan shaxsan foydalanish yoki notarial tasdiqlangan vakolatnomani rasmiylashtirish orqali uchinchi shaxslarga Omonatdan foydalanish huquqini berish;
4.5.11. turar joy manzili, ish joyi, familiyasi yoki ismi o’zgarganligi to’g’risida, shuningdek Omonatchining mazkur Oferta bo’yicha o’z majburiyatlari bajarilishiga ta’sir etishi mumkin bo’lgan boshqa vaziyatlar to’g’risida Bankka 3 (uch) kalendar kuni mobaynida ma’lum qilish;
4.5.12. O’zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga asosan boshqa majburiyatlarni bajarish.
4.6. Omonatchi vafot qilgan holatda, O’zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan trtibda uning barcha huquqlari va majburiyatlari uning merosxo’rlariga o’tadi.

## 5. BANK HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

5.1. Bank quyidagilarga haqli:
5.1.1. Omonatchi tomonidan Omonat summasi Omonat muddati tugagungacha muddatidan oldin talab qilinganida Omonat shartlariga asosan Omonatni qaytarish;
5.1.2. tegishli davlat organlari ijro hujjatlari tushgan holatda, Omonatchining e’tirozlaridan qat’i nazar, O’zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tegishli choralar ko’rish (pul mablag’larini xatlash, pul mablag’larini akseptsiz tartibda chegirib olish, hisobvaraq bo’yicha operatsiyalarni to’xtatib qo’yish va h.k.);
5.1.3. Omonatchining hisobvaraqlaridagi pul mablag’lari bo’yicha bank operatsiyalari xizmatlari ko’rsatilganligi uchun belgilangan Bank Tariflariga asosan, shu jumladan Omonatchining
qo’shimcha topshirig’isiz (akseptsiz tartibda) komissiya haqini olish;
5.1.4. jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga

va ommaviy qirg'in quroli tarqalishini moliyalashtirishga qarshi kurashish maqsadlarida Bank Omonatchidan uni identifikasiyalash imkonini beradigan va hisobvaraqlar bo'yicha amalga oshirilayotgan operatsiyalar qonuniyligini tasdiqlovchi axborot va hujjatlar taqdim etilishini talab qilishga haqli;
5.1.5. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida va O'zbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in quroli tarqalishini moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlarda hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib qo'yish yoki ular ijrosini rad qilish;
5.1.6. Bank yangiliklarini, reklama materiallari va Bankning tijorat takliflarini, shuningdek Omonatchining hisobvaraqlaridan amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha axborotni Bank tizimida Omonatchi tomonidan qayd etilgan manzillarga/telefon raqamlariga pochta jo'natmalari, elektron aloqa vositalari orqali SMS-xabarnomalar shaklida yoki boshqa usulda yuborish. Omonatchi yuborilgan xat-xabarlardan uchinchi shaxslar foydalanishi bilan bog'liq barcha xavflar uchun javobgar bo'ladi;
5.1.7. Omonatlar, ulardagi qoldiqlar va mavjud bo'lmagan operatsiyalarni 12 oy mobaynida faoliyatsiz hisobvaraqqa o'tkazish, Bank ichki normativ hujjatlariga asosan Mijoz tomonidan Bankka tegishli topshiriq (ariza/so'rovnoma) taqdim qilingungacha chiqim operatsiyalari amalga oshirilishi uchun taqiqlov belgilash;
5.1.8. operatsiyalar summasiga limitlar belgilash;
5.1.9. operatsiyalar Mijozning KYC so'rovnoma sida qayd etilgan ma'lumotlarga muvofiq bo'lmagan holatda, operatsiyalarni to'xtatish, xizmatlar taqdim etilishini rad qilish va bir tomonlama tartibda qonun hujjatlariga asosan mazkur Ofertani bekor qilish;
5.1.10. Mijoz operatsiyalarini o'rganish maqsadida qo'shimcha axborot talab qilib olish;
5.1.11. Mijoz yoki uning operatsiyasi sanksiyalar ta'siriga tushgan va bunday xavf mavjud bo'lgan holatda, operatsiyalar o'tkazilishini rad qilish va bir tomonlama tartibda qonun hujjatlariga asosan mazkur Ofertani bekor qilish;
5.1.12. Mijozning hisobvaraqlari va operatsiyalari bo'yicha bank sirini ta'minlash;
5.1.13. Bank O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari normalariga asosan Mijoz hisobvaraqlari amal qilishini to'xtatib qo'yishga haqli;
5.1.14. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga asosan boshqa huquqlardan foydalanish.

5.2. Bank quyidagi majburiyatlarga ega:
5.2.1. Bankning amaldagi va taklif qilinadigan omonatlari shartlarini o'z rasmiy veb-saytida joylashtirish: www.tengebank.uz;
5.2.2. Omonatchidan kerakli summani, shuningdek, agar Omonat shartlarida nazarda tutilgan bo'lsa, qo'shimcha tovonlarni olish va uni Omonatga o'tkazish;
5.2.3. Omonat, tuzilgan Shartnoma/Oferta, shuningdek mazkur Oferta shartlariga muvofiq foizlarni hisoblab yozish va to'lash;
5.2.4. Shartnoma/Ofertaga asosan Omonat muddati tugaganidan so'ng Omonat summasini qo'shimcha tovonlar bilan birga, agar bunday tovonlar bo'lsa, qaytarish;
5.2.5. hisobvaraqlardagi mablag'larning tegishlicha saqlanishini va daxlsizligini ta'minlash. Faqat O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlarda hisobvaraqlardagi mablag'lar xatlanishi yoki hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalar to'xtatib qo'yilishi mumkin;
5.2.6. bank sirini o'z ichiga olgan ma'lumotlar himoya qilinishini ta'minlash, faqat amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan holatlarda va tartibda Omonatchi va Omonat to'g'risidagi ma'lumotlar uchinchi shaxslarga berilishi mumkin;
5.2.7. mazkur Ofertaga, shuningdek Bank Tariflariga o'zgartirishlar kiritilgan holatda, Bank o'z rasmiy veb-saytida joylashtirishi shart: www.tengebank.uz;
5.2.8. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga asosan boshqa majburiyatlarni, shu jumladan Omonatchi oldidagi majburiyatlarni bajarish.

## 6. TARAFLAR JAVOBGARLIGI

6.1. Taraflar tomonidan Oferta bo'yicha o'z majburiyatlarining bajarilmaganligi yoki

tegishlicha bajarilmaganligi uchun Oferta shartlarini buzgan Taraf O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

6.2. Omonatchi quyidagilar uchun javobgar bo'ladi:

6.2.1. Omonat to'g'risida va MBX orqali Omonat operatsiyalari to'g'risida olingan ma'lumotlarning tegishlicha saqlanishi;

6.2.2. MBX orqali Omonat mablag'laridan foydalanish huquqini beradigan ma'lumotlar (login, parollar, PIN kodlar) tegishlicha saqlanishi va maxfiyligi ta'minlanishi, shuningdek bunday axborotning tegishlicha saqlanishi va maxfiyligi ta'minlanishi bo'yicha talablarga Omonatchi tomonidan rioya qilinmaganligi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlar uchun;

6.2.3. Omonatchining qasddan maqsadi yoki ehtiyotkorligi natijasida Omonatchiga mazkur Oferta bo'yicha Bank tomonidan ko'rsatiladigan masofaviy xizmatlardan uchinchi shaxslarning noqonuniy foydalanishi va bunday noqonuniy foydalanish tufayli yuzaga kelgan barcha oqibatlar uchun.

6.3. Bank quyidagilar uchun javobgar bo'lmaydi:

6.3.1. Mijozning manzillari va/yoki telefon raqamlari, shu jumladan mobil telefon raqamlari, familiyasi, ismi yoki otasining ismi o'zgarishlari, shaxsini tasdiqlovchi hujjat almashtirilganligi to'g'risida o'z vaqtida xabardor qilinmagan, buning oqibatida MBXni ko'rsatish to'xtatib qo'yilishi yoki bank sirini o'z ichiga olgan axborot oshkor qilinishi mumkin bo'lgan holatda Mijoz nomidan o'tkazilgan operatsiyalar;

6.3.2. Omonatchi yoki uning huquqiy vorisi shartnoma amal qilishi to'xtatilganligi to'g'risida yozma shaklda Bankni o'z vaqtida xabardor qilmagan holatda o'tkazilgan operatsiyalar;

6.3.3. MBX orqali, shuningdek Omonatchining mobil telefoni begona shaxslar ixtiyoriga tushib qolgan holatlarda boshqa shaxslar tomonidan ruxsatsiz o'tkazilgan operatsiyalar;

6.3.4. MBX tizimidan foydalanish imkonini beradigan login va parolning Omonatchi tomonidan boshqa shaxslarga oshkor qilinishi;

6.3.5. MBX tizimida Omonatchining hisob qaydnomasiga ruxsatsiz kirish natijasida yetkazilgan moliyaviy va/yoki biron-bir boshqa zarar;

6.3.6. Omonatchining ehtiyotsizligi, qasddan niyati, harakatlari yoki harakatsizligi natijasida Omonatchining har qanday moliyaviy yo'qotishlariga olib kelgan/olib keladigan uchinchi shaxslar tomonidan operatsiyalar amalga oshirilishi;

6.3.7. Mijoz tomonidan, shu jumladan bank-korrespondent tomonidan moliyaviy sanksiyalar va taqiqlovlarga rioya qilinmaganligi natijasida to'xtatib qo'yilgan yoki ishga solmay qo'yilgan Mijoz operatsiyalari;

6.3.8. Omonatchi tomonidan MBX tizimi logini/parolini oshkor qilish, Omonatchining uyali telefon raqamidan boshqa shaxslar foydalanishi va MBX tizimidan ruxsatsiz foydalanishning barcha holatlari to'g'risida yozma shakldagi ariza taqdim qilingungacha Omonat bo'yicha ruxsatsiz o'tkazilgan operatsiyalar.

6.4. Taraflar mazkur Oferta bo'yicha o'z majburiyatlari to'liq yoki qisman bajarilmaganligi yengib bo'lmas kuch vaziyatlari oqibatida, ya'ni favqulodda va ushbu sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar, tabiat sharoitlari, O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari asosida majburiyatlar ijrosi keyinga qoldirilishi (moratoriy), tegishli munosabatlarni tartibga soladigan qonun yoki boshqa hujjatning amal qilishi to'xtatib qo'yilishi oqibatida yuzaga kelgan holatda, ushbu majburiyatlar tegishlicha bajarilmaganligi uchun javobgarlikdan ozod qilinadilar.

## 7. BOSHQA SHARTLAR

7.1. Mazkur Ofertadan yoki u tufayli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha nizolarni Taraflar ikki tomonlama muzokaralar orqali hal qilishga intiladilar. Taraflar kelishuvga erishmagan holatda, ular o'rtasidagi nizo O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda da'vogarning turar joy manzili bo'yicha umumiy yurisdiksiya sudida hal qilinadi.

7.2. Omonatchi Bank operasion kuni muddatlari to'g'risida xabardor qilingan, operasion kun yopilganidan so'ng MBX orqali operatsiyalar amalga oshirilgan holatda, Omonat bo'yicha operatsiya navbatdagi operasion kunda aks ettirilishi to'g'risida ogohlantirilgan.

7.3. Mazkur Ofertada nazarda tutilmagan holatlarda, Taraflar O'zbekiston Respublikasining

amaldagi qonun hujjatlari talablariga amal qiladilar.
7.4. Mazkur Oferta Mijoz/Omonatchi tomonidan akseptlangan kundan e'tiboran kuchga kiradi va Taraflar tomonidan mazkur Oferta bo'yicha barcha majburiyatlar to'liq bajarilgungacha amal qiladi.

## 8. BANK MANZILI VA REKVIZITLARI

«Tenge Bank» ATB
Manzili: Toshkent sh., Yashnobod tumani, Parkent ko'chasi, 66-uy. MFO: 01176, STIR: 207297973
Aloqa-markazi raqami: 1245

“«Tenge Bank» ATBda jismoniy shaxslarning omonat
operatsiyalarini amalga oshirish asosiy shartlari
va tartibiga qo’shilish to’g’risida Ommaviy oferta”ga
3-sonli ilovaga 1-sonli Namuna

TALAB QILIB OLGUNCHA SAQLANADIGAN OMONATNI OCHISH UCHUN ARIZA

____________________________________________
(bank nomi)
_________________________________________________________________
(Vakolatli shaxs F.I.Sh. va lavozimi)
___________________________________________________________________
_________________________________________________________________ dan
(Ariza beruvchi F.I.Sh.)

ARIZA

Sizdan ____________________________________
(valyuta nomi)
_____________________________________________________________________
(familiyasi, ismi, otasining ismi)
nomiga talab qilib olguncha saqlanadigan omonatni ochishni so’rayman.
O’z imzoim (men tomondan vakolat berilgan shaxs imzosi) namunasini ma’lum qilaman, u N hisobvarag’im bo’yicha operatsiyalarni amalga oshirishda majburiy hisoblanadi.
________________________________________________________________________
Omonat va oferta va Universal shartnoma shartlari bilan tanishib chiqdim.

Sana: "___"_______ 20__ y. _________________________
(hisobvaraq egasining imzosi)
_____________________________________________________________________________
_ _____________

BANK QAYDI

Hisobvaraqni ochish uchun hujjatlar tekshirildi:
Menedjer _________________________
(imzo)
Talab qilib olguncha saqlanadigan omonatni ochishga ruxsat beraman
____________________________________
(valyuta nomi)
__________________________________ _________________________
(Vakolatli shaxs F.I.Sh. va lavozimi) (imzo)
Hisobvaraq ochildi: "___" _______ 20__ yil.
Hisobvaraq raqami:__________________________________________________ Boshqa qaydlar: _____________________________________________________
________________________________________________________________________

«Tenge Bank» ATBda jismoniy shaxslarning
omonat operatsiyalarini amalga oshirish
asosiy shartlari va tartibiga qo'shilish to'g'risida Ommaviy oferta"ga
3-sonli ilovaga 2-sonli Namuna

JAMG'ARMA/MUDDATLI OMONATNI OCHISH UCHUN ARIZA

______________________________________

(bank nomi)

______________________________________

______________________________________

(Vakolatli shaxs F.I.Sh. va lavozimi)

_____________________________________
______________________________________dan

(Ariza beruvchi F.I.Sh.)

ARIZA

Men, ____________________________________, Sizdan _____________________
(Ariza beruvchi F.I.Sh.) (muddatli/jamg'arma)
omonatni ______________________________________________________
(omonat nomi, foiz stavkasi, muddati)
_________________________________ nomiga __________________________________
(Omonatchi F.I.Sh.) (hisobvaraq raqami)
____________________________________________________summada ochishni so'rayman.
(summa raqamlar va harflar bilan)

Omonat summasini talab qilib olguncha saqlanadigan depozitga o'tkazishingizni so'rayman
________________________
(hisobvaraq raqami)

Sana: "___"_______ 20__ y.
____________________________

(Ariza beruvchi F.I.Sh. va imzosi)

__________________________________________ ____________________
(Menedjer F.I.Sh. va lavozimi) (imzo)

__________________________________________ ____________________
(Vakolatli shaxs F.I.Sh. va lavozimi) (imzo)

«Tenge Bank» ATBda jismoniy shaxslarga
xizmat ko’rsatish bo’yicha Universal shartnomaga
4-sonli ILOVA

# “TENGE BANK” ATBDA JISMONIY SHAXSLAR UCHUN EMISSIYA QILINGAN MILLIY VA XORIJIY VALYUTADAGI BANK KARTALARIGA XIZMAT KO’RSATISH TO’G’RISIDA OMMAVIY SHARTNOMA-OFERTA

## I. Umumiy qoidalar

1.1. Mazkur “Tenge Bank” ATBda jismoniy shaxslar uchun emissiya qilingan milliy va xorijiy valyutadagi bank kartalariga xizmat ko’rsatish to’g’risida Ommaviy shartnoma-Oferta (bundan buyon matnda – “Shartnoma”) "Tenge Bank" ATBda jismoniy shaxslarga xizmat ko’rsatish bo’yicha Universal shartnomaning (bundan buyon matnda Universal shartnoma deb yuritiladi) ajralmas qismi va “Tenge Bank” Aksiyadorlik tijorat bankining ommaviy ofertasi (bundan buyon matnda – “Oferta”) va O’zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 369-moddasi 2-qismiga asosan barcha jismoniy shaxslar bilan quyida qayd etilgan shartlarda Shartnoma tuzish uchun rasmiy ommaviy taklifi hisoblanadi.

1.2. Shartnoma Mijoz tomonidan mazkur Ofertaning 2.1.- 2.3. bandlarida nazarda tutilgan, Mijozning mazkur Ofertada belgilangan shartlarda Shartnoma tuzishga roziligini tasdiqlaydigan harakatlar amalga oshirilgan paytdan e’tiboran tuzilgan hisoblanadi va kuchga kiradi.

1.3. Ofertaning aktual va oldingi versiyalari quyidagi manzil bo’yicha Bankning rasmiy korporativ saytida joylashtirilgan: https://tengebank.uz

1.4. Asosiy atamalar va ta’riflar:

Bank – Mijozlarga chakana xizmatlar ko’rsatadigan «Tenge Bank» ATB bo’linmasi;

Bank kartasi – Bank tomonidan chiqarilgan, to’lov vositasi sifatida foydalaniladigan va o’z egasiga Kartochka hisobvarag’idagi pul mablag’lari qoldig’i doirasida yoki belgilangan limit doirasida va O’zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari shartlarida milliy va xorijiy valyutada operatsiyalarni amalga oshirish imkoniyatini beradigan mahalliy yoki xalqaro to’lov tizimlari to’lov kartasi;

Qo’shimcha karta – Mijoz nomiga qo’shimcha ravishda rasmiylashtirilgan va Kartochka hisobvarag’idagi pul mablag’lari doirasida yoki dastlab chiqarilgan Bank kartasi biriktirilgan belgilangan limit doirasida operatsiyalarni amalga oshirish imkoniyatini beradigan bank kartasi;

Tashkilot – Bank tomonidan ish haqini va unga tenglashtirilgan to’lovlarni, shuningdek pensiyalar, kompensasiyalar va boshqa ijtimoiy to’lovlarni Tashkilot xodimlari uchun Bank tomonidan chiqarilgan milliy valyutadagi bank kartalariga o’tkazish tizimlarini joriy qilish bo’yicha Bank bilan Shartnoma tuzgan yuridik shaxs, yuridik shaxs tashkil etmagan holda faoliyat yurituvchi tashkilot (vakolatxonalar, filiallar va h.k.) yoki yakka tartibdagi tadbirkor;

Tashkilot xodimi/Mijoz – Tashkilot bilan mehnat yoki fuqarolik-huquqiy munosabatlarini o’rnatgan jismoniy shaxs. Shartnoma qo’llanishi maqsadlarida ushbu ta’rif pensiya va nafaqalar oluvchi shaxslarga, shuningdek O’zbekiston Respublikasining oliy ta’lim muassasalari va bilim yurtlari talabalari/kursantlari/tinglovchilariga ham joriy qilinadi;

Shaxsni tasdiqlovchi hujjat (ShTH)– O’zbekiston Respublikasi fuqarosining biometrik pasporti, shu jumladan, chet elga chiqish uchun biometrik pasporti, shaxsini tasdiqlovchi guvohnoma yoki harbiy qismlar va harbiy muassasalar qo’mondoni tomonidan berilgan harbiy xizmatchilarning harbiy guvohnomalari (harbiy majburiyatli fuqarolarning harbiy guvohnomalari bundan mustasno), O’zbekiston Respublikasi ID kartalari, yangi namunadagi haydovchilik guvohnomalari, chet el fuqarosi pasporti yoki chet el fuqarosiga O’zbekiston Respublikasida istiqomat uchun berilgan guvohnoma, fuqaroligi bo’lmagan shaxslarga O’zbekiston Respublikasida istiqomat uchun berilgan guvohnoma.

14 yoshdan 16 yoshgacha bo’lgan voyaga yetmagan shaxslarga bank xizmatlarini taqdim qilish

uchun ID kartasi va/yoki biometrik pasport, shu jumladan, chet elga chiqish uchun biometrik pasport shaxsini tasdiqlovchi guvohnoma hisoblanadi;
Ish haqi – qonun hujjatlariga asosan ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar (shu jumladan, pensiyalar va stipendiyalar);
Mijoz – Bankka Kartochka hisobvarag'ini ochish va Bank kartasini chiqarish yoki ular mavjud bo'lgan holatda, xizmatlar olish uchun murojaat qilgan jismoniy shaxs va Tashkilot Ishchisi;
Kartochka hisobvarag'i – pul mablag'laridan foydalanishni Bank kartasi orqali amalga oshirish mumkin bo'lgan Mijozning bank hisobvarag'i;
Savdo-servis korxonasi (SSK) – Bank kartalari qo'llanilgan holda hisob-kitoblar uchun Terminallardan foydalanib tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizasiya qilinishini amalga oshiradigan
Savdo-servis korxonasi (yuridik shaxs va/yoki yakka tartibdagi tadbirkor);
Avtorizasiya – to'lov tashkiloti tomonidan nazarda tutilgan qoidalar bo'yicha telefon, elektron yoki boshqa aloqa vositalari orqali Bank kartasidan foydalanib operatsiyalarni amalga oshirish uchun Bank (bank kartasi emitenti) ruxsatnomasini olish tartib-taomili;
MBXni ko'rsatish – Mijoz tomonidan telekommunikasiya tizimlaridan foydalanib masofaviy usulda uzatiladigan (olinadigan) elektron farmoyishlar asosida taqdim qilinadigan Bank xizmatlari majmui;
Tranzaksiya – Mijozning o'z Kartochka hisobvarag'i bilan va/yoki Bank kartasi orqali operatsiyasi, shu jumladan pul mablag'lari to'lovi, olinishi va boshqa operatsiyalar;
PIN-kod – Kartochka hisobvarag'idagi pul mablag'laridan foydalanish huquqini va bank kartasi egasining pul mablag'laridan foydalanishga ruxsatini tasdiqlaydigan shaxsiy identifikasiyalash raqami;
Bank kartasini blokirovka qilish – Bank kartasi faoliyatini vaqtincha to'xtatib qo'yish yoki bekor qilish choralari (bekor qilingan holatda Bank tomonidan Bank kartasi xizmat ko'rsatishga taqdim qilinganida uning olib qo'yilishi nazarda tutiladi);
Bank kartasini blokirovkadan chiqarish – Bank tomonidan Bank kartasi faoliyatini tiklash bo'yicha choralar qabul qilinishi;
Bankomat – Mijozga o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish rejimida amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha chek olingan holda naqd pulsiz to'lovlarni amalga oshirish va naqd pul vositalarini kiritish, foydalanish parollarini almashtirish va Bank kartasi balansi bo'yicha axborot olish imkonini beradigan avtomatlashtirilgan elektron-texnik qurilma;
Terminal – Mijozga tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun haq to'lash, Bankda naqd pul mablag'larini va amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha to'lov cheklarini olish, PIN-kodni almashtirish va Bank kartasi balansi bo'yicha axborot olish imkonini beradigan to'lovlarni amalga oshirish uchun elektron qurilma;
Infokiosk – Mijozga o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish rejimida Bank kartasi bilan operatsiyalarni amalga oshirish, Savdo-servis korxonasi foydasiga naqd pulsiz to'lovlarni amalga oshirish va boshqa to'lovlarni amalga oshirish, shuningdek PIN-kodni almashtirish, Bank kartasi balansi bo'yicha axborot olish, Bankdagi Kartochka hisobvarag'i holati to'g'risida axborot olish, agar Infokiosk On-line ulanishga ega bo'lsa, Kartochka hisobvarag'ini naqd pul mablag'lari bilan to'ldirish imkonini beradigan avtomatlashtirilgan elektron-texnik qurilma;
Online-hisobvaraq – Prosessing markazi frontal tizimida Mijozning Bank kartasi balansi;
Aloqa-markazi – Mijozga telefon, onlayn-chat, elektron pochta orqali amalga oshirilgan operatsiyalar, Bank kartasini blokirovka qilish va h.k. to'g'risida axborot taqdim qilish shaklida masofaviy xizmatlar ko'rsatadigan Bank bo'linmasi;
Telefon so'zlashuvlari uchun nazorat so'zi – Mijoz shaxsi va vakolatlarini tasdiqlash uchun mo'ljallangan shartli so'z yoki belgilar to'plami. Telefon so'zlashuvlari uchun parol Bank tomonidan tasdiqlangan 1-sonli Namuna bo'yicha jismoniy shaxslar uchun milliy valyutada bank kartalarini chiqarish va ularga xizmat ko'rsatish uchun arizada Mijoz tomonidan qayd etiladi;
Kartomat – Mijozga Bank xodimlari ishtirokisiz, shu jumladan Bank binosi tashqarisida bank kartalari darhol chiqarilishini amalga oshirish imkonini beradigan avtomatlashtirilgan elektron-texnik qurilma;
Qaydnoma – Tashkilot xodimlari ish haqini o'tkazish uchun kerakli rekvizitlarni o'z ichiga

olgan Tashkilot moliyaviy hujjati. Qaydnoma Bankka elektron shaklda va/yoki qog'oz tashuvchi vositada taqdim qilinadi;
Reestr – Tashkilot tomonidan tuzilgan, Tashkilot xodimlarining F.I.Sh., ularning tabel raqamlari, pasport ma'lumotlari, tug'ilgan sanasi, tug'ilgan joyi, ular propiska qilingan manzil va boshqa majburiy rekvizitlari qayd etiladigan Tashkilot xodimlari ro'yxati;
Tranzit hisobvarag'i – Tashkilotning talab qilib olguncha saqlanadigan asosiy depozit hisobvarag'idan yoki byudjet Tashkilotining Kaznacheylik shaxsiy hisobvarag'idan Tashkilot xodimlarining Kartochka hisobvaraqlariga ish haqini (pensiya, stipendiyalarni) o'tkazish uchun ochilgan bank hisobvarag'i;
Elektron xabarnoma – Bank tomonidan internet va/yoki mobil aloqa orqali Mijozning mobil telefonlariga (SMS, PUSH) va/yoki elektron pochtasiga standart shaklda yuboriladigan qisqa xabarlar;
Chet to'lov tashkiloti – to'lov tizimini identifikasiyalaydigan va uning qoidalarini belgilaydigan tovar belgilariga va (yoki) xizmat ko'rsatish belgilariga egalik huquqiga ega yuridik shaxs (CLICK, PAYME, MUNIS va h.k.);
Komprometatsiya – to'lov tizimiga kirish uchun foydalaniladigan Parol yoki tasdiqlash vositalari faqat Mijozning ulardan foydalanish huquqiga ega shaxsi tomonidan ishlatilayotganligiga ishonch yo'qotilishi;
Kobrending bank kartasi – banklar va turli kompaniyalarning birgalikdagi mahsulotlari.
Uyali aloqa operatori, tibbiyot markazi, oziq-ovqat do'koni, aviakompaniya va boshqalar Bank Sherigi sifatida faoliyat yuritishi mumkin;
Shaxsiy ma'lumotlar – elektron, qog'oz tashuvchi va (yoki) boshqa moddiy tashuvchi vositalarda qayd etilgan Mijozga tegishli yoki uni identifikasiyalash imkonini beradigan axborot;
Operatsiyalar bo'yicha limit – Kartalardan va/yoki MBX tizimidan foydalanib (Bankda bunday imkoniyat bo'lgan holatda) amalga oshiriladigan Operatsiyalar (Topshiriqlar) amalga oshirilishi uchun Bank/Mijoz tomonidan belgilangan cheklov;
Reversal – kommunikasiya xatolari (aloqadagi uzilishlar) holatida yoki Mijoz tovarlar (xizmatlar) xarid qilishni rad qilgan holatda terminal, bankomatda Karta bo'yicha tranzaksiyalar bekor qilinishi yoxud texnik sabablar bo'yicha operatsiyalar bekor qilinishi;
Kuryerlik xizmati – Mijozlar so'rovnomalari asosida yoki so'rovnomalarisiz (Bank tashabbusiga binoan) Mijozlarga kartalar yetkazib berilishini ta'minlaydigan Bank bilan shartnoma munosabatlariga ega Bank Kuryeri va/yoki Kuryerlik xizmati.

## II. Shartnoma predmeti

2.1. Mijoz tomonidan mazkur Ofertada nazarda tutilgan harakatlar amalga oshirilishi orqali mazkur Ofertaga qo'shilish yo'li bilan tuziladigan Shartnoma predmeti Bank tomonidan Kartochka hisobvaraqlari ochilishi, Bank kartalarining chiqarilishi, shuningdek Shartnoma, Universal Shartnoma shartlari va amaldagi qonun hujjatlariga asosan Kartochka hisobvaraqlari va Bank kartalariga xizmat ko'rsatilishidan iborat.
2.2. MBXni ko'rsatish kanallari orqali bank mahsulotlari va xizmatlari olingan holatda, ariza berish va shartnoma tuzish MBXni ko'rsatish kanallarida qayd etilgan holda aksept formatida amalga oshiriladi.
2.3. Mijoz Bankka kelganida Oferta shartlariga qo'shilish Mijozning shaxsini tasdiqlovchi hujjatni taqdim qilish (skanirlangan nusxasi olinadi, asl hujjat qaytariladi), shuningdek Bank tomonidan tasdiqlangan 1-sonli Namuna bo'yicha arizani imzolash orqali Mijoz tomonidan mazkur Bank Ofertasi akseptini olish yoxud MBX orqali so'rovnomani taqdim qilish asosida amalga oshiriladi.
2.4. Agar Mijoz voyaga yetmagan bo'lsa, Bank tomonidan quyidagi hujjatlar ham talab qilib olinishi mumkin:
ota-ona yoki vasiy pasporti nusxasi (voyaga yetmagan shaxslar uchun);
Mijozga vasiylik tayinlash to'g'risida hujjat (agar qo'llanilsa);
Mijozni yuridik salohiyatli deb e'tirof qilish to'g'risida yoki yuridik salohiyati cheklanganligi to'g'risida hujjat (agar qo'llanilsa);
fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organi yoki xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati tomonidan

berilgan voyaga yetmagan shaxsning fotosurati bilan ma'lumotnoma. Ushbu ma'lumotnomadagi fotosurat ham fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organi yoki xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati muhri bilan (muhr bo'lgan holatda) tasdiqlanadi (14 yoshgacha bo'lgan shaxslar uchun).

MBX orqali jismoniy shaxslarning Bank kartalarini chiqarish va ularga xizmat ko'rsatish hamda Kartochka hisobvaraqlariga xizmat ko'rsatish uchun so'rovnomani rasmiylashtirishda Bank tomonidan tasdiqlangan 1-sonli Namuna bo'yicha ariza Mijoz tomonidan to'ldirilmaydi.

Bank mobil ilovasida "Ofertaga roziman" virtual (ekran) klavishining bosilishi karta chiqarilishi to'g'risida Ariza imzolanganligi va Bankka uzatilganligini, Mijoz tomonidan mazkur Oferta barcha shartlari so'zsiz qabul qilinganligini (akseptlanganligini) anglatadi.

Ushbu Shartnoma-oferta, to'lov tizimi turidan qat'i nazar, Bank va Mijoz o'rtasida 1-sonli Namuna bo'yicha berilgan ariza asosida tuziladi (bitta arizada bir yoki bir necha kartalarni ochish uchun).

Ushbu Ofertaga qo'shilish bilan Mijoz quyidagilarni tasdiqlaydi:

- ushbu Oferta shartlari va uning Ilovalari, Universal shartnoma va Bank Tariflari bilan tanish va rozi va ularga rioya qilish majburiyatini oladi;
- "Tenge Bank" ATB bilan shartnomalar tuzish va Universal shartnomada nazarda tutilgan boshqa maqsadlar uchun shaxsiy ma'lumotlarni, shu jumladan davlat ma'lumotlar bazalaridan olingan ma'lumotlarni uchinchi shaxslar tomonidan to'plash va qayta ishlashga rozilik;
- bank kartasi yo'qolgan va/yoki uyali telefon yo'qolgan taqdirda uning yangi mobil telefon raqami, shuningdek elektron pochta manzili va boshqa shaxsiy ma'lumotlar o'zgargan taqdirda, bunday o'zgarishlar yuz bergan kundan boshlab 1 ish kuni ichida Bankni xabardor qilish zaruriyatidan xabardorlik;
- Kredit limitini hisoblash va Bank yangiliklarini, bankning axborot, reklama materiallari va tijorat takliflarini, shuningdek Mijozning hisobvaraqlari bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha ma'lumotlarni olishga rozilik.

## III. Kartochka hisobvarag'ini ochish, Bank kartasini chiqarish va foydalanish tartibi

3.1. Kartochka hisobvarag'i 1-sonli Namuna bo'yicha ariza berilgan sanadan e'tiboran 2 (ikki) bank kuni mobaynida, bank kartasi esa 5 (besh) bank kuni mobaynida Bank tomonidan ochiladi.

Ish haqi loyihasi doirasida Bank kartasini rasmiylashtirishda Bank kartasi quyidagi shartlarda ochiladi:

Bank va Tashkilot o'rtasida Bank tomonidan ish haqini va unga tenglashtirilgan to'lovlarni, shuningdek pensiyalar, kompensasiyalar va boshqa ijtimoiy to'lovlarni (bundan buyon matnda – "ish haqi loyihasi") Tashkilot xodimlari uchun Bank tomonidan chiqarilgan milliy valyutadagi bank kartalariga o'tkazish tizimini joriy qilish to'g'risida Shartnoma tuzilgan sharoitda;

Tashkilot tomonidan taqdim qilingan reestrda Mijoz to'g'risida ma'lumotlar bo'lishi yoki Bank tomonidan tasdiqlangan Arizada Tashkilotdan Xodim ushbu Tashkilot xodimi/talaba/pensioner ekanligining tasdiqnomasi bo'lishi shart.

Tashkilot tomonidan taqdim etilgan reyestr asosida Bank kartasini rasmiylashtirishda, reyestrda Tashkilot xodimining imzosi mavjudligi ushbu Ofertaga qo'shilish va 2.7-bandni tasdiqlash vazifasini bajaradi.

Kartalar chiqarish uchun arizalarni qabul qilish Mijoz tomonidan bank bo'linmasiga kelgan holatda yoki Bankka kelmagan holda, masofaviy identifikasiyalashdan majburiy o'tish orqali masofaviy usulda amalga oshirilishi mumkin.

Karta ochish, Kartochka hisobvarag'i bo'yicha bevosita Bankda o'tkaziladigan operatsiyalar bevosita Mijoz tomonidan ham, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda nomiga vakolatnoma rasmiylashtirilgan shaxs tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin.

Mijoz Bankka o'z nomidan Kartochka hisobvarag'i bo'yicha naqd pulsiz operatsiyalarni amalga oshirish uchun hisob-kitob hujjatlarini tuzish huquqini taqdim qiladi. Bank tomonidan Mijoz nomidan hisob-kitob hujjatlari tuzilishi Bank tomonidan belgilangan namuna bo'yicha blanklarda rasmiylashtirilgan va Mijoz tomonidan shaxsan yoki vakolatnoma asosida faoliyat yurituvchi vakolatli shaxsi tomonidan imzolangan Mijoz arizasi asosida amalga oshiriladi,

mazkur Shartnomaning 4.1.4-bandida belgilangan holatlar, shuningdek Mijoz tomonidan Bank va chet to'lov tashkilotlari MBXni ko'rsatish tizimlaridan foydalanish orqali elektron to'lovlar amalga oshiriladigan holatlar bundan mustasno. Mijoz (vakolatli shaxs) imzosi ShTHdagi imzo namunasiga muvofiq bo'lishi kerak (ShTHda imzo bo'lgan holatda).
Kartochka hisobvarag'i ochilganidan va Bank kartasi chiqarilganidan so'ng Bank tegishli Bank kartasini quyidagi kanallar orqali Mijozga topshiradi:
bank bo'linmasida;
kartomatda;
kuryerlik xizmati orqali.
Karta olish kanalini tanlash Mijoz tomonidan ariza berishda amalga oshiriladi.
Bank bo'linmalarida yoki kuryerlik xizmati orqali kartalarni berish asl ShTH hujjat yordamida Mijozni autentifikasiyalash bilan birga amalga oshiriladi, karta berish fakti jurnalda rasmiylashtirilishi yoki Bank tomonidan tasdiqlangan namuna bo'yicha Bank kartasi olinganligi to'g'risida Ariza qayd etiladi.
Kuryerlik xizmati orqali yetkazib beriladigan barcha kartalar muhrlangan konvertda bo'lishi kerak. Bunda, kartani mustaqil ravishda faollashtirish uchun karta maqomi "Blokirovka qilingan" bo'ladi.
Kuryerlik xizmati uchun haq to'lash Bank tomonidan amaldagi Tariflarga asosan amalga oshiriladi.
Mijoz tomonidan bank kartasini kartomat orqali chiqarish buyurtma qilingan holatda, Mijoz Bank mobil ilovasi orqali amalga oshiriladigan QR-kod yordamida identifikasiyalanadi va 2-sonli Ilovaga asosan bank kartasini bevosita kartomatda oladi.
Bank kartasi qo'llanilgan holda operatsiyalar to'g'risida Elektron xabarnoma olish maqsadida SMS-xabarnoma quyidagilarga ulanadi:
xalqaro to'lov tizimlari kartalariga – avtomatik ravishda;
UzCard to'lov tizimi kartalariga – bankomatlarda;
Humo to'lov tizimi kartalariga – Bankning BXM/BSMda.
3.10. Kartochka hisobvarag'i Mijoz tomonidan quyidagilar uchun ishlatilishi mumkin:
qonun hujjatlariga muvofiq, Mijoz hisobvarag'iga bevosita Mijozning boshqa o'z hisobvaraqlaridan ham, boshqa jismoniy yoki yuridik shaxslarning hisobvaraqlaridan ham tushadigan pul mablag'larini o'tkazish;
amaldagi qonun hujjatlari doirasida naqd pulsiz operatsiyalarni o'tkazish;
alohida tuziladigan shartnomalar shartlarida tegishli omonat turlari mavjud bo'lgan holatda muddatli va/yoki jamg'arma depozitlarni ochish maqsadida pul mablag'larini o'tkazish;
muddatli va/yoki jamg'arma depozitning amal qilish muddati tugaganidan so'ng Kartochka hisobvarag'iga o'tkaziladigan pul mablag'lari hisobini yuritish;
Mijoz pul mablag'larini milliy valyutada olish istagini bildirgan holatda, xalqaro pul o'tkazmalari tizimlari orqali tushgan pul mablag'larini olish;
naqd pul mablag'larini to'lash va olish;
amaldagi qonun hujjatlari doirasida Kartochka hisobvarag'i bilan boshqa operatsiyalar/harakatlarni amalga oshirish.
Kartochka hisobvarag'idan naqd pulsiz mablag'lar o'tkazmasi bo'yicha operatsiyalar va Bank tomonidan Mijoz nomidan hisob-kitob hujjatlari tuzilishi Bank tomonidan tasdiqlangan, Mijoz tomonidan imzolangan ariza asosida va Kartochka hisobvarag'iga biriktirilgan Bank kartasini taqdim qilish orqali amalga oshiriladi. Mijoz faqat mazkur Shartnoma bekor qilingan yoki Bank tomonidan Bank terminalidan foydalanilmagan holda bir marta ishlatiladigan parolni yuborish orqali naqd pulsiz o'tkazmani amalga oshirish imkoniyati bo'lgan holatda Bank kartasini taqdim qilmasligi mumkin.
Bank kartasi Mijoz tomonidan quyidagi holatlarda qo'llanishi mumkin:
Terminallar/Internet tarmog'i orqali CVV-koddan foydalanilgan holda Savdo-servis korxonasida tovarlar, ishlar va/yoki xizmatlar uchun to'lovni amalga oshirishda;
bankomatlar yoki infokioskalar orqali to'lovni amalga oshirishda;
bankomatlar yoki infokioskalar orqali Bank (yoki boshqa banklar) kassalarida naqd pul olishda;
amaldagi qonun hujjatlari va mazkur Shartnoma doirasida boshqa harakatlarni amalga

oshirishda.
Bank kartasi muddati ushbu Bank kartasining old tomonida qayd etiladi.
Qo'shimcha karta chiqarilishi va unga xizmat ko'rsatilishi yuzasidan, agar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida boshqa qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, mazkur Shartnoma shartlari qo'llaniladi.
Bank axborot xavfsizligi va himoya qilinishini ta'minlash, shuningdek xizmat ko'rsatish sifatini tegishli darajada saqlash maqsadlarida Mijoz qo'shimcha xabardor qilinmagan holda telefon orqali suhbatlar yozib olinishi mumkin.
Komprometatsiya holatida Bank tegishli Bank kartasini blokirovka qilish huquqini o'zida qoldiradi. Bank kartasini blokirovkadan chiqarish uning oldin blokirovka qilinishiga olib kelgan sabablar hal etilgan va bartaraf qilingan holatda amalga oshirilishi mumkin.
Bank kartasini blokirovka qilish Mijozning tashabbusiga binoan quyidagi usullar yordamida amalga oshirilishi mumkin:
bevosita Aloqa-markaziga murojaat qilish;
Bankka kelish;
MBXni ko'rsatish tizimlari orqali.
Bank kartasini blokirovkadan chiqarish uchun Mijoz MBXni ko'rsatish kanallari orqali yoki Aloqa-markaziga qo'ng'iroq qilish va telefon so'zlashuvlari uchun Nazorat so'zini yoki Bankning rasmiy saytida e'lon qilingan Bank kartalari bo'yicha mahsulotlar pasportiga asosan Mijozni identifikasiyalash uchun kerakli boshqa ko'rsatkichlarni aytish orqali identifikasiyalashdan o'tkaziladi.
Bank kartasini blokirovka qilish tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in quroli tarqalishini moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq, shuningdek maxsus vakolatli organlar ko'rsatmalariga asosan amalga oshirilishi mumkin.
Bank kartasi quyidagi holatlarda Bank tomonidan olib qo'yilishi mumkin:
Bank kartasidan tegishli vakolatga ega bo'lmagan shaxs foydalanilgan holatda;
agar Bank kartasi yo'qotilmagan bo'lsa, Bank kartasini qayta chiqarish;
Kartochka hisobvarag'ini yopish.
3.20. Tashkilotdan tushadigan ish haqi Tranzit hisobvarag'iga tushgan paytdan e'tiboran 3 (uch) bank kuni mobaynida ish haqi loyihalari doirasida ochilgan Bank kartalari Kartochka hisobvarag'iga o'tkaziladi.
Bunda, agar Tashkilot tomonidan quyidagi kamchiliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa, Mijozning hisobvarag'iga pul mablag'lari o'tkazilmaydi:
Tranzit hisobvarag'iga pul mablag'lari tushgan paytdan e'tiboran navbatdagi bank kunidan kechikmay Tashkilot tomonidan Qaydnoma taqdim qilinmagan holatda;
Qaydnomada Mijozning F.I.Sh. va uning Kartochka hisobvarag'i raqamining Bank avtomatlashtirilgan tizimida Mijozning haqiqiy F.I.Sh. va Kartochka hisobvarag'i raqamiga to'g'ri kelmagan holatda;
Bank tomonidan belgilangan namuna bo'yicha Qaydnoma va/yoki Reestr Bankka taqdim qilinmagan holatda;
Qaydnomadagi imzolar va muhrlarning Kartochkadagi Tashkilotning imzolar namunalari tegishli ma'lumotlariga to'g'ri kelmagan holatda;
Tranzit hisobvarag'iga tushgan pul mablag'lari summalari va Qaydnomada belgilangan yakuniy summalar muvofiq bo'lmagan holatda;
Mijozning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar amal qilish muddati tugaganidan so'ng, shuningdek mazkur Shartnoma shartlariga asosan Bank talabi bo'yicha hujjatlar taqdim qilinmagan holatda;
O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa holatlarda.
Tashkilot uchun Tashkilot xodimlari Kartochka hisobvaraqlariga pul mablag'larini masofaviy o'tkazish imkoniyati bo'lgan holatda, u Bankka Qaydnomani taqdim qilish majburiyatidan ozod qilinadi.
Tashkilot tomonidan yuqorida qayd etilgan kamchiliklar ular to'g'risida xabardor qilingan paytdan e'tiboran 3 (uch) bank kuni mobaynida bartaraf qilinmagan holatda, Bank oldingi Tranzit hisobvarag'iga tushgan pul mablag'larini jo'natuvchi Tashkilot hisobvarag'iga

qaytaradi.
3.21. Agar amaldagi Bank Tariflarida boshqa qoida belgilanmagan bo'lsa, Kartochka hisobvarag'idagi pul mablag'lari qoldig'iga foizlar hisoblab yozilmaydi.

## IV. Taraflarning huquqlari va majburiyatlari

4.1. Bank quyidagilarga haqli:
4.1.1. zarur hollarda, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, Mijoz tomonidan Kartochka hisobvarag'i bo'yicha o'tkazilayotgan operatsiyalar qonuniyligini tekshirish va mazkur Shartnomada nazarda tutilgan xizmatlar ko'rsatilishi bilan bog'liq kerakli tasdiqlovchi hujjatlarni talab qilib olish;
4.1.2. quyidagi sharoitlarda Bank kartasini olib qo'yish:
mazkur Shartnoma bekor qilingan holatda;
Bank kartasidan tegishli vakolatga ega bo'lmagan shaxs foydalangan holatda;
agar Bank kartasi yo'qotilmagan bo'lsa, Bank kartasi qayta chiqarilgan holatda; 4.1.3. Bank Tariflarini o'zgartirish, bunda Bank Mijozni Bank Tariflariga kiritilgan o'zgartirishlar to'g'risida Bankda, Mijozlarga xizmat ko'rsatish joylarida, shuningdek Bankning rasmiy saytida tegishli axborotni joylashtirish orqali ular joriy qilingungacha 10 (o'n) bank kunidan oldin xabardor qiladi;
4.1.4. Mijozning roziligisiz Kartochka hisobvarag'idan va O'zbekiston Respublikasining boshqa banklarida ochilgan hisobvaraqlaridan quyidagi pul mablag'lari summalarini chegirib olish:
Bank kartasi bo'yicha amalga oshirilgan, shu jumladan Mijoz tomonidan MBX orqali elektron to'lovlar amalga oshirilganida tranzaksiyalar summasi;
Bank Tariflariga muvofiq Bank komissiya haqi summasi;
Kartochka hisobvarag'idagi faol pul mablag'lari qoldig'idan yuqori amalga oshirilgan tranzaksiyalar summasi;
tegishli asos bo'lgan holatda, Kartochka hisobvarag'iga yanglish o'tkazilgan pullar;
Mijoz va Bank o'rtasidagi boshqa amaldagi shartnoma munosabatlari natijasida yuzaga kelgan va ular yuzaga kelgan paytdan e'tiboran 5 (besh) bank kuni mobaynida so'ndirilmagan Mijozning har qanday qarzlarini so'ndirish uchun yetarli miqdordagi summalar.
4.1.5. O'zbekiston Respublikasining tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in quroli tarqalishini moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlariga asosan:
Mijozdan uning tegishli ravishda tekshiruvini amalga oshirish uchun kerakli hujjatlar va ma'lumotlar, shu jumladan Mijoz tomonidan o'tkaziladigan operatsiya bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar taqdim etilishini talab qilish;
Kartochka hisobvarag'ini ochishni va Bank kartasini chiqarishni yoki Mijozning Kartochka hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalar o'tkazishini rad qilish yoki Mijozni tegishli ravishda tekshirish imkoniyati bo'lmagan holatda bir tomonlama tartibda Shartnomaning amal qilishini to'xtatish;
Operatsiyalar Mijozning KYC so'rovnoma sida qayd etilgan ma'lumotlarga muvofiq bo'lmagan holatda, xizmatlar ko'rsatilishini rad qilish va bir tomonlama tartibda mazkur Shartnomani bekor qilish;
O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan holatlarda Kartochka hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalar o'tkazilishini to'xtatib qo'yish va operatsiyada ishlatiladigan pul mablag'larini ishga solmay qo'yish;
Mijoz operatsiyalarini o'rganish maqsadida qo'shimcha axborotni talab qilib olish, operatsiya summasiga limitlarni belgilash, operatsiyalar o'tkazishini rad qilish yoxud Mijoz yoki uning operatsiyasi sanksiyalar ro'yxatida bo'lgan va bunday xavf mavjud bo'lgan holatda bir tomonlama tartibda Shartnomaning amal qilishini to'xtatish;
4.1.6. Mijoz shaxsini tasdiqlovchi hujjatning amal qilish muddati tugagan holatda, shuningdek mazkur Shartnoma shartlariga asosan Bank talabi bo'yicha hujjatlar taqdim qilinmagan holatda, Mijozning arizasiga asosan pul mablag'lari o'tkazmasini va chegirib olinishini to'xtatib qo'yish; 4.1.7. qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlarda, ish beruvchi va xodim hisob-kitoblari doirasida olinadigan pul mablag'larini jo'natuvchi hisobvarag'iga qaytarish;

4.1.8. Mijozga Kartochka hisobvarag'i holati bo'yicha masofaviy xabardor qilish qo'shimcha xizmatlarini yoki belgilangan tartibda MBX tizimi xizmatlarini taqdim qilish;
4.1.9. 1-sonli Namuna bo'yicha Bank kartasini qayta chiqarish uchun arizani qabul qilishda Mijozdan Bank kartasi qaytarilishini talab qilish (karta yo'qotilganligi tufayli qayta chiqarish bundan mustasno);
4.1.10. Mijozdan mazkur Shartnomada nazarda tutilgan xizmatlar ko'rsatilishi bilan bog'liq ma'lumotlarni talab qilib olish;
4.1.11. MBX tizimidan foydalanilgan holatda operatsiyalarni amalga oshirish uchun limitlarni belgilash va ularga bir tomonlama tartibda o'zgartirishlar kiritish;
4.1.12. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida va mazkur Shartnomada belgilangan holatlarda Bank kartasini blokirovka qilish;
4.1.13. №1-shakldagi bank kartasini chiqarish to'g'risidagi arizaga asosan, Bank kartasi ochilgan kundan boshlab 90 (to'qson) kalendar kun mobaynida Mijoz tomonidan talab qilinmagan Bank kartasini Bank tomonidan yo'q qilish, shuningdek ushbu kartaga tegishli barcha hisobvaraqlarni yopish. Bu holda Bank kartasini chiqarish va qayta chiqarish uchun komissiyalar Mijozga qaytarilmaydi.
4.1.14. ushbu Oferta, Universal shartnoma va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida va mazkur Shartnomada nazarda tutilgan boshqa huquqlarni amalga oshirish;
4.1.15. Operatsiyalar Mijozning KYC so'rovnoma sida qayd etilgan ma'lumotlarga muvofiq bo'lmagan holatda, operatsiyalarni to'xtatish, xizmatlar taqdim qilinishini va mazkur shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish;
4.1.16. Mijoz operatsiyalarini o'rganish maqsadida qo'shimcha axborotni talab qilib olish, operatsiya summasiga limitlarni belgilash, operatsiyalar o'tkazishini rad qilish yoxud Mijoz yoki uning operatsiyasi sanksiyalar ro'yxatida bo'lgan yoki bunday xavf mavjud bo'lgan holatda bir tomonlama tartibda Shartnomaning amal qilishini to'xtatish;
4.11.17. Bir tomonlama, Bank kartasi balansida nol qoldiq bo'lsa, shuningdek, 12 oy davomida karta hisobvarag'ida harakat bo'lmasa, mijozni oldindan xabardor qilgan holda bank kartasini va barcha tegishli hisoblarni yopish.

4.2. Bank quyidagi majburiyatlarni oladi:
4.2.1. Kartochka hisobvarag'ini 1-sonli Namuna bo'yicha ariza berilgan sanadan e'tiboran 2 (ikki) bank kuni mobaynida va Bank kartasini 5 (besh) bank kunidan kechikmay berish;
4.2.2. Kartochka hisobvarag'iga pul mablag'larini, 3.18-banddan tashqari, navbatdagi ish kunidan kechikmay o'tkazish;
4.2.3. amaldagi qonun hujjatlari doirasida va mazkur Shartnoma shartlarida Mijozning topshirig'iga binoan hisob-kitoblarni o'tkazish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish;
4.2.4. Bank kartasi bo'yicha amalga oshirilgan va PIN-kod to'plami yoki bir marta ishlatiladigan o'zgaruvchan kodlardan foydalanish yordamida tasdiqlangan barcha Tranzaksiyalar summasini Kartochka hisobvarag'idan chegirib olishni amalga oshirish (operatsiyalar haqiqiyligini tasdiqlash shartlari masofaviy xizmatlardan foydalanib xizmatlar ko'rsatish alohida qoidalarida nazarda tutilgan).
4.2.5. Mijozning yozma shakldagi arizasiga yoki MBX orqali so'rovnomaga asosan Kartochka hisobvarag'i bo'yicha ko'chirma berish, shuningdek Mijoz Aloqa-markaziga murojaat qilganida, telefon so'zlashuvlari uchun to'g'ri Nazorat so'zi ma'lum qilingan holatda, Kartochka hisobvarag'i bo'yicha amalga oshirilgan Tranzaksiyalarga doir axborot taqdim qilish;
4.2.6. Kartochka hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalar siriga rioya qilish va faqat O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlarda uchinchi shaxslarga bank sirini o'z ichiga olgan ma'lumotlarni taqdim qilish;
4.2.7. Mijozning yozma shakldagi talabiga yoki Aloqa-markaziga murojaat qilganida, telefon so'zlashuvlari uchun to'g'ri Nazorat so'zi ma'lum qilingan holatda, Bank kartasini blokirovka qilish;
4.2.8. Mijoz Bankka kelgan holatda Mijozning yozma shakldagi talabiga yoki MBX orqali, shuningdek Mijoz Aloqa-markaziga murojaat qilganida, telefon so'zlashuvlari uchun to'g'ri Nazorat so'zi ma'lum qilingan holatda, Bank kartasini blokirovkadan chiqarish;

4.2.9. Bankning axborot stendlarida, shuningdek rasmiy saytida Bank Tariflariga barcha o’zgartirishlar to’g’risida e’lonlar joylashtirish orqali Mijozni bunday o’zgartirishlar kuchga kiritilgungacha 10 (o’n) bank kunidan kechikmay xabardor qilish;
4.2.10. mazkur Shartnoma bekor qilinganida Bank kartasini qabul qilish, Kartochka hisobvarag’ini yopish va Kartochka hisobvarag’idagi pul mablag’lari qoldig’ini Mijozning topshirig’iga binoan Mijoz tomonidan qayd etilgan talab qilib olguncha saqlanadigan depozit hisobvarag’iga o’tkazish;
4.2.11. 1-sonli Namuna bo’yicha Mijozning yozma shakldagi arizasi asosida, Bank Tariflariga asosan komissiya haqi to’langanidan so’ng 3 (uch) bank kuni mobaynida buzilganligi/yo’qotilganligi tufayli yangi Bank kartasini qayta chiqarish;
4.2.12. O’zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida va mazkur Shartnomada nazarda tutilgan boshqa majburiyatlar.

4.3. Mijoz quyidagilarga haqli:

4.3.1. O’zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari va mazkur Shartnoma doirasida belgilangan limit doirasida Kartochka hisobvarag’idagi o’z pul mablag’laridan erkin foydalanish;
4.3.2. amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda uchinchi shaxsga chiqarilgan bank kartasini olish, Kartochka hisobvarag’idagi va Bank kartasidagi pul mablag’laridan foydalanish hamda vakolatnomani rasmiylashtirish orqali karta bo’yicha ko’chirma olish huquqini berish.
Bunda, Mijoz Kartochka hisobvarag’i va Bank kartasidan foydalanish huquqlarining uchinchi shaxslarga berilishi bilan bog’liq ehtimoliy salbiy oqibatlar uchun javobgar bo’ladi;
4.3.3. Bankdan konsultasiyalar, shuningdek Mijozga tegishli Kartochka hisobvaraqlari bo’yicha xizmatlardan foydalanish bilan bog’liq axborot, shu jumladan Kartochka hisobvaraqlari bo’yicha ko’chirmalar va o’tkazilgan operatsiyalar to’g’risida axborot olish;
4.3.4. Mijozning arizasi asosida Bank kartasidan foydalanishni rad qilish, so’ngra Kartochka hisobvarag’ini yopish, Kartochka hisobvarag’idan pul mablag’lari qoldig’ini Mijoz tomonidan qayd etilgan talab qilib olguncha saqlanadigan depozit hisobvarag’iga o’tkazish; 4.3.5. Bankdan Shartnoma bo’yicha majburiyatlar tegishlicha bajarilishini talab qilish;
4.3.6. Bank kartasi yordamida bankomatlar/kassalarda naqd pul mablag’larini olish, terminallar / infokioskalar/bankomatlar orqali tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun to’lovni amalga oshirish;
4.3.7. Bankda yozma shakldagi arizasiga asosan o’z Kartochka hisobvarag’idan ko’chirma olish yoki Aloqa-markaziga murojaat qilganida, telefon so’zlashuvlari uchun to’g’ri Nazorat so’zi ma’lum qilingan holatda, Kartochka hisobvarag’i bo’yicha amalga oshirilgan Tranzaksiyalarga doir axborot olish;
4.3.8. Bank ofislarida ham, Bankning rasmiy saytida ham Bank Tariflari, ularga o’zgartirishlar, shuningdek Bank kartasidan foydalanib yangi bank xizmatlari to’g’risida axborot olish;
4.3.9. Bank kartasini qayta chiqarish yoki Bank Tariflariga asosan uning qiymati to’langan holda qo’shimcha karta ochish;
4.3.10. o’z Kartochka hisobvarag’idagi pul mablag’lari noto’g’ri chegirib olinganligi to’g’risida o’z Kartochka hisobvarag’i holati to’g’risida axborot olingan kundan e’tiboran 2 (ikki) bank kuni mobaynida shikoyat arizasini berish. Kartochka hisobvarag’idagi pul mablag’lari Mijoz xabardor qilinmagan holda va Bank xatosi bo’yicha chegirib olinishi noto’g’ri chegirib olinish hisoblanadi, mazkur Shartnomaning 4.1.4-bandida qayd etilgan tranzaksiyalar bundan mustasno;
4.3.11. Bank kartasi yo’qotilgan yoki buzilgan holatda 1-sonli Namuna bo’yicha qayta chiqarish uchun ariza bilan Bankka murojaat qilish;
4.3.12. MBX tizimi yordamida Bankka yozma shaklda murojaat qilish yoki Aloqa-markaziga qo’ng’iroq qilish orqali bank kartasini blokirovka qilish va/yoki blokirovkadan chiqarish. Agar bank kartasini blokirovka qilish vakolatli organlar talabi bo’yicha amalga oshirilgan va/yoki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa holatlarda bank kartasini blokirovkadan chiqarish mumkin emas.

4.4. Mijoz quyidagi majburiyatlarni oladi:

4.4.1. Bank kartasi olinganida:
shaxsini tasdiqlovchi asl hujjatni Bank ofisida yoki kuryerlik xizmati orqali taqdim qilish;
kartomat orqali Bank mobil ilovasida ishlatiladigan QR-kodni taqdim qilish;

terminal, bankomat yoki Bank mobil ilovasi orqali mustaqil ravishda PIN-kodni belgilash;
4.4.2. Bank kartasidan, tasdiqlangan PIN-kod to'plamidan foydalanib yoki bir marta ishlatiladigan kodlardan foydalanib amalga oshirilgan Tranzaksiyalar bo'yicha hisob-kitob qilish (operatsiyalar haqiqiyligini tasdiqlash shartlari Bank to'lov tizimlari va chet to'lov tashkilotlari to'lov tizimlaridan foydalanib MBXni amalga oshirish alohida qoidalarida nazarda tutilgan);
4.4.3. Bank talabi bo'yicha Mijozning tegishli ravishda tekshiruvini amalga oshirish uchun kerakli hujjatlar va ma'lumotlarni, shu jumladan Bank tomonidan belgilangan muddatlarda o'tkaziladigan operatsiya bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlarni taqdim qilish;
4.4.4. Bank Tariflariga muvofiq Bank komissiya haqini o'z vaqtida to'lash;
4.4.5. Bank kartasining tegishlicha saqlanishini ta'minlash va Bank kartasining PIN-kodini, bir marta ishlatiladigan SMS parollarni uchinchi shaxslarga oshkor qilmaslik va kartomatda karta olish uchun mobil ilovada uchinchi shaxslarning QR-koddan foydalanishini cheklash, shuningdek telefon so'zlashuvlari va To'lov tizimlari kirish uchun Nazorat so'zlarini oshkor qilmaslik;
4.4.6. pasport va boshqa ma'lumotlar (familiyasi, ismi, otasining ismi, turar joy manzili, aloqa bog'lash uchun telefon raqamlari va h.k.) o'zgargan holatda, ushbu o'zgarishlar to'g'risida Bankni o'zgarishlar yuz bergan paytdan e'tiboran 10 (o'n) bank kuni mobaynida tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim qilgan holda yozma shaklda xabardor qilish;
4.4.7. Bank kartasi yo'qotilgan/o'g'irlangan holatda, darhol Bank kartasini MBX orqali blokirovka qilish yoki telefon so'zlashuvlari uchun to'g'ri Nazorat so'zi ma'lum qilingan holatda Aloqa-markaziga murojaat qilish yoki Bankni bu haqda yozma shaklda xabardor qilish;
4.4.8. Bank kartasi yo'qotilganligi/buzilganligi tufayli qayta chiqarilganida Bank Tariflariga muvofiq Bankka komissiya haqini to'lash;
4.4.9. Bank kartasidan faqat faol qoldiq doirasida yoki Kartochka hisobvarag'ida belgilangan limit doirasida foydalanish va uning bo'yicha qarzdorlik yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslik. Kartochka hisobvarag'ida salbiy qoldiq yuzaga kelgan holatda, butun qarzdorlik summasini ushbu qarzdorlik yuzaga kelgan paytdan e'tiboran 10 (o'n) kalendar kunidan kechikmay so'ndirish, alohida shartnoma bilan tartibga solinadigan Bank tomonidan overdraft xizmatlari taqdim qilinadigan holatlar bundan mustasno;
4.4.10. Kartochka hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirishda o'z Kartochka hisobvarag'ida operatsiyalarni amalga oshirish va Bank tomonidan xizmatlar to'lovini undirish uchun yetarli hajmda pul mablag'lari bo'lishini ta'minlash;
4.4.11. Kartochka hisobvarag'i bo'yicha tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshirmaslik;
4.4.12. o'z Kartochka hisobvarag'iga begona pul mablag'lari tushumi to'g'risida Bankka o'z Kartochka hisobvarag'i holati to'g'risida axborot olingan kundan e'tiboran 2 (ikki) ish kuni mobaynida ma'lum qilish va Bankka Kartochka hisobvarag'iga yanglish o'tkazilgan pul mablag'larini o'z Kartochka hisobvarag'i holati to'g'risida axborot olingan paytdan e'tiboran 3 (uch) bank kuni mobaynida qaytarish;
4.4.13. o'z Kartochka hisobvarag'idan noto'g'ri chegirib olinganligi to'g'risida Bankka Kartochka hisobvarag'iga noto'g'ri chegirib olingan pul mablag'larini qaytarish uchun o'z Kartochka hisobvarag'i holati to'g'risida axborot olingan kundan e'tiboran 2 (ikki) ish kuni mobaynida ma'lum qilish;
4.4.14. taqdim qilingan axborot va hujjatlarning to'g'riligi uchun to'liq javobgar bo'lish;
4.4.15. Bank talabi bo'yicha 3 (uch) bank kuni mobaynida mazkur Shartnomada nazarda tutilgan xizmatlar ko'rsatilishi bilan bog'liq hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim qilish;
4.4.16. Bank va chet to'lov tashkilotlari to'lov tizimlarining Internet tarmog'ida o'z rasmiy sahifalarida ulanish, kirish va xizmat ko'rsatish bo'yicha shartlari bilan mustaqil ravishda tanishib chiqish;
4.4.17. o'z shaxsiy ma'lumotlari komprometatsiya bo'lgan yoki komprometatsiya ga shubha qilingan holatda darhol Bankni xabardor qilish, umumiy foydalanish telekommunikasiya tarmog'i orqali, shu jumladan Internet orqali uzatilgan ma'lumotlar komprometatsiya bo'lish ehtimoli bilan bog'liq xavflarni o'ziga qabul qilish;

4.4.18. 1-sonli Ilovaga asosan to'lov tizimi operatorlari va bank tomonidan belgilangan bank kartasini saqlash va undan foydalanish shartlariga rioya qilish.

## V. Bank xizmatlari uchun komissiya haqi

5.1. Mazkur Shartnomaga muvofiq taqdim qilinadigan xizmatlar qiymati Bankning amaldagi Tariflarida belgilanadi.
5.2. Bank xizmatlari uchun haq Mijozning Kartochka hisobvarag'idagi pul mablag'laridan alohida operatsiyalar o'tkazilishiga qarab, Bank tomonidan kerakli summa akseptsiz tartibda chegirib qolinishi orqali olinadi. Mijoz operatsiyalar amalga oshirilishi bo'yicha Bank xizmatlari uchun naqd pul shaklida ham, naqd pulsiz shaklda ham Bankda boshqa hisobvaraqlardagi pul mablag'lari hisobidan to'lashi mumkin.
5.3. Bank bir tomonlama tartibda Bank Tariflariga o'zgartirishlar kiritishga haqli. Bank Tariflariga o'zgartirishlar kiritilganligi to'g'risida Bank ushbu o'zgartirishlar joriy qilingungacha 10 (o'n) bank kunidan oldin Mijozni Bankda Mijozlarga xizmat ko'rsatish joylarida, shuningdek Bank rasmiy korporativ saytida tegishli axborotni joylashtirish orqali xabardor qiladi.
Bank Tariflariga komissiya haqi miqdorini kamaytirish (Mijoz uchun qulay sharoitlar yaratish) tomonga o'zgartirishlar kiritilgan holatda, Bank ushbu o'zgartirishlarni Bank Tariflariga o'zgartirishlar kuchga kiritilgan kundan keyingi kundan kechikmay bir tomonlama tartibda joriy qilishga haqli.

## VI. Taraflar javobgarligi

6.1. Mijoz quyidagilar uchun javobgar bo'ladi:
6.1.1. Kartochka hisobvarag'i bo'yicha amalga oshirilayotgan operatsiyalarning qonuniyligi va Bankka taqdim qilinadigan axborot va hujjatlarning to'g'riligi;
6.1.2. Bankka Mijozning noqonuniy harakatlari tufayli yetkazilgan/yuzaga kelgan zararlar o'rni to'ldirilishi, shu jumladan Kartochka hisobvarag'iga yanglish o'tkazilgan pullarning Bankka qaytarilmaganligi;
6.1.3. Bank tomonidan Mijozning yozma shakldagi arizasi, MBX orqali bank kartasini blokirovka qilish uchun so'rovnomasi olingungacha yoki Bank kartasi yo'qotilganligi/o'g'irlanganligi yoki o'z Kartochka hisobvarag'i bo'yicha shubhali faollik to'g'risida Aloqa-markaziga murojaatigacha har qanday Tranzaksiyalar amalga oshirilganligi;
6.1.4. mazkur Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlari va boshqa shartlar buzilganligi;
6.1.5. Bank va chet to'lov tashkilotlarining to'lov vositalaridan foydalanish amalga oshirilgan barcha operatsiyalar uchun javobgar bo'ladi.
6.1.6. 6.4. Mijoz Kartochka hisobvarag'i bo'yicha amalga oshirilayotgan operatsiyalarning qonuniyligi va Bankka taqdim qilinadigan axborot va hujjatlarning to'g'riligi uchun javobgar bo'ladi hamda noqonuniy harakatlar tufayli Bankka yetkazilgan zararlar o'rnini to'ldirishi shart.
6.2. Bank quyidagilar uchun javobgar bo'ladi:
6.2.1. Mijozning Kartochka hisobvarag'idan noto'g'ri chegirib olinishi, noto'g'ri chegirib olingan summa (haqiqiy zarar) miqdorida;
6.2.2. Kartochka hisobvarag'ini o'z vaqtida ochmaganlik, shuningdek Bank kartasini o'z vaqtida chiqarmaganlik, ular bo'lmagan holatlar bundan mustasno; 6.2.3. bank sirining noqonuniy oshkor qilinishi.
6.3. Bank quyidagi holatlarda javobgarlikdan ozod qilinadi:
6.3.1. Prosessing markazlari ishidagi texnik to'xtalishlar yoki Prosessing markazlari faoliyati bilan bog'liq boshqa vaziyatlar sababli Mijozning Online-hisobvarag'ida pul mablag'larining o'z vaqtida aks ettirilmaganligi yoki ulardan vaqtincha foydalanish imkoniyati yo'qligi;
6.3.2. uchinchi tarafning Bank kartasiga xizmat ko'rsatishni rad qilishi;
6.3.3. Bank kartasi bo'yicha xarid qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) sifati;
6.3.4. «UZSARD», «HUMO», «MASTERCARD», «UNIONPAY INTERNATIONAL», «VISA» to'lov tizimlari boshqa bank ishtirokchilarining harakatlari/harakatsizligi natijasida Mijozga «UZSARD», «HUMO», «MASTERCARD», «UNIONPAY INTERNATIONAL», «VISA» to'lov tizimlari boshqa bank ishtirokchilari xizmat ko'rsatish tarmoqlarida Bank

kartasi bilan operatsiyalarni amalga oshirishda ma’naviy va/yoki moddiy zarar yetkazilganligi;
6.3.5. xizmatlar turlari, ehtimoliy operatsiyalar ro’yxati, Bank kartalariga xizmat ko’rsatish muddatlari va texnologik shartlari vaqtincha qisqarishi/yomonlashishi/o’zgarishi, agar bu Bank, «UZSARD», «HUMO», «MASTERCARD», «UNIONPAY INTERNATIONAL», «VISA» to’lov tizimlari boshqa bank ishtirokchilari uskunalari va naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimi versiyalari o’zgarishi tufayli yuzaga kelgan bo’lsa;
6.3.6. uchinchi taraf tomonidan belgilangan, Mijoz manfaatlariga ta’sir etishi mumkin bo’lgan Bank kartasi bilan operatsiyalar bo’yicha limitlar, cheklovlar va qo’shimcha haqlar;
6.3.7. yo’qotilgan/o’g’irlangan Bank kartasini blokirovka qilish to’g’risida Bankni o’z vaqtida yozma shaklda xabardor qilmaslik oqibatlari, shu jumladan Mijozdan Bank kartasi yo’qotilganligi va/yoki o’g’irlanganligi to’g’risida yozma shaklda xabar olingan paytgacha yoki Mijoz Aloqa-markaziga murojaat qilganidan so’ng Bank kartasi blokirovka qilingan paytgacha uchinchi shaxslar tomonidan Bank kartasi bo’yicha amalga oshirilgan tranzaksiyalar uchun; 6.3.8. Mijoz tomonidan Bank kartasining PIN-kodi va/yoki CVV-kodi, SMS parollar, telefon so’zlashuvlari uchun Nazorat so’zi va To’lov tizimlariga kirish paroli (parollari) uchinchi shaxslarga oshkor qilinishi natijasida uchinchi shaxslar tomonidan Bank kartasi bo’yicha amalga oshirilgan Tranzaksiyalar uchun;
6.3.9. PIN-kodning ketma-ket uch marta noto’g’ri terilganligi oqibatida Bank kartasi blokirovka qilinishi;
6.3.10. O’zbekiston Respublikasining tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg’in quroli tarqalishini moliyalashtirishga qarshi kurashish to’g’risidagi qonun hujjatlariga asosan operatsiyalarning to’xtatib qo’yilishi va operatsiyalarda ishlatiladigan mablag’larning ishga solmay qo’yilishi yoki Mijoz tomonidan moliyaviy sanksiyalar taqiqlovlarga rioya qilinmaganligi natijasida operatsiyalarning to’xtatib qo’yilishi va operatsiyalarda ishlatiladigan mablag’larning ishga solmay qo’yilishi;
6.3.11. Bank operatsiyalarini amalga oshirish va Mijozni tegishlicha tekshirish uchun Bank tomonidan talab qilinadigan hujjatlar va ma’lumotlarning Mijoz tomonidan taqdim qilinmaganligi yoki o’z vaqtida taqdim qilinmaganligi yoxud taqdim qilingan hujjatlarda yo’l qo’yilgan noaniqlik va xatolar uchun;
6.3.12. Bankka bog’liq bo’lmagan sabablar tufayli va fors-major vaziyatlar yuzaga kelgan holatda Bank tomonidan o’z majburiyatlarini bajarish imkoniyati yo’qligi;
6.3.13. tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg’in quroli tarqalishini moliyalashtirishga qarshi kurashish to’g’risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlarda Kartochka hisobvarag’ini ochish va Bank kartasini chiqarish, shuningdek Bank hisobvarag’i bo’yicha operatsiyalarni amalga oshirish rad qilinishi;
6.3.14. Mijozning chet to’lov tashkilotlari vositalaridan foydalanishda noo’rin yoki noto’g’ri harakatlari;
6.3.15. Reestr/Qaydnomadagi qog’oz tashuvchi vositadagi ma’lumotlarning Bank avtomatlashtirilgan tizimidagi ma’lumotlarga muvofiq emasligi, agar Bank avtomatlashtirilgan tizimidagi ma’lumotlar Mijoz pasporti va boshqa ma’lumotlari bilan bir xil bo’lmasa;
6.3.16. O’zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq Tashkilotning Tranzit hisobvarag’i bo’yicha operatsiyalar o’tkazilishini to’xtatib qo’yish;
6.3.17. Tashkilot va Xodim (shu jumladan, mehnat munosabatlarini to’xtatgan xodim) o’rtasida yuzaga kelgan nizolar va kelishmovchiliklar bo’yicha javobgar bo’lmaydi.
6.5. Bank Mijozning noqonuniy harakatlari uchun javobgar bo’lmaydi.
6.6. Mijoz va uchinchi shaxslar o’rtasida o’zaro hisob-kitoblar bo’yicha o’zaro e’tirozlar Bank ishtirokisiz ko’rib chiqiladi.
6.7. Taraflar mazkur Shartnomada nazarda tutilgan huquqlar va majburiyatlardan tashqari O’zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan huquqlar va majburiyatlarga ega bo’ladilar.
6.8. Taraflar majburiyatlar bajarilmaganligi fors-major vaziyatlari oqibatida yuz bergan holatda, bunday majburiyatlar bajarilmaganligi uchun javobgar bo’lmaydilar.

VII. Shartnomaning amal qilish muddati.
Shartnomaning amal qilishini to'xtatish tirtibi

7.1. Mazkur Shartnoma Mijoz mazkur Shartnomaning 2.2-bandiga muvofiq Ofertaga qo'shilgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi va nomuayyan muddatga tuzilgan hisoblanadi.

7.2. Mazkur Shartnoma Mijozning arizasiga binoan istalgan vaqtda Mijozga ko'rsatilgan bank xizmatlari bilan bog'liq barcha to'lovlar amalga oshirilganidan so'ng, shuningdek Bank tomonidan bank kartasi bo'yicha barcha tranzaksiyalar olinganidan so'ng bekor qilinishi mumkin.

7.3. Mazkur Shartnoma tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in quroli tarqalishini moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga asosan Bank tomonidan bir tomonlama tartibda bekor qilinishi mumkin.

7.4. Bank talabiga ko'ra, Mazkur Shartnoma O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlarda sud tomonidan bekor qilinishi mumkin.

7.5. Shartnomaning bekor qilinishi Kartochka hisobvarag'ini yopish uchun asos hisoblanadi.

VIII. Korrupsiyaga qarshi shartlar

8.1 Taraflar, ularning affillangan shaxslari, xodimlar yoki vositachilar mazkur Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda:

biron-bir noqonuniy ustunlikka yoki boshqa noqonuniy maqsadlarga erishish va/yoki foyda olish uchun har qanday shaxslarga ushbu shaxslarning harakatlariga yoki qarorlariga ta'sir etish maqsadida hech qanday pul mablag'lari yoki qimmatbaho boyliklarni to'lamaydilar, to'lashni taklif qilmaydilar va to'lovga ruxsat bermaydilar;

qonun hujjatlarida pora berish/olish, tijorat maqsadlarida pul berib o'z tomoniga og'dirib olish sifatida tasniflanadigan, shuningdek jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qo'llaniladigan qonun hujjatlari va xalqaro hujjatlar talablarini buzadigan harakatlarni amalga oshirmaydilar.

Mazkur Shartnoma Taraflaridan har biri biron-bir tarzda boshqa Tarafni (Bank xodimlarini), shu jumladan pul summalarini, sovg'alarni berish, ular nomiga bepul ishlar (xizmatlar) bajarish hamda Bank xodimini muayyan qaramlikka olib keladigan va ushbu Bank xodimi tomonidan rag'batlantiruvchi Taraf foydasiga biron-bir harakatlar bajarilishini ta'minlashga qaratilgan boshqa usullar orqali rag'batlantirishni rad qiladilar.

Tarafda korrupsiya yoki firibgarlik holatlari yuz berganligi yoki yuz berishi mumkinligiga shubhalar paydo bo'lgan holatda, tegishli Taraf bu haqda boshqa Tarafni yozma shaklda xabardor qilish majburiyatini oladi.

Xabardor qilingan Taraf mazkur Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlari bajarilishini korrupsiya faoliyatini amalga oshirish fakti tasdiqlangungacha to'xtatib qo'yishga haqli.

Taraflar pora berish/olish yoki pora berish/olish to'g'risida shak-shubhasiz yolg'on ma'lumotlar berilishi natijasida yetkazilgan zarar o'rnini to'ldirish majburiyatini oladilar.

Tegishli Taraf Bankni manfaatlar to'qnashuvi oldini olish maqsadida Bank bilan aloqadorligi va affillanganligi to'g'risida xabardor qilish majburiyatini oladi.

IX. Boshqa shartlar

9.1 Bank mazkur Oferta va Bank Tariflari yangi tahririni o'z saytida joylashtirish orqali mazkur Oferta shartlariga bir tomonlama tartibda o'zgartirishlar kiritishga haqli. Kiritilgan o'zgartirishlar Bank korporativ veb-saytida joylashtirilgan paytdan e'tiboran Bank va Mijoz uchun majburiy bo'ladi.

9.2 Mazkur Ofertada nazarda tutilgan harakatlarni bajarish maqsadida, shuningdek O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 02 iyuldagi "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi O'zRQ-547-sonli Qonuni qoidalariga muvofiq, Mijoz Bankka Mijozning shaxsiy ma'lumotlariga tegishli har qanday axborotni saqlash va ishlash, shu jumladan avtomatlashtirilgan tartibda saqlash va ishlash, shu jumladan Mijozning shaxsiy ma'lumotlarini to'plash, tizimlashtirish, saqlash, o'zgartirish, to'ldirish, foydalanish, taqdim qilish, tarqatish, uzatish, egasiz qilish va yo'q qilish huquqini beradi, shuningdek mazkur Ofertada, shuningdek, Universal shartnomada nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirish maqsadida Shaxsiy

ma'lumotlar uchinchi shaxslarga berilishiga o'z roziligini bildiradi.
9.3 Mazkur Shartnoma shartlari va shartlar bajarilishi bo'yicha kelishmovchiliklar paydo bo'lgan holatda, nizo Taraflarning o'zaro kelishuvi bo'yicha hal qilinadi. Taraflar kelishuvga erishmagan nizolar va kelishmovchiliklar Bank yoki uning filiali joylashgan manzil bo'yicha vakolatli sudda hal qilinadi.
9.4 Bank quyidagi holatlarda Mijozga xabarnoma yuborishi mumkin:
- agar Bank tomonidan Mijozning bank kartalari bo'yicha operatsiyalar to'xtatib qo'yilishi amalga oshirilsa (PIN-kod noto'g'ri terilishi natijasida karta blokirovka qilingan holatlar bundan mustasno), Bank operatsiya to'xtatib qo'yilgan kundan keyingi ish kunidan kechikmay Mijozga uning hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalar to'xtatib qo'yilishi sababi to'g'risida xabarnoma yuboradi;
9.4.1 Xabarnoma Mijozga SMS/telefon qo'ng'irog'i yoxud pochta yoki elektron aloqa orqali yoxud boshqa kommunikasiya kanallari orqali taqdim qilinadi. Xabarnoma yuborish usuli Bank tomonidan mustaqil ravishda tanlanadi.

“Tenge Bank” ATBda jismoniy shaxslar uchun
emissiya qilingan milliy va xorijiy valyutadagi
bank kartalariga xizmat ko’rsatish to’g’risida
Ommaviy shartnoma-Ofertaga 1-sonli Ilova

## BANK KARTALARINI SAQLASH VA ULARDAN FOYDALANISH SHARTLARI

Karta PIN-kodini belgilash/qayta belgilash va saqlash PIN-kod maksimal – 4 ta raqam uzunligiga ega bo’lishi mumkin.

Kartani shaxsan qo’lingizga olgandan so’ng, unda maxfiy ravishda o’z PIN-kodini belgilang, bunda quyidagi qoidalarga rioya qiling:

− PIN-kodini belgilashda takrorlanadigan raqamlardan, muhim sanalar va o’z haqingizda ko’pchilikka ma’lum ma’lumotlardan (masalan: tug’ilgan sana, avtomashina, telefon raqamlari va h.k.) foydalanish kerak emas;

− o’z PIN-kodingizni yozib qo’ymang, balki uni xotirada saqlab qoling;

− o’z Kartangiz PIN-kodini boshqa shaxslarga ma’lum qilmang. O’z Kartangiz PIN-kodini oshkor qilishni hech kim, shu jumladan Bank va Savdo (xizmat) korxonasi xodimlari talab qilishga haqli emas. O’z Kartangiz PIN-kodi boshqa shaxslarga ma’lum bo’lgan holatda, o’z Kartangiz bo’yicha amalga oshirilgan Tranzaksiyalar uchun barcha javobgarlik Sizga yuklatiladi, chunki Siz uchun Karta chiqargan Bank bilan shartnomaga asosan faqat Siz Kartaning qonuniy egasi hisoblanasiz;

− agar Siz o’z Kartangiz PIN-kodi Siz istagandan boshqa ekanligini, boshqa shaxslarga oshkor qilinganligini aniqlasangiz, PIN-kodni maxfiy ravishda o’zgartirish kerak;

− PIN-kodni o’zgartirishda dastlab amaldagi Kartangiz PIN-kodini kiritish, so’ngra esa uni yangi PIN-kodga qayta o’rnatish kerak, bunda POS-terminal yoki o’ziga o’zi xizmat ko’rsatish/MBX tizimi terminalidan foydalanish kerak (unda bunday imkoniyat mavjud bo’lgan holatda);

− doimiy ravishda, eng kamida oyiga bir marta PIN-kodni o’zgartirib turing. Agar Sizning Kartangizga ish haqi o’tkazilsa, oldindan, Kartangiz hisobvarag’iga navbatdagi ish haqi o’tkazilgungacha 1-2 kun oldin Kartangiz PIN-kodini o’zgartiring. Bunday holatda, Karta hisobvarag’iga o’tkazilgan mablag’lar xavfsizligi Karta yo’qotilgan holatda ham yuqori bo’ladi;

Shuni unutmang, PIN-kodning uch marta ketma-ket noto’g’ri terilishi Kartani blokirovka qiladi. Shu tufayli PIN-kodni terish vaqtida klaviaturaning tegishli tugmasi har bir bosilganida terminal displeyida yoki POS-terminal yoxud o’ziga o’zi xizmat ko’rsatish Terminali ekranida uslubiy “yulduzcha” aks ettirilishini diqqat bilan kuzating. Bu POS-terminal yoxud o’ziga o’zi xizmat ko’rsatish Terminali klaviaturasida PIN-kodning barcha terilgan raqamlari qurilma tomonidan ishlash uchun qabul qilinganligini anglatadi. Aks holda, Siz tomondan klaviaturaning tegishli tugmasi yetarlicha bosilmaganligi tufayli yoki tugma nosozligi tufayli Siz noto’g’ri PINkodni terishingiz va Kartani blokirovka qilib qo’yishingiz mumkin;

− agar Siz PIN-kodni ikki marta noto’g’ri terib, uchinchi marta esa to’g’ri tersangiz, PIN-kodni kiritish urinishlari yana uch martagacha tiklanadi;

− Kartani faqat Bank Aloqa-markaziga murojaat qilish orqali blokirovkadan chiqarish yoki MBX orqali blokirovkadan chiqarish mumkin. Bunda, PIN-kodning uch marta ketma-ket noto’g’ri terilishi tufayli Karta blokirovka qilingan holatda, Bank Aloqa-markaziga qo’ng’iroq qilish orqali operatorga shaxsini tasdiqlovchi hujjat ma’lumotlari va Kod so’zini ma’lum qilgan holda Kartani blokirovkadan chiqarish mumkin. MBX orqali Kartani blokirovkadan chiqarish uchun

Bank mobil ilovasidan foydalanish va tegishli bo’limga kirish kerak;

− Kartani blokirovkadan chiqarish tartib-taomilini bajarish davomida Siz shaxsan va maxfiy ravishda Kartangiz yangi PIN-kodini kiritishingiz kerak.

Kartani saqlash va boshqa shaxslarga berish

Karta naqd pulsiz hisob-kitoblar vositasi hisoblanadi, o’z mablag’laringiz tegishlicha saqlanishini va ulardan foydalanish xavfsizligini oshiradi, Siz tomondan tovarlar va xizmatlar xarid qilishda qo’shimcha qulayliklar yaratadi. Biroq, Siz tomondan muayyan xavfsizlik

choralariga rioya qilmaslik Karta afzalliklarini kamaytiradi.
Shu tufayli Siz har doim quyidagi qoidalarni yodda tutishingiz va bajarishingiz kerak:
Kartani hamyon va naqd pullar bilan birga, shuningdek kiyimning Karta tasodifan shikastlanish ehtimoli yuqori bo'lgan joylarida (masalan, shimning orqa cho'ntagida, kalitlar va boshqa narsalar bilan birga) saqlamang.
Kartani hatto qisqa vaqtga ham begona shaxslarga bermang, ayniqsa, shundan so'ng ular tomonidan Karta bilan amalga oshiriladigan harakatlarni nazorat qilish imkoniga ega bo'lmasangiz. Vaqti-vaqti bilan Karta o'z joyida ekanligini tekshirib turing.
o'z Kartangiz raqamini, shuningdek Karta chiqarilgan bank ta'sis kodini yozib oling va saqlab qo'ying, ular Kartaning old tomonida aks ettirilgan.
Agar Siz o'z Kartangizdan foydalanishni boshqa shaxsga ishonib topshirishga qaror qilgan bo'lsangiz, buni tegishli ravishda rasmiylashtirish va ishonchli vakil mazkur Shartlar tavsiyalari bilan tanishib chiqqanligi va o'zlashtirib olganligiga hamda ularni so'zsiz bajarishga tayyorligiga ishonch hosil qilish kerak.
Har doim Savdo (xizmatlar) korxonasi xodimlari va Bank xodimlari tomonidan o'z Kartangiz bilan harakatlarni vizual nazorat qilishga intiling va hech qachon Kartani Bankomatda/o'ziga o'zi xizmat ko'rsatish terminalida yoki savdo terminalida qoldirib ketmang.
Karta chipiga turli nurlar, namlik tushishi, agressiv kimyoviy moddalar ta'siridan saqlaning, Kartadan belgilangan vazifasidan tashqari maqsadlarda foydalanmang – bu uning buzilishiga olib keladi.
Karta yo'qotilgan/buzilgan va oldin yo'qotilgan Karta topilgan holatdagi harakatlar Agar Siz yoki Sizning ishonchli shaxsingiz tomonidan Karta yo'qotilgan bo'lsa, Siz darhol bu haqda Universal shartnomaga asosan Bankka ma'lum qilishingiz kerak.
Yodingizda tuting, agar Sizning yo'qotilgan Kartangiz bo'yicha Tranzaksiyalar bajarilgan bo'lsa, ushbu Tranzaksiyalar summasi Bank tomonidan Sizga qaytarilmaydi. Shu tufayli Kartadan mablag'lar yo'qotilishi xavflarini kamaytirish maqsadida o'z PIN-kodingizni begona shaxslarga ma'lum qilmang.
Agar Siz oldin Bankka yo'qotilganligi va blokirovka qilish to'g'risida ariza bergan yo'qotilgan Kartangizni topib olsangiz, hech bir holatda ushbu Kartadan naqd pulsiz to'lov vositasi sifatida foydalanishga urinmang – Sizning Kartangiz hozirda blokirovka qilingan va Bankomat/o'ziga o'zi xizmat ko'rsatish Terminali tomonidan ushlab qolinishi mumkin.
Birinchi navbatda, Siz Bank Aloqa-markaziga qo'ng'iroq qilishingiz va Siz tomondan oldin yo'qotilgan, hozirda blokirovka qilingan Karta topilganligi to'g'risida ma'lum qilishingiz kerak. Shundan so'ng Bank xodimlari Sizga kelgusi ko'rsatmalarni ma'lum qiladi.
Topilgan Karta terminal/Bankomat/o'ziga o'zi xizmat ko'rsatish Terminalida foydalanishga urinishda blokirovka qilingan holatda, Siz uni blokirovkadan chiqarish uchun Bank Kontaktmarkaziga murojaat qilishingiz kerak. Kartani blokirovkadan chiqarish uchun Bank xodimini chaqirish talab qilingan holatda, yoningizda shaxsni tasdiqlovchi hujjat, shuningdek Kartadan foydalanish uchun tegishli ravishda rasmiylashtirilgan vakolatnoma bo'lishi kerak (agar Siz ishonchli shaxs bo'lsangiz).
Yodingizda tuting, Bank Sizga quyidagi holatlarda o'z Kartangiz bo'yicha amalga oshirilgan Tranzaksiyalar bo'yicha mablag'lar o'rnini to'ldirmaydi:
− Tranzaksiya Karta blokirovka qilingan paytgacha amalga oshirilgan;
− Tranzaksiya Prosessing markaziga tushmagan.
Kartadan foydalanish vaqtida yuz bergan uzilishlar yoki shtatdan tashqari vaziyatdagi harakatlar
Siz har doim shuni yodda tutishingiz kerakki, Karta va undan foydalaniladigan infratuzilma uskunasi garchi yuqori texnologik zamonaviy dasturiy-texnik qurilmalar hisoblansa ham turli xususiyatli ishdagi to'xtalishlarga uchrashi mumkin. Quyida Kartadan foydalanishda eng keng tarqalgan ishdagi to'xtalishlar va shtatdan tashqari vaziyatlar ro'yxati keltirilgan:
Bankomatda Kartadan mablag'lar chegirib olingan, biroq naqd pul berilishi amalga oshirilmagan.
Bunday holatda, Siz Bankomat tomonidan Operatsiya cheki berilishini kutib turishingiz kerak.
Shundan so'ng shu Bankomatning o'zida naqd pul berilishi amalga oshirilmagan Karta bo'yicha Operatsiyalar tarixini bosmadan chiqaring. So'ngra ushbu Bankomatga xizmat

ko'rsatuvchi bank muassasasiga murojaat qiling (aloqa bog'lash uchun telefon raqamlari Bankomat chekida qayd etilgan bo'lishi kerak), Bankomatda o'z Kartangizdan mablag'lar chegirib olinganligi, biroq naqd pul berilmaganligi fakti bo'yicha belgilangan namunada ariza bering va Operatsiya chekini yoki chek nusxasini ilova qiling. Yoningizda Karta, shaxsni tasdiqlovchi hujjat, Kartadan foydalanish uchun (agar Siz ishonchli vakil/Mijoz vakili bo'lsangiz) notarial tasdiqlangan vakolatnoma bo'lishi kerak. Bankomatdagi vaziyat dastlabki tekshiruvdan so'ng Sizga Karta chiqargan bank muassasasiga qo'shimcha ravishda murojaat qilishingizga to'g'ri kelishi mumkin.

Bankomatda Kartadan mablag'lar chegirib olinmagan, biroq naqd pul berilishi amalga oshirilgan.

Bunday holatda, Siz Bankomat tomonidan Operatsiya cheki berilishini kutib turishingiz kerak. Shundan so'ng shu Bankomatning o'zida mablag'lar chegirib olinmagan, biroq naqd pul berilishi amalga oshirilgan Karta bo'yicha Operatsiyalar tarixini bosmadan chiqaring. So'ngra ushbu Bankomatga xizmat ko'rsatuvchi bank muassasasiga murojaat qiling (aloqa bog'lash uchun telefon raqamlari Bankomat chekida qayd etilgan bo'lishi kerak) va Bankomatda o'z Kartangizdan mablag'lar chegirib olinmaganligi, biroq naqd pul berilganligi fakti bo'yicha belgilangan namunada ariza bering, Operatsiya chekini yoki chek nusxasini ilova qiling hamda Bankomatda olingan naqd pul summasini bank kirim kassasiga to'lang. Yoningizda Karta, shaxsni tasdiqlovchi hujjat, Kartadan foydalanish uchun (agar Siz ishonchli shaxs/Mijoz vakili bo'lsangiz) tegishli ravishda rasmiylashtirilgan vakolatnoma bo'lishi kerak.

Yuqorida qayd etilgan va boshqa ishdagi to'xtalishlardan saqlanish maqsadida Siz quyidagilarni nazorat qilishingiz kerak:

- Savdo (xizmat) korxonasi xodimi Sizning Kartangiz bilan Operatsiyani amalga oshirishdan oldin savdo terminali ishga yaroqliligiga, chek qog'ozi bilan ta'minlanganligi va bosmadan chiqarishga tayyorligiga (agar terminal to'liq funksional bo'lsa) va unga muqobil ta'minot qismlari – batareykalar/akkumulyatorlar o'rnatilganligiga (agar terminal ko'chma bo'lsa) ishonch hosil qilgan.

− Savdo (xizmat) korxonasi xodimi terminalda Sizning Kartangiz bilan Operatsiyani amalga oshirish paytida, Tranzaksiya va operatsiya chekini bosmadan chiqarish tugagungacha Sizning Kartangizni terminal kartrideridan chiqarmagan va terminalni elektr tarmog'idan uzib qo'ymagan (agar terminal to'liq funksional bo'lsa) va terminaldan muqobil ta'minot qismlarini olib qo'ymagan (agar terminal ko'chma bo'lsa).

− terminal tomonidan Operatsiya chekini bosmadan chiqarish paytida Savdo (xizmat) korxonasi xodimi terminal klaviaturasining tegishli tugmasini bosish orqali qog'oz o'tkazilishini amalga oshirmagan va bosmadan chiqarilayotgan Operatsiya chekining qo'lda majburan tortib olinishini amalga oshirmagan.

− Operatsiya cheki quyidagilar majburiy qayd etilgan holda tushunarli bosmadan chiqarilgan: Operatsiya sanasi/vaqti, Karta raqamlari, Avtorizasiya kodi, Operatsiyaning muvaffaqiyatli/muvaffaqiyatsiz bajarilganligi va boshqa Tranzaksiya rekvizitlari. Agar Sizga berilgan chek nusxasi ushbu talablarga javob bermasa, kassirdan chekning bosmadan chiqarilishi takrorlanishini so'rang.

Izohlar:

− Hech qachon, hech qanday vaziyatlarda o'z Kartangiz bilan amalga oshirilgan Operatsiyalar cheklarini Bankomat/o'ziga o'zi xizmat ko'rsatish Terminali yoki Siz Karta bo'yicha Operatsiyani amalga oshirgan joydagi terminal oldida qoldirib ketmang.

− Agar Bankomatdan Sizning Kartangiz chiqmay tutilib qolsa, Siz ushbu Bankomatga xizmat ko'rsatuvchi bank muassasasiga murojaat qilishingiz kerak (aloqa bog'lash uchun telefon raqamlari Bankomat chekida qayd etilgan bo'lishi kerak). Yoningizda shaxsni tasdiqlovchi hujjat, shuningdek Kartadan foydalanish uchun (agar Siz ishonchli shaxs/Mijoz vakili bo'lsangiz) tegishli ravishda rasmiylashtirilgan vakolatnoma bo'lishi kerak.

− Agar Bankomat/o'ziga o'zi xizmat ko'rsatish Terminali/terminal Sizning Kartangiz bilan biron-bir Operatsiyani haddan tashqari uzoq bajarsa (Bankomat/o'ziga o'zi xizmat ko'rsatish Terminali Sizga "qotib qolgandek" tuyulsa) Operatsiya bajarilishini kutib turishga va Kartani qayta olishga intiling.

“Tenge Bank” ATBda jismoniy shaxslar uchun
emissiya qilingan milliy va xorijiy valyutadagi
bank kartalariga xizmat ko’rsatish to’g’risida
Ommaviy shartnoma-Ofertaga 2-sonli Ilova

# «TENGE BANK» ATBDA JISMONIY SHAXSLAR TOMONIDAN KARTOMATLARDAN FOYDALANISH QOIDALARI

## I. Umumiy qoidalar

«Tenge Bank» ATBda kartomatlardan foydalanish qoidalari (bundan buyon matnda – “Qoidalar”) O’zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to’g’risida”gi Qonuniga, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining ““Raqamli O’zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Qaroriga (PQ-6079-sonli 05.10.2022y.), 2021 yil 03 apreldagi “O’zbekiston Respublikasida tijorat banklari tomonidan bank kartalari chiqarilishi va ulardan foydalanish tartibi to’g’risida”gi 3294-sonli Nizomga, shuningdek boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, Bank ichki normativ hujjatlariga asosan ishlab chiqilgan hamda bank kartalari bilan ishlash asosiy shartlari va tartib-taomillarini belgilaydi.

Mazkur Qoidalar Bank Kartomatlarida jismoniy shaxslar tomonidan bank kartalari emissiyasi amalga oshirilishi tartib-taomilini va mexanizmini belgilaydi.

Mazkur Qoidalarning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- kartochka infratuzilmasini takomillashtirish;
- «Tenge Bank» ATB binolarida va binolaridan tashqarida joylashgan o’ziga o’zi xizmat ko’rsatish qurilmalari ro’yxatini kengaytirish;
- kartomatlar faoliyatining kerakli darajadagi xavfsizligini ta’minlash.

Bankning jismoniy shaxslarga nisbatan bank kartalari emissiyasi bo’yicha muayyan shartlari (komissiya haqi, tariflar va shartlar), bank kartalari bo’yicha operatsiyalarni amalga oshirish tartib-taomillari “Tenge Bank” ATBda jismoniy shaxslar uchun emissiya qilingan milliy yoki xorijiy valyutadagi bank kartalariga xizmat ko’rsatish to’g’risida Ommaviy shartnoma-ofertada, Bankning boshqa ichki normativ hujjatlarida belgilanadi.

## II. Hujjatni yangilash

5. Bozorda yuzaga kelgan vaziyatga va mavjud raqobat muhitiga qarab, mazkur Qoidalar o’zgartirilishi va/yoki to’ldirilishi mumkin, zarur hollarda esa, Bank yangi mahsulotlari/texnologiyalari ishlab chiqilishi va Bank siyosati o’zgarishlariga qarab yangi tahrirda ishlab chiqilishi mumkin. Mazkur Qoidalarga kiritiladigan barcha o’zgartirishlar va /yoki qo’shimchalar yoki yangi tahrirdagi Qoidalar Bank ichki normativ hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlanadi.

## III. Atamalar va ta’riflar Mazkur Qoidalarda quyidagi asosiy tushunchalar qo’llaniladi:

Bank – «Tenge Bank» ATB (Bosh ofis va bank xizmatlari ofislari/savdo nuqtalari);

Bank kartasi – Bank tomonidan chiqarilgan, to’lov vositasi sifatida foydalaniladigan va o’z egasiga Kartochka hisobvarag’idagi pul mablag’lari qoldig’i doirasida yoki belgilangan limit doirasida va O’zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari shartlarida milliy va xorijiy valyutada operatsiyalarni amalga oshirish imkoniyatini beradigan mahalliy yoki xalqaro to’lov tizimlari to’lov kartasi;

Bank kartasini blokirovka qilish – Bank kartasi faoliyatini vaqtincha to’xtatib qo’yish yoki bekor qilish choralari (bekor qilingan holatda Bank tomonidan Bank kartasi xizmat ko’rsatishga taqdim qilinganida uning olib qo’yilishi nazarda tutiladi);

Bankomat – pul qabul qilish/berish, valyuta ayirboshlash operatsiyalari, bank hisobvaraqlari axborot berish, naqd pulsiz to’lovlarni amalga oshirish hamda bank kartalaridan foydalanib va foydalanmagan holda boshqa Bank xizmatlaridan foydalanish uchun mo’ljallangan o’ziga o’zi xizmat ko’rsatish elektron-mexanik qurilma;

Kartochka biznesi departamenti – Bankning emissiya va ekvayring faoliyatini ta'minlaydigan Bank tarkibiy bo'linmasi. Mazkur Qoidalar doirasida – o'ziga o'zi xizmat ko'rsatish qurilmalari

(bankomatlar, kartomatlar va h.k.) montaj qilinishi va tegishlicha ishlatilishini ta'minlaydi;
Ishonchli raqam – ro'yxatdan o'tkazish va Bank mobil ilovasiga ulanish uchun foydalaniladigan Mijoz mobil telefoni shaxsiy raqami. Ishonchli raqam Bank tomonidan Mijoz bilan axborot va moliyaviy o'zaro hamkorlik uchun ishlatilishi mumkin;

Qo'shimcha karta – Mijoz nomiga qo'shimcha ravishda rasmiylashtirilgan va Kartochka hisobvarag'idagi pul mablag'lari doirasida yoki dastlab chiqarilgan Bank kartasi biriktirilgan belgilangan limit doirasida operatsiyalarni amalga oshirish imkoniyatini beradigan bank kartasi;

Masofaviy bank xizmatlari tizimi – Mijoz tomonidan telekommunikasiya tizimlaridan foydalanib masofaviy usulda uzatiladigan (olinadigan) elektron farmoyishlar asosida taqdim qilinadigan Bank xizmatlari majmui;

Noxush hodisa – Mijoz tomonidan Kartomatdan foydalanib operatsiyalar amalga oshirilishi davomida yuz bergan hodisa natijasida texnik xususiyatli sabablar bo'yicha Bank kartasi Kartomat ichida qolgan va Mijozga berilmagan vaziyat;

Kartomat – Mijozga Bank xodimlari ishtirokisiz va qog'oz tashuvchi vositada hujjatlar rasmiylashtirilmagan holda, aynan esa hujjatlarni Bank mobil ilovasida elektron shaklda rasmiylashtirish orqali bank kartasining darhol chiqarilishini (emissiyasini) amalga oshirish imkonini beradigan avtomatlashtirilgan elektron-texnik qurilma;

Mijoz – Bank mobil ilovasidan foydalanuvchi hisoblangan va unda raqamli identifikasiyalashdan o'tkazilgan jismoniy shaxs;

Kartochka hisobvarag'i – pul mablag'laridan foydalanishni Bank kartasi orqali amalga oshirish mumkin bo'lgan Mijozning bank hisobvarag'i;

Aloqa-markazi – Mijozga telefon, onlayn-chat, elektron pochta orqali amalga oshirilgan operatsiyalar, Bank kartasini blokirovka qilish va h.k. to'g'risida axborot taqdim qilish shaklida masofaviy xizmatlar ko'rsatadigan Bank bo'linmasi;

Telefon so'zlashuvlari uchun nazorat so'zi – Mijoz shaxsi va vakolatlarini tasdiqlash uchun mo'ljallangan shartli so'z yoki belgilar to'plami. Telefon so'zlashuvlari uchun parol Mijoz tomonidan jismoniy shaxslar uchun milliy valyutada bank kartalarini chiqarish va ularga xizmat ko'rsatish uchun arizada qayd etiladi;

Komprometatsiya – to'lov tizimiga kirish uchun foydalaniladigan Parol yoki tasdiqlash vositalari faqat Mijozning ulardan foydalanish huquqiga ega shaxsi tomonidan ishlatilayotganligiga ishonch yo'qotilishi;

Operatsiyalar bo'yicha limit – Kartalardan va/yoki MBX tizimidan foydalanib (Bankda bunday imkoniyat bo'lgan holatda) amalga oshiriladigan Operatsiyalar (Topshiriqlar) amalga oshirilishi uchun Bank/Mijoz tomonidan belgilangan cheklov;

Xalqaro to'lov tizimi (XTM) – o'zaro hisob-kitoblar ishtirokchilari tizimlari va ularning agentlari shaklida taqdim qilingan, o'zaro muayyan qoidalar bilan birlashgan va o'zaro munosabatlarni to'lov kartalari texnologiyalaridan foydalanish asosida tashkil qiladigan Visa International, MasterCard Worldwide, American Express, China UnionPay va h.k. xalqaro to'lov tizimlari;

Bank mobil ilovasi – mobil telefon va/yoki planshetli kompyuterga va/yoki Bank dasturiy ta'minoti o'rnatilishini qo'llab-quvvatlaydigan va Mijozga bank operatsiyalarini amalga oshirish imkonini beradigan boshqa qurilmaga o'rnatiladigan Bank dasturiy ta'minoti;

Murojaatnoma – Mijozning tegishli Bank bo'linmasiga Texnik to'xtalish sababini aniqlash va/yoki Noxush hodisani bartaraf etishga doir ishlarni tashkillashtirish va/yoki o'tkazish to'g'risida iltimos bilan yuborilgan, Kartomat joylashgan manzil, operatsiya sanasi va vaqti va h.k. ma'lumotlarni o'z ichiga olgan og'zaki yoki yozma shakldagi murojaati;

PIN-kod – Kartochka hisobvarag'idagi pul mablag'laridan foydalanish huquqini va bank kartasi egasining pul mablag'laridan foydalanishga ruxsatini tasdiqlaydigan shaxsiy identifikasiyalash raqami;

Shaxsiy ma'lumotlar – elektron, qog'oz tashuvchi va (yoki) boshqa moddiy tashuvchi vositalarda qayd etilgan Mijozga tegishli yoki uni identifikasiyalash imkonini beradigan

axborot;
Dasturiy-texnik ishlar – Kartomat bilan amalga oshiriladigan ishlar turlari (profilaktik, installyasiya, sozlash, tashxislash, ta'mirlash, test va transportirovka qilishga tayyorlash ishlari);
Foydalanuvchi – axborot-bank xizmatlarini amalga oshirish uchun Bank mobil ilovasidan foydalanadigan jismoniy shaxs;
Mijozlarga xizmat ko'rsatish punkti/Bank xizmatlari ofislari/Savdo nuqtasi – O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga va Bankning ichki normativ hujjatlariga asosan yuridik shaxs hisoblanmagan, shu jumladan Bosh ofis joylashgan manzildan tashqarida ham joylashgan, Bank nomidan bank operatsiyalarini amalga oshiradigan va Bank tomonidan unga berilgan vakolatlar doirasida faoliyat yuritadigan Bank bo'linmasi;
Bank kartasini blokirovkadan chiqarish – Bank tomonidan Bank kartasi faoliyatini tiklash bo'yicha choralar qabul qilinishi;
Bank Tariflari – Bank tomonidan tasdiqlangan, Bank tomonidan Mijozga xizmat ko'rsatish shartlarini, shu jumladan stavkalar, komissiyalar, neustoykalar, foizlarni va h.k. belgilaydigan hujjatlar;
Tranzaksiya – Mijozning o'z Kartochka hisobvarag'i bilan va/yoki Bank kartasi orqali operatsiyasi, shu jumladan pul mablag'lari to'lovi, olinishi va boshqa operatsiyalar amalga oshirilishi;
Texnik to'xtalish – Kartomat ishidagi shtatdan tashqari vaziyat natijasida Kartomatda operatsiya xato bilan bajarilgan;
«SMS-banking» xizmati – Mijozga ishonchli raqamga tushadigan SMS-xabarnomalar yordamida to'lov kartasi bo'yicha pul harakatlanishidan tun-kun xabardor bo'lishni ta'minlaydigan servis;
Raqamli identifikasiyalash – raqamli biometriya vositalari asosida (MyID yordamida) mobil ilovadan masofaviy foydalanuvchini identifikasiyalangan sifatida e'tirof qilish va foydalanuvchini «Tenge Bank» ATB Mijozi shaklida ro'yxatdan o'tkazish imkonini beradigan qaror;
Elektron xabarnoma – Bank tomonidan internet va/yoki mobil aloqa orqali Mijozning mobil telefonlariga (SMS, PUSH) va/yoki elektron pochtasiga standart shaklda yuboriladigan qisqa xabarlar;
Elektron hujjat – axborot elektron-raqamli shaklda taqdim qilingan hujjat;
QR-kod – kartomat bilan Mijozni identifikasiyalash, shuningdek bank kartasini chiqarish amalga oshiriladigan mobil ilovadagi qulay va xavfsiz servis;
3D-Secure/Secure Code – ruxsatsiz tranzaksiyalar xavfini kamaytirish va internetda to'lovlar himoyalanganligini ta'minlash maqsadida Visa International va MasterCard Worldwide xalqaro to'lov tizimlari tomonidan ishlab chiqilgan va on-line rejimida internetda bank operatsiyalarini amalga oshirish jarayonida Mijozni identifikasiyalash uchun foydalaniladigan texnologiya;
CVV2-kod («CVV2» – Card Verification Value 2) – bank kartasiga beriladigan (CVV2-kod – Visa bank kartalari bo'yicha, CVC2-kod – MasterCard bank kartalari bo'yicha) va internet tarmog'ida tovarlar va xizmatlar to'lovida Karta egasini identifikasiyalash uchun mo'ljallangan identifikasiyalash uch xonali kodi.

## IV. Asosiy shartlari

6.1. Mazkur Qoidalar talablari Bank binolari hududida va undan tashqarida o'rnatilgan Kartomatlar xizmatlaridan foydalanib amalga oshiriladigan Mijozlar operatsiyalari uchun qo'llaniladi.
6.2. Mazkur Qoidalar doirasida Mijoz tomonidan Kartomatlar orqali mahalliy va xalqaro to'lov tizimlari bank kartalarini chiqarish bo'yicha operatsiyalar amalga oshirilishi mumkin.
6.3. Mijoz tomonidan Kartomatlardan foydalanib operatsiyalar 24/7 rejimida (tun-kun va haftaning istalgan kunida) amalga oshiriladi, Texnik to'xtalishlar yuzaga kelgan vaqtda va/yoki Noxush hodisalarni bartaraf etish maqsadida aniqlashga doir dasturiy-texnik ishlar o'tkaziladigan holatlar bundan mustasno.
6.4. Kartomatlarni texnik ta'minlash, yuzaga kelgan Noxush hodisalar yuzasidan

Murojaatnomalarni qabul qilish va ishlash, ularni o'rganish bo'yicha majburiyat Kartochka biznesi departamentiga, shuningdek Bank Savdo nuqtalarida emissiya va ekvayring bo'limlariga Bank ichki normativ hujjatlariga muvofiq va taqdim qilingan vakolatlar doirasida yuklatiladi.

6.5. Noxush hodisalar yoki Kartomatlar ish rejimi buzilishi yuzaga kelgan holatda, Mijoz Bank bo'linmasiga yoki tun-kun qo'llab-quvvatlash xizmatiga quyidagilar orqali murojaat qilishga haqli:

Aloqa-markazining qisqa raqami: 1245;

Bankning ishonch telefoni: +(99871) 203-00-65;

elektron pochta orqali quyidagi manzil bo'yicha: info@tengebank.uz;

Telegramda bot orqali quyidagi manzil bo'yicha: @tengebankSupport.

V. Kartomatlar orqali bank kartalarini chiqarish tartibi

7.1. Faqat raqamli biometriya vositalari qo'llanilgan holda Bank bo'linmasida yoki MBX tizimi kanallarida (mobil ilovasida) identifikasiyalangan Bank Mijozlari kartomatda bank kartasini olishlari mumkin.

7.2. Bank kartasini (shu jumladan, Qo'shimcha kartani) chiqarish uchun ariza Bank mobil ilovasi orqali "Karta" bo'limida beriladi.

7.3. Mijoz Bank mobil ilovasida Elektron oferta bilan tanishib chiqadi va uni akseptlaydi.

7.4. Bankning amaldagi Tariflariga asosan Mijozdan Bank kartasi chiqarilganligi uchun komissiya haqi olinishi mumkin.

7.5. "Kartomat orqali" karta olish usuli tanlovi amalga oshiriladi va mobil ilovada QR-kod belgilanadi.

7.6. Bank kartomatlaridan biri oldiga kelib Mijoz kartomat ekranida to'lov tizimini tanlaydi, QR-kod tasviri aks ettirilgan mobil telefonni Kartomatda o'rnatilgan bevosita QR-kodni o'qiydigan qurilma ustiga qo'yadi va bu orqali Bank kartasi chiqarilishiga buyruq beradi.

7.7. Agar Kartomat QR-kodni o'qiy olmasa, Mijozga yuzaga kelgan xato va uni hal qilish usuli to'g'risida xabarnoma keladi.

7.8. Kartomat tomonidan Bank kartasi chiqarilish jarayoni 1-3 daqiqa mobaynida amalga oshiriladi.

7.9. Mijozga Bank avtomatlashtirilgan tizimida avtomatik ravishda Mijoz kartochkasi va kartochka operatsiyalarini hisobga olish hisobvarag'i (Kartochka hisobvarag'i) ochiladi, shuningdek «SMS-banking» xizmati ulanadi.

7.10. Mijozga Bank kartasi berilishidan oldin Kartomat ekranida yoki mobil ilovada Bank kartasini mustaqil ravishda faollashtirish tartibi to'g'risida axborot aks ettiriladi.

7.11. Mijoz Kartomatda Bank kartasini faollashtirish tartibi to'g'risidagi axborotni akseptlash orqali avtomatik ravishda 3D-secure xizmatlari (xalqaro to'lov tizimlari kartalarida) ulangan holda shaxsiy Bank kartasini oladi. Mijoz Bank tomonidan tasdiqlangan Bank kartasini olish to'g'risida jurnalni imzolamagan holda Kartomatdan kartani olib ketadi, chunki berilgan bank kartalari hisobi bevosita Kartomat tomonidan elektron shakldа yuritiladi.

7.12. Kartomatda Bank kartasini olishda Mijoz kartaning old tomonida qayd etilgan familiyasi va ismi to'g'riligini tekshirishi kerak. Ular yozilishida xatolar aniqlangan holatda, bu haqda Bankning istalgan savdo nuqtasiga yoki tun-kun qo'llab-quvvatlash xizmatiga murojaat qilish orqali Bankni xabardor qilishi kerak.

7.13. Bank kartasini faollashtirish Bank mobil ilovasida amalga oshirilishi mumkin, buning uchun Mijoz:

- Bank mobil ilovasidagi «Kartalar» bo'limida ro'yxatdan kartani tanlaydi;
- PIN-kodni o'rnatish uchun kartani bosadi;
- PIN-kodni o'rnatish to'g'risida o'z harakatini tasdiqlaydi;
- PIN-kodni Bank mobil ilovasi talablariga asosan o'rnatadi;
- PIN-kod muvaffaqiyatli o'rnatilganligi va yaqindagi Bankomatda balansni tekshirish to'g'risida PUSH-xabarnoma oladi.

7.14. Kartomat tomonidan Bank kartasi berilishi amalga oshirilmagan holatda, Mijoz Bankning

tun-kun qo'llab-quvvatlash xizmatiga murojaat qilishi kerak.
7.15. Noxush hodisani bartaraf qilish maqsadida Mijoz Murojaatnomani taqdim qiladi va Bank kartasini chiqarishga urinish to'g'risida tushuntirish xati beradi, shuningdek Kartomat joylashgan manzilni, operatsiya sanasi, vaqti va h.k. ma'lumotlarni ko'rsatadi.
7.16. Noxush hodisani o'rganish qonun hujjatlari va Bank ichki hujjatlari talablariga asosan Murojaatnoma tushgan kundan e'tiboran 10 (o'n) kun mobaynida amalga oshiriladi.
7.17. Noxush hodisa sabablari aniqlanganidan va Bankning tegishli tarkibiy bo'linmalari xodimlari tomonidan tasdiqlanganidan so'ng imkoniyat bo'lgan holatda Bank kartasini chiqarish amalga oshiriladi.

## VI. Javobgarlik

8.1. Bank, zarur hollarda, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, Mijoz tomonidan o'tkazilayotgan operatsiyalar qonuniyligini tekshiradi va Kartomatlar orqali Bank kartalarini chiqarish bo'yicha xizmatlar ko'rsatilishi bilan bog'liq kerakli tasdiqlovchi hujjatlarni talab qilib oladi.
8.2. Bank xodimlari, amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq, o'z vakolatlari doirasida mazkur Qoidalarda belgilangan normalar buzilganligi uchun javobgar bo'ladilar.
8.3. Mijoz Bank mobil ilovasidan foydalanish xavfsizlik qoidalari buzilganligi va uchinchi shaxslarga Bank Kartomatida Bank kartasini olish uchun QR-kod berilganligi uchun javobgar bo'ladi.
Bank tomonidan axborot xavfsizligi va himoya qilinishini ta'minlash, shuningdek xizmat ko'rsatish sifatini tegishli darajada saqlash uchun Mijoz tomonidan Bank Aloqa-markazi xizmatlaridan foydalanish zaruriyati maqsadlarida Mijoz qo'shimcha xabardor qilinmagan holda telefon orqali suhbatlar yozib olinishi mumkin.

“Tenge Bank” ATBda jismoniy shaxslar uchun
emissiya qilingan milliy va xorijiy valyutadagi
bank kartalariga xizmat
ko’rsatish to’g’risida Ommaviy shartnoma-Ofertaga
4-sonli Ilovaga 1-sonli Namuna

TENGE BANK «Tenge Bank» ATB

______________________________________
Bank bo’linmasi nomi

ARIZA

_____________________________________________________________
________________dan
Mijoz yoki uning qonuniy vakili familiyasi, ismi va otasining ismi
Men Sizdan quyida qayd etilgan bank kartalarini, shuningdek, zarur hollarda, tegishli hisobvaraqlarni ochishni yoki yopishni so’rayman:

☐ CHIQARISH ☐ QAYTA CHIQARISH YOPISH

☐ Jismoniy shaxs Uzcard ☐ Jismoniy shaxs HUMO Mastercard
☐ Start (UZS) ☐
☐ Uzcard ish haqi loyihasi ☐ HUMO ish haqi loyihasi Mastercard Start (USD)
Individual dizayn Individual dizayn Individual dizayn

Bank kartasini qayta chiqarish sababi ** ☐ Buzilgan/ Yo’qotilgan ☐ Yaroqlilik muddati tugagan ☐ F.I.Sh. o’zgarishlari

Qayta chiqarilgan/yopilayotgan bank kartasi raqami**: ______________________________________

Shuningdek, Sizdan quyidagi qo’shimcha xizmatlarni so’rayman:

Ulanish Uzib qo’yish ☐ ☐
☐ SMS-xabarnoma ☐ Mobil ilova/Shaxsiy kabinet

Mijoz TO’G’RISIDA AXBOROT:

| | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| F.I.Sh.*: | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| Pasport ma’lumotlari *: | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| Tug’ilgan sana*: | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| Manzili*: | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| Ish joyi: | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| Telefon raqami*: | + | 9 | 9 | 8 | ( | | | ) | | | | - | | | - | | |

SMS-ma'lumotlarni yuborish uchun mobil telefon raqami: Yuqoridagi raqamdan raqamdan foydalaning

E-mail:

Telefon so'zlashuvlari uchun nazorat so'zi*

Men "Tenge Bank" ATBda jismoniy shaxslar uchun emissiya qilingan milliy va xorijiy valyutadagi bank kartalariga xizmat ko'rsatish to'g'risida Ommaviy shartnoma-Oferta shartlari va ushbu ariza to'ldirilgan paytda "Tenge Bank" ATBda jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatish bo'yicha universal shartnoma va Bankda amaldagi Bank Tariflari bilan tanishib chiqdim va ularga roziman, shuningdek bonuslar va keshbeklar olish uchun o'z roziligimni bildiraman va ehtimoliy soliqlar to'lovi bo'yicha majburiyatlarni o'zimga qabul qilaman.

Bank kartasining amal qilish muddati tugaganidan so'ng va kartochka hisobvarag'ida mablag'lar qolmagan holatda, Sizdan kelgusida kartochka hisobvarag'ini yopishni va men bilan tuzilgan shartnomani bekor qilishni so'rayman.

Ariza to'ldirilgan sana: __________________ Karta egasining imzosi: _______________

XODIM/TALABA TO'G'RISIDAGI AXBOROTNING TASDIQLANISHI ***

Biz yuqorida qayd etilgan Mijoz tashkilotimiz xodimi/talabasi ekanligini tasdiqlaymiz.

Tashkilot nomi:________________________________________________________________________ ________

Sana: "_____"____________________ 20____ y. Rahbar imzosi: __________________ M.O'.

BANK QAYDI:

Ariza qabul qilingan sana: ____________ Arizani qabul qilgan xodim imzosi: __________

Boshqa qaydlar: ___________________________________________________________________________

* - bank kartasini rasmiylashtirishda va/yoki qo'shimcha xizmatlarni ulashda talab qilinadi;

** - faqat bank kartasini yopishda yoki qayta chiqarishda talab qilinadi;

*** - ish haqi bank kartasini berish uchun ariza bilan faqat birinchi marta murojaat qilinganida to'ldiriladi.

«Tenge Bank» ATBda jismoniy shaxslarga
xizmat ko'rsatish bo'yicha Universal shartnomaga
5-sonli ILOVA

# «TENGE BANK» ATB MASOFAVIY BANK XIZMATI ORQALI ONLAYN MIKROQARZ TAQDIM QILISH TO'G'RISIDA OMMAVIY OFERTA

## 1. ATAMALAR VA TA'RIFLAR

Mijozni verifikasiyalash – Mijozning olingan va Bankdagi mavjud shaxsiy ma'lumotlari aktualligini, to'g'riligini va to'liqligini tekshirish.

Mikroqarz berilgan sana – Bank tomonidan talab qilib olguncha saqlanadigan depozit hisobvarag'iga/bank kartasiga, shu jumladan Qarz oluvchining virtual kartasiga/elektron hamyoniga pul mablag'lari o'tkazilgan sana.

Qarz oluvchi/Mijoz – tasdiqlangan daromadga ega va Mikroqarz mahsuloti shartlari bo'yicha barcha talablarga javob beradigan, shuningdek Bank bilan tuzilgan mazkur mikroqarz taqdim qilish to'g'risidagi Shartnoma va ommaviy oferta doirasida Mikroqarz olgan jismoniy shaxs
(O'zbekiston Respublikasida doimiy istiqomat qiluvchi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari/rezidentlari).

Mikroqarzning individual shartlari – MBX orqali Individual shartlarni va mazkur Ommaviy ofertani akseptlash orqali Mijoz/Qarz oluvchi tomonidan Mikroqarz olishda aks ettiriladigan va tasdiqlangan Bank tomonidan Mijoz uchun hisoblab chiqilgan ehtimoliy moliyalash summasi doirasida Mijozga mikroqarz taqdim qilishning muayyan shartlari (summasi, muddati, foiz stavkasi va h.k.).

Kredit arizasi – Mijozga onlayn mikroqarz (bundan buyon matnda – "Mikroqarz") taqdim qilish ehtimolini baholash maqsadida MBX orqali Mijoz tomonidan (potensial Qarz oluvchi tomonidan) Bankka yuboriladigan va mazkur Ommaviy ofertada nazarda tutilgan shartlarda so'ralayotgan mikroqarz to'g'risida umumiy axborotni o'z ichiga olgan hujjat (MBX tizimida tuziladi).

Mikroqarz/onlayn Mikroqarz – MBX tizimidan foydalanish orqali Bank tomonidan muddatlilik, qaytarish, ta'minlanganlik va to'lanish shartlarida Qarz oluvchiga mazkur Ommaviy ofertada nazarda tutilgan shartlarda pul mablag'larini o'tkazish orqali taqdim qilinadigan pul mablag'lari.

Elektron hamyon – MBX orqali Mijoz foydalanishi mumkin bo'lgan Bankda ochilgan hisobvaraq.

Mikroqarz bo'yicha ta'minot – mikroqarz summasining 125% dan kam bo'lmagan summada kredit so'ndirilmasligi xavfini sug'urtalash polisi.

To'lov majburiyatlari – Qarz oluvchining mazkur Shartnoma bo'yicha qarzini, uning bo'yicha foizlarni va boshqa to'lovlarni (garovni rasmiylashtirish bo'yicha xarajatlar) mazkur Shartnomada belgilangan summada va muddatlarda so'ndirish majburiyatlari.

Masofaviy Bank xizmatlari (MBX tizimi) – Bank xizmatlaridan Masofaviy foydalanish imkoniyatini taqdim qiladigan dasturiy-texnik vositalar, shu jumladan «Tenge24» mobil ilovasi.

## 2. ASOSIY QOIDALAR

2.1. Mazkur Ommaviy oferta «Tenge Bank» ATB (bundan buyon matnda – "Bank") tomonidan MBX orqali mazkur Ommaviy oferta umumiy shartlarida va Mikroqarzning individual shartlarida mikroqarz taqdim qilinishi to'g'risida shartnomani (bundan buyon matnda – "Shartnoma") tuzish to'g'risida Bankning nomuayyan sonli Mijozlariga yo'llangan rasmiy taklifi hisoblanadi.

2.2. Mikroqarz taqdim qilinishi to'g'risida shartnoma O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 367-moddasi va 369-moddasi 2-qismiga, Universal shartnomaga muvofiq tuziladi hamda Mijoz tomonidan mazkur Ommaviy oferta va/yoki Universal shartnomada nazarda

tutilgan va Mijoz tomonidan mazkur Ommaviy oferta biron-bir chegirmalarsiz yoki cheklovlarsiz so'zsiz akseptlanishini anglatadigan harakatlar amalga oshirilgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi.
2.3. Mazkur Ommaviy oferta shartlariga asosan Mikroqarz olishni istagan Mijozlar javob berishi kerak bo'lgan muayyan talablar, mikroqarz summasining miqdori, muddatlari, boshqa to'lovlar, shuningdek boshqa shartlar Mijozlarga umumiy foydalanish joylarida (Internet tarmog'ida Bankning quyidagi manzil bo'yicha rasmiy saytida: www.tengebank.uz, MBX tizimi servislarida, Bankning Aloqa-markazi orqali, shuningdek ommaviy axborot vositalarida va h.k.) tegishli axborotni joylashtirish orqali ma'lum qilinadi.
2.4. Mikroqarzni taqdim qilish shartlariga va axborot uzatish shartlari uchun ofertani qabul qilishga rozilik bergan va Kredit arizasini yuborgan holatda, Mijoz mazkur Ommaviy ofertani onlayn rejimida MBX tizimi vositalaridan foydalanilgan holda yoki Bank tomonidan belgilangan boshqa usullar yordamida akseptlaydi. Mazkur aksept Bank uchun Mijozning Kredit arizasini potensial Qarz oluvchi sifatida dastlabki ko'rib chiqish uchun asos hisoblanadi. Bank tomonidan Mijozning arizasi ma'qullangan holatda, Bank Mijozga Mikroqarzning individual shartlarini taqdim qiladi. Mijoz tomonidan Mikroqarzning individual shartlari qabul qilingan (akseptlangan) holatda, Mikroqarzni taqdim qilish to'g'risida shartnoma mazkur Ommaviy ofertada va Mikroqarzning individual shartlarida nazarda tutilgan shartlarda tuzilgan hisoblanadi.
Bunda, Mijoz/Qarz oluvchi tomonidan Shartnoma Bank operasion kuni tugaganidan so'ng va/yoki tashqi axborot tizimlaridan foydalanish imkoniyati yo'qligi sababli, shuningdek Bankka bog'liq bo'lmagan boshqa sabablarga ko'ra akseptlangan holatda, Shartnoma Bank operasion kunidan keyingi birinchi kunda va/yoki tashqi axborot tizimlaridan foydalanish imkoniyati bo'lgan holatda, shuningdek Bankka bog'liq bo'lmagan boshqa sabablar bartaraf qilinganidan so'ng tuzilgan hisoblanadi.
2.5. Mikroqarzning individual shartlari Mijoz/Qarz oluvchi tomonidan har bir Mikroqarz olinishidan oldin alohida belgilanadi va Tenge24 mobil ilovasiga uzatiladi. Qarz oluvchi SMSxabarnomani tasdiqlash yoki Bank tomonidan taklif qilingan boshqa usul orqali Mikroqarzning individual shartlarini qabul qiladi va rozilik bildiradi. Qarz oluvchi tomonidan mazkur Ommaviy oferta shartlari akseptlangan va Mikroqarzning individual shartlari qabul qilingan holatda,
Mikroqarzni taqdim qilish to'g'risida shartnoma (bundan buyon matnda – "Shartnoma") mazkur Ommaviy ofertada va Mikroqarzning individual shartlarida nazarda tutilgan shartlarda tuzilgan hisoblanadi hamda Bank va Mijoz/Qarz oluvchi tomonidan o'z majburiyatlari to'liq bajarilgungacha amal qiladi.
2.6. Mijoz Bankning Mijozning kreditni to'lash qobiliyati va boshqa ma'lumotlarini baholash amalga oshiriladigan skoring modeli tijorat siri ekanligiga va maxfiy hisoblanishiga hamda Bank quyidagi holatlarda sabablari ko'rsatilmagan holda Mijozga Mikroqarz berilishini rad qilishga haqli ekanligiga rozilik bildiradi:
 Mijozni va uning tomonidan taqdim qilingan ma'lumotlarni tahlil qilishning barcha tegishli bosqichlaridan muvaffaqiyatli o'tilmagan holatda va/yoki;
 muammoli kreditlar/qarzlar, ular bo'yicha joriy to'lov muddati kechiktirilgan qarzdorlik mavjud bo'lgan holatda;
 Mikroqarzni olishdan maqsad jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va/yoki terrorizmni moliyalashtirish va/yoki ommaviy qirg'in quroli tarqalishini moliyalashtirishdan iborat ekanligiga shubha-gumonlar mavjud bo'lgan holatda;
 Kredit arizasi/ariza beruvchi shartlarining Bank kredit siyosati/xavf-xatarlar strategiyasi talablariga muvofiq emasligi bilan bog'liq boshqa holatlarda;
 amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa holatlarda.
Mijozni mazkur Ommaviy oferta va Tariflar (shu jumladan, Bank tomonidan vaqti-vaqti bilan kiritiladigan o'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalar) bilan tanishtirish maqsadida Bank qayd etilgan hujjatlarni Bank saytida e'lon qiladi. Bank qo'shimcha ravishda Mijozga axborot olish va u Bankdan olinganligini aniqlash imkonini beradigan boshqa usullar yordamida Mijozni xabardor qilishi mumkin. Qayd etilgan axborot Bank saytida birinchi joylashtirilgan sana ushbu axborot e'lon qilingan sana hisoblanadi.

## 3. SHARTNOMA PREDMETI

3.1. Bank Mijozga Kredit arizasida Mijoz tomonidan ko’rsatilgan summada, biroq Bank tomonidan Mijoz uchun hisoblab chiqilgan ehtimoliy moliyalash summasidan ko’p bo’lmagan miqdorda Mikroqarz beradi, Mijoz esa olingan Mikroqarz summasini Bankka qaytarish hamda mazkur Ommaviy oferta va Mikroqarzning individual shartlarida nazarda tutilgan shartlarga asosan Mikroqarzdan foydalanilganlik uchun foizlarni to’lash majburiyatini oladi.

3.2. Ta’minotga talablar – Bankning xohishiga qarab, ta’minotsiz yoki ta’minot asosida kredit qaytarilmasligi xavfini sug’urtalash polisi.

3.3. So’ndirish tartibi – har bir Mikroqarz bo’yicha Mijozning MBXni ko’rsatish tizimlarida amalga oshirish mumkin bo’lgan jadval bo’yicha har oylik to’lovlari.

## 4. QARZ HISOBVARAG’INI OCHISH

4.1. Mazkur Ommaviy ofertaga asosan Bank Mijozga O’zbekiston Respublikasi milliy valyutasi – so’mda qarz hisobvarag’ini (hisobvaraqlarini) ochadi.

4.2. Hisobvaraq raqami Bank tomonidan bir tomonlama tartibda belgilanadi va Mijozga MBXda axborot joylashtirish orqali ma’lum qilinadi.

## 5. MIKROQARZNI BERISH VA SO’NDIRISH TARTIBI

5.1. Mikroqarz Mijozga mazkur Ommaviy ofertada belgilangan shartlarda va tartibda talab qilib olguncha saqlanadigan depozit hisobvarag’iga yoki bank kartasiga, shu jumladan Mijozning virtual kartasiga/elektron hamyoniga naqd pulsiz shaklda pul mablag’larini o’tkazish orqali taqdim qilinadi.

5.2. Mikroqarz olish uchun Mijoz MBX tizimi interfeysida mazkur Ommaviy oferta bilan tanishib chiqishi va uni akseptlashi (qabul qilishi) hamda va Kredit arizasini berish orqali Mikroqarz taqdim qilish imkoniyati to’g’risida so’rovnoma bilan murojaat qilishi kerak.

5.3. Kredit arizasi ko’rib chiqilganidan so’ng Bank Mijozga MBX tizimi interfeysida yoki Mikroqarzning individual shartlarini shakllantirish orqali Bank tomonidan tasdiqlangan mazkur Ommaviy oferta shartlarida moliyalash summasini ma’lum qiladi yoxud muvaffaqiyatsiz verifikasiyalash yoki Mijozning kreditni to’lash qobiliyati yetarlicha emasligi sababli Mikroqarzni taqdim qilish imkoniyati yo’qligi to’g’risida xabar beradi.

5.4. Mazkur Ommaviy ofertani va Mikroqarzning individual shartlarini akseptlash orqali Mijoz o’z roziligi bildiradi va Bankka Mikroqarzni ko’rib chiqish, berish va so’ndirish jarayonlari bilan bog’liq maqsadlarda O’zbekiston Respublikasining “Shaxsiy ma’lumotlar to’g’risida”gi Qonuni talablariga asosan rasmiy manbalardan kerakli hajmda Mijozning shaxsiy ma’lumotlarini talab qilish, olish, ishlash va boshqa shaxsga uzatish vakolatini beradi.

5.5. Bank tomonidan tasdiqlangan Mijozni moliyalash summasi Mijozning kreditni to’lash qobiliyatini baholash orqali Bankda mavjud Mijoz to’g’risidagi axborot asosida belgilanadi. Mijozning kreditni to’lash qobiliyatini baholash metodikasi Bankning tijorat siri bo’lib, maxfiy hisoblanadi.

5.6. Mijoz Bank tomonidan taklif qilingan ehtimoliy moliyalash summasidan yuqori bo’lmagan summada, mazkur Ommaviy oferta shartlarida so’ndirish oy kunlari qayd etilgan holda Kredit arizasini berishga yoki Mikroqarz olishni rad qilishga haqli.

5.7. Mijozning Kredit arizasi Mikroqarz summasini, uni so’ndirish muddatini, foiz stavkasini va so’ndirish oy kunini o’z ichiga oladi hamda Mijoz tomonidan akseptlangan mazkur Ommaviy ofertaning ajralmas qismi hisoblanadi.

5.8. Kredit arizasini va Mikroqarzning individual shartlari akseptini taqdim qilish Mijozning Mikroqarzning individual shartlarida qayd etilgan Mikroqarzni olishga roziligining tasdiqlanishi hisoblanadi, shundan so’ng Mikroqarzning individual shartlari va Ommaviy oferta Bank va Mijoz o’rtasida kelishilgan hisoblanadi.

5.9. Mijozlarga Mikroqarz ajratishda:

1) birinchi bosqichda kredit byurosidan olingan kredit ma’lumotlari asosida Mijoz skoringi o’tkaziladi;

2) ikkinchi bosqichda, Mijozga kredit ajratish to’g’risida ijobiy qaror qabul qilingandan so’ng, kredit byurosiga uning qarz yuklamasini oshirish yoki muddati o’tgan qarzning paydo bo’lishi

to’g’risida takroriy so’rov yuboriladi;
3) uchinchi bosqichda, agar takroriy so’rov natijasida Mijozning qarz yuklamasi oshgan bo’lsa yoki muddati o’tgan qarz bo’lsa, Mijozga onlayn mikroqarz berishni rad etish to’g’risida bildirishnoma yuboriladi (bunda mijoz kredit summasi kamaytirilgan holda qayta murojaat qilish huquqiga ega).
5.10. Mikroqarz ajratish to’g’risida qaror qabul qilingan taqdirda, Bank bu haqda SMS-xabar va Push-xabarni mobil ilovada Mijozning Bank kartasiga bog’langan telefon raqamiga yuboradi.
5.11. Agar Mijoz Bankning mobil ilovasida ro’yxatdan o’tgan yangi foydalanuvchi bo’lsa yoki Mijoz boshqa mobil qurilmadan mavjud akkauntiga kirgan bo’lsa, birinchi onlayn mikroqarz taqdim etilganidan keyin 48 soat ichida qarz oluvchining hisobvarag’idagi mavjud mablag’lardan foydalangan holda quyidagi operatsiyalarni amalga oshirishda cheklov belgilanadi:
- P2P operatsiyalari;
- jismoniy shaxslarning hisobvaraqlari va elektron hamyonlariga o’tkazmalar;
- P2P o’tkazmalari orqali to’ldirish imkoniyatini taqdim etgan uyali aloqa operatorlari orqali telefon raqamini to’ldirish;
-xorijiy to’lovlar yoki pul o’tkazmalari va onlayn valyuta ayirboshlash operatsiyalaridan foydalanish.
Shu bilan birga, bank cheklovlar o’rnatilganligi to’g’risida xabarlar yuboradi va ushbu cheklovlarni olib tashlash uchun siz SMS-xabarda yoki mobil ilovada PUSH-xabarda ko’rsatilgan telefon raqamiga qo’ng’iroq qilib qo’shimcha tasdiqdan o’tish kerak bo’ladi. Pul mablag’lari cheklovlari Mijoz qo’shimcha tasdiq olish uchun Bankka qo’ng’iroq qilgandan so’ng va Bank Mijozga qayta qo’ng’iroq qilib, , onlayn Mikroqarz tashqi zararli omillar ta’sirisiz olinganligi to’g’risida tasdiq olgandan so’ng, Bank tomonidan olib tashlanadi
5.12. Agar mobil ilovada cheklovlar to’g’risida SMS-xabar yoki PUSH xabarnomasi yuborilganidan keyin 48 soat ichida onlayn Mikroqarz olish uchun ariza Mijoz tomonidan zararli tashqi omillar ta’sirida topshirilganligi aniqlansa yoki tasdiqlash jarayoni amalga oshirilmagan va ajratilgan Mikroqarz sarflanmagan bo’lsa, Bank shartnomani bir tomonlama bekor qiladi va pulni akseptsiz qaytaradi. Shu bilan birga, Bank Mijozga bekor qilish to’g’risida xabarnomani akseptsiz tartibda yuboradi.
5.13. Bankning Mikroqarzni taqdim qilish bo’yicha majburiyati Mikroqarz taqdim qilingan sanadan e’tiboran bajarilgan hisoblanadi.
5.14. Taqdim qilingan Mikroqarz summasi, muddati, foiz stavkasi, Mikroqarzni so’ndirish jadvali Mikroqarzning individual shartlarida belgilanadi.
5.15. To’lov sanasi bank ishlamaydigan kuniga to’g’ri kelgan holatda, navbatdagi eng yaqin bank ish kuni To’lov sanasi kuni hisoblanadi. Bunda, to’lov summasi o’zgaradi (dam olish/bayram kunlari uchun foizlar to’lov summasiga qo’shiladi va kelgusi to’lovdan istisno qiladi).
5.16. Mikroqarz bo’yicha asosiy qarzning so’ndirilishi (qaytarilishi) Mijoz tomonidan Mikroqarzning individual shartlariga asosan Mikroqarz valyutasida amalga oshiriladi.
5.17. Mijoz onlayn olingan mikroqarzni va uning bo’yicha hisoblab yozilgan foizlarni MBX tizimida belgilangan onlayn Mikroqarz to’lovlari jadvalida qayd etilgan muddatlarga asosan so’ndirish majburiyatini oladi.
5.18. Mijozning Mikroqarzni so’ndirish uchun tushadigan mablag’lari Mikroqarz bo’yicha asosiy qarzni va hisoblab yozilgan foizlar, neustoyka, komissiyalar va h.k. bo’yicha qarzlarni so’ndirishga yo’naltiriladi. Bank foydasiga tushgan, Mijoz majburiyatlari ijrosi uchun yetarli bo’lmagan to’lov ushbu to’lov sanasida Mijozning mazkur Ommaviy oferta bo’yicha Bank oldidagi majburiyatlari to’lovi uchun quyidagi ketma-ketlikda yo’naltiriladi:
1) asosiy qarz bo’yicha mutanosib ravishda kechiktirilgan qarzdorlik va kechiktirilgan foizlar to’lovlari;
2) joriy davr uchun hisoblangan foizlar va joriy davr uchun asosiy qarz bo’yicha qarzdorlik;
3) neustoyka (jarima, penya);
4) qarzdorlikni to’lash bilan bog’liq boshqa kreditor xarajatlari
5.19. Shartnoma bo’yicha qarzning qisman muddatdan oldin so’ndirilishi Mikroqarzning

individual shartlari bo’yicha Qarz oluvchining to’lovlar miqdorini va davriyligini (muddatlarini) belgilash tartibi o’zgarishiga olib kelmaydi.
5.20. Shartnoma bo’yicha qarz qisman muddatdan oldin so’ndirilgan holatda, asosiy qarzning qoldiq summasi qisman muddatdan oldin so’ndirilgan summa chegirib olingan holda kamaytiriladi, bunda Har oylik to’lov asosiy qarz bo’yicha qisman so’ndirilgan summaga kamaytiriladi, foizlar asosiy qarzning haqiqiy qoldig’iga hisoblab yoziladi, Kredit taqdim qilingan muddat esa o’zgarmaydi.
5.21. Muddatli qarz (so’ndirish sanasi boshlanmagan qarz/Mikroqarzning muddatdan oldin so’ndirilishi) Qarz oluvchi ko’rsatmalariga asosan so’ndiriladi.
5.22. Asosiy qarzning so’ndirilishi mazkur Shartnoma bo’yicha taqdim qilingan Mikroqarz hisobi yuritiladigan qarz hisobvarag’iga amalga oshiriladi, hisoblab yozilgan foizlar esa Mikroqarz bo’yicha hisoblab yozilgan foizlar hisobvarag’iga amalga oshiriladi. Qayd etilgan hisobvaraqlarga mablag’lar tushgan kun asosiy qarz va uning bo’yicha hisoblab yozilgan foizlarni so’ndirish sanasi hisoblanadi.
5.23. Mikroqarz bo’yicha asosiy qarz, foizlar va/yoki boshqa to’lovlarning so’ndirilishi Bank tomonidan Mijoz arizasi, Bank farmoyishi ijrosi orqali va/yoki Bank tomonidan mustaqil ravishda Mijozning talab qilib olguncha saqlanadigan depozit hisobvarag’idan mablag’larning memorial orderlar bilan akseptsiz chegirib olinishi orqali yoxud Bank tomonidan Qarz oluvchining barcha hisobvaraqlaridan tegishli summa chegirib olinishi orqali amalga oshiriladi.
5.24. Mazkur Ommaviy oferta bo’yicha Mikroqarz, foizlar va boshqa to’lovlar to’lanishi Mijoz tomonidan Bank hamkorlari to’lov terminallaridan yoki bankning MBX tizimidan foydalanib O’zbekiston Respublikasining boshqa banklaridan pul mablag’larini o’tkazish orqali o’zining talab qilib olguncha saqlanadigan depozit hisobvarag’ini/Mikroqarzni so’ndirish uchun maxsus/jamg’arma hisobvarag’ini/kartochka hisobvarag’ini (so’mdagi kartochka hisobvarag’ini) to’ldirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Mikroqarz bo’yicha to’lovni amalga oshirish uchun Mijoz yoki uning vakolatli shaxsi mobil ilovada yoki Bank hamkorlari to’lov terminallarida rekvizitlarni to’ldirishda tegishli maydonga Mikroqarzni rasmiylashtirishda beriladigan «ID kredit kodi»ni kiritishi kerak. Qarz oluvchi «ID kredit kodi»ni Tenge24 mobil ilovasi yoki MBX orqali bilib olishi mumkin.
5.25. MBX tizimida onlayn Mikroqarz bo’yicha qarzni jadvalga asosan yoki muddatidan oldin so’ndirish imkoniyati taqdim qilinadi. Mijoz tomonidan MBX tizimi interfeysida “Jadvalga asosan so’ndirish” opsiyasi tanlangan holatda, pul mablag’lari jamg’arma hisobvarag’iga o’tkaziladi va jamg’arma hisobvarag’idagi mavjud summa doirasida, to’lov muddati kelishiga qarab, to’lanadigan summada onlayn Mikroqarzni so’ndirishga yo’naltiriladi. Bunda, jadvalga asosan so’ndirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi: - asosiy qarz uchun hisoblab yozilgan foizlar; - asosiy qarz summasi. “Muddatdan oldin so’ndirish” opsiyasi tanlangan holatda, pul mablag’lari, birinchi navbatda, to’lov muddati kelgan haqiqiy hisoblab yozilgan foizlarga yo’naltiriladi, to’lovning qolgan qismi esa onlayn Mikroqarz bo’yicha asosiy qarzni so’ndirishga yo’naltiriladi. “Muddatdan oldin so’ndirish” opsiyasidan Mijozda onlayn Mikroqarz bo’yicha to’lov muddati kechiktirilgan qarz bo’lmagan holatda foydalanish mumkin. MBX orqali onlayn Mikroqarzni so’ndirishda hisoblab yozilgan foizlar jadvalga asosan to’lov muddati kelgan sanada so’ndiriladi.
5.26. Mijoz Bank tomonidan onlayn Mikroqarz bo’yicha to’lovlar Mijoz tomonidan dastlabki ariza berishda qayd etilgan bank kartalaridan, Mijozning mobil hamyonidan va Mijozning Bankda ochilgan har qanday hisobvaraqlaridan muqarrar ravishda chegirib olinishiga rozilik bildiradi.
5.27. Onlayn Mikroqarz bo’yicha to’lov muddati kechiktirilgan qarzning undiruvi Bank tomonidan foizlar va asosiy qarz bo’yicha to’lov muddati kechiktirilgan qarz summasining mobil hamyondan, bank kartalaridan va Bankda ochilgan har qanday hisobvaraqlardan quyidagi tartibda muqarrar ravishda chegirib olish orqali amalga oshiriladi:
1) asosiy qarz bo’yicha mutanosib ravishda kechiktirilgan qarzdorlik va kechiktirilgan foizlar to’lovlari;
2) joriy davr uchun hisoblangan foizlar va joriy davr uchun asosiy qarz bo’yicha qarzdorlik;
3) neustoyka (jarima, penya);
4) qarzdorlikni to’lash bilan bog’liq boshqa kreditor xarajatlari

## 6. MIKROQARZDAN FOYDALANILGANLIK UCHUN HAQ

6.1. Bank foizlarni Mikroqarzning individual shartlarida qayd etilgan yillik foiz stavkasi hisobkitobidan Mikroqarz bo'yicha asosiy qarzning haqiqiy qoldig'iga hisoblab yozadi.
6.2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalash stavkalari o'zgargan yoki kapital bozorida resurslar uchun to'lov oshgan/kamaygan holatda, Mikroqarzning individual shartlarida qayd etilgan Mikroqarzdan foydalanilganlik uchun hisoblab yoziladigan foizlar miqdori Taraflar tomonidan o'zaro kelishuvga asosan qayta ko'rib chiqilishi mumkin, bu MBX orqali yoki yozma shaklda oferta (qo'shimcha bitim) aksepti bilan tasdiqlanadi.
6.3. Mikroqarz bo'yicha asosiy qarz qoldig'iga foizlar yiliga 365 kun va har bir oydagi haqiqiy kunlar soni hisob-kitobida har kuni ish kuni oxirida hisoblab yoziladi. Foizlarni hisoblab yozish qarz hisobvarag'ida qarzdorlik yuzaga kelgan kunda amalga oshirilishi boshlanadi.
6.4. Mijoz Bankka Mikroqarzning individual shartlariga asosan Mikroqarzdan foydalanilganlik uchun hisoblab yozilgan foizlarni to'lov sanasida to'laydi.
6.5. Mikroqarzning to'liq qiymati O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga asosan hisoblab chiqiladi. Mikroqarzning to'liq qiymati tarkibi to'g'risida batafsil ma'lumotlar Mikroqarzning individual shartlarida keltiriladi.
6.6. Shartnoma shartlariga Mijoz tomonidan majburiyatlarning qisman yoki to'liq bajarilmasligi xavf-xatariga olib kelmaydigan (foiz stavkasi oshishi, shaxsiy ma'lumotlar bo'yicha o'zgartirishlar kiritish va h.k.), shuningdek Bank Mikroqarz bo'yicha asosiy qarzning qisman muddatdan oldin so'ndirilishi tufayli so'ndirish jadvaliga har oylik to'lov summasini qayta hisoblash yuzasidan o'zgartirishlar kiritishga haqli bo'ladigan o'zgartirishlar kiritilishi Shartnoma shartlariga o'zgartirishlar kiritilishi uchun bir martalik komissiya undiruvisiz amalga oshiriladi.
6.7. Shartnoma shartlariga ta'minot yuzasidan Qarz oluvchi tomonidan majburiyatlarning qisman yoki to'liq bajarilmasligi xavf-xatariga olib kelmaydigan (qo'shimcha ta'minot taqdim qilish, texpasport, kadastr hujjatlari almashtirilganida, garov predmeti joylashgan manzil o'zgarganida garov bo'yicha ma'lumotlar yuzasidan shaxsiy ma'lumotlarga doir o'zgartirishlar kiritish, sug'urta muddatini uzaytirish va h.k.) o'zgartirishlar kiritilishi Shartnoma shartlariga ta'minot yuzasidan o'zgartirishlar kiritilishi uchun bir martalik komissiya undiruvisiz amalga oshiriladi.

## 7. MIKROQARZNING QAYTARILISHINI TA'MINLASH

7.1. Mazkur Ommaviy oferta bo'yicha beriladigan Mikroqarz quyidagi turdagi ta'minotlardan biri bilan ta'minlanishi mumkin:
7.1.1. Mikroqarz so'ndirilmasligi xavf-xatarini sug'urtalash polisi. Bank Sug'urtalovchi bilan kreditlashning butun muddati uchun Mikroqarz so'ndirilmasligi xavf-xatarini sug'urtalash shartnomasini tuzadi (bundan buyon matnda – "ta'minot"). Mikroqarz so'ndirilmasligi xavfxatarini sug'urtalash polisining muayyan shartlari tegishli sug'urtalash shartnomasida (yoki sug'urtalash bo'yicha bitimda) Bankni qoniqtiradigan ravishda oldindan belgilab olinadi. Ta'minot Mikroqarz summasining 125 foizini qoplaydigan miqdorda, Bank bilan aloqador shaxslar uchun – Mikroqarz summasining 130 foizidan kam bo'lmagan miqdorda qabul qilinadi.
Mikroqarz so'ndirilmasligi xavf-xatarini sug'urtalash polisini rasmiylashtirish bilan bog'liq barcha xarajatlarni (sug'urta premiyasi), agar kredit mahsuloti shartlarida o'zgacha nazarda tutilmagan bo'lsa, Bank o'ziga qabul qiladi.
7.1.2. Mijoz/uchinchi shaxslarning alohida depozit hisobvarag'iga joylashtirilgan pul mablag'lari garovi. Ta'minot milliy valyutadagi pul mablag'lari garovga qo'yilgan holatda Mikroqarz summasining 100 foizini qoplaydigan miqdorda va chet el valyutasidagi pul mablag'lari garovga qo'yilgan holatda Mikroqarz limitining 110 foizidan kam bo'lmagan miqdorda qabul qilinadi. Ushbu talab Bank bilan aloqador shaxslar uchun ham joriy qilinadi.
7.1.3. Uchinchi shaxs kafilligi Mikroqarz summasining 125 foizini qoplaydigan miqdorda, Bank bilan aloqador shaxslar uchun – Mikroqarz summasining 130 foizidan kam bo'lmagan miqdorda qabul qilinadi.
7.1.4. O'zbekiston Respublikasi banklarida Mijozning hisobvaraqlariga va omonatlariga

tushadigan va/yoki joylashtiriladigan, shu jumladan ijaraga beriladigan mulk daromadlaridan, omonatlar bo'yicha foizlardan, oylik ish haqidan va boshqa daromadlardan Mikroqarz summasining 125 foizidan kam bo'lmagan qismini qoplaydigan miqdorda tushadigan pul mablag'larini talab qilish huquqi bilan ta'minlanishi mumkin.
7.1.5. Transport vositalari garovi bilan ta'minlanishi mumkin. Ushbu garovning muayyan shartlari notarial rasmiylashtirilgan garov shartnomasida belgilanadi. Qarz oluvchi "Garov predmeti"ni Bank tomonidan ma'qullangan sug'urta kompaniyasi orqali sug'urtalash va Mikroqarz shartnomasining butun amal qilish davri uchun sug'urtani ta'minlash majburiyatini oladi. Sug'urta hodisasi yuz bergan holatda Bank Naf oluvchi hisoblanadi. Tegishli ravishda rasmiylashtirilgan sug'urta shartnomasi, sug'urta polisi va Garov predmetining notarial rasmiylashtirilgan garov shartnomasi Qarz oluvchi tomonidan Bankka Mikroqarz beriladigan sanagacha taqdim qilinishi kerak.
7.2. Agar Mijoz Mikroqarzning individual shartlariga muvofiq asosiy qarzni, foizlarni va/yoki Mikroqarz bo'yicha boshqa to'lovlarni belgilangan muddatda so'ndirish bo'yicha biron-bir to'lovni amalga oshirish holatida bo'lmagan vaziyat va/yoki shartnoma bo'yicha boshqa majburiyatlar buzilishi yuzaga kelsa, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mazkur Ommaviy ofertaga asosan Bank undiruvni ta'minotga va/yoki u(lar)ning qismiga qaratish va/yoki Mijoz qarzlarini Sug'urtalovchidan undirish muqarrar va so'zsiz huquqini oladi va Mijoz Bankka ushbu huquqni taqdim qiladi.

## 8. SHAXSIY MA'LUMOTLARNI ISHLASH

8.1. Mijoz Shartnoma tuzish, shuningdek Bankka Kredit arizasini yuborish orqali Bankka Mijoz tomonidan taqdim qilingan qog'oz va/yoki elektron tashuvchilardagi shaxsiy ma'lumotlarni ishlashni to'plash, yozib olish, tizimlashtirish, jamlash, saqlash, aniqlik kiritish (yangilash, o'zgartirish), chiqarib olish, foydalanish, uzatish (uchinchi shaxslarga shaxsiy ma'lumotlardan foydalanish, shu jumladan, ishlash huquqini taqdim qilish) avtomatlashtirish vositalaridan foydalanilgan holda va/yoki foydalanilmagan holda amalga oshirish, Mijozning shaxsiy ma'lumotlarini egasiz qilish, blokirovka qilish, olib tashlash, yo'q qilish huquqini beradi (Universal shartnomaning 9-ilovasiga muvofiq roziligini bildiradi).
8.2. Mazkur Shartnoma maqsadlari uchun Mijozning shaxsiy ma'lumotlari deyilganida Mijoz yoki uning roziligi bilan uchinchi shaxs tomonidan har qanday ehtimoliy usulda Bankka bevosita yoki bilvosita muayyan yoki uning yordamida aniqlanadigan Mijozga tegishli axborot, shu jumladan quyidagi ma'lumotlarning taqdim qilinishi tushuniladi: familiyasi, ismi, otasining ismi; tug'ilgan kun, oy va yil; jinsi; aloqa bog'lash uchun ma'lumotlar (telefon raqamlari, elektron pochta manzillari); shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar; turar joy va/yoki joylashgan manzil to'g'risida ma'lumotlar, ma'lumoti, oilaviy ahvoli, farzandlari, bandligi va faoliyat sohasi to'g'risida ma'lumotlar, ish beruvchi to'g'risida ma'lumotlar, o'rtacha oylik daromadi va har oylik xarajatlari va h.k. to'g'risida ma'lumotlar.
8.3. Yuqorida qayd etilgan Mijozning shaxsiy ma'lumotlarini quyidagi maqsadlarda ishlash:
Bank tomonidan Mijoz bilan Shartnoma tuzish imkoniyatini ko'rib chiqish, Bank tomonidan qabul qilinishi mumkin bo'lgan xulosa masalasi bo'yicha ijobiy yoki salbiy qaror qabul qilish, shu jumladan Mijozning shaxsiy ma'lumotlarini faqat avtomatlashtirilgan ravishda ishlash orqali; Mijoz tomonidan qayd etilgan ma'lumotlar to'g'riligini tekshirish; Shartnomani bajarish va bekor qilish; Shartnoma bo'yicha qarzlarni talab qilib olish (so'ndirish, undirib olish); Mijozning to'lov qobiliyatini baholash; uning ish joyini, amalda turar joy manzilini, telefon raqamlarini va Mijozdan olingan boshqa ma'lumotlarni tekshirish; Mijozning Bank mahsulotlariga qiziqishini aniqlash; Mijozni marketing segmentlariga kiritish; Mijozga Bankning boshqa xizmatlari va mahsulotlarini taklif qilish va ko'rsatish (taqdim qilish) (shu jumladan, Bank tomonidan taqdim qilinadigan boshqa xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq boshqa shartnomalar tuzish imkoniyatlarini ko'rib chiqish).
8.4. Mijoz Shartnoma tuzish orqali Bankdan maxsus shartlarda bank mahsulotlari shaxsiy takliflarini olish maqsadida Bankka istalgan vaqtda kreditlar tarixi byurosidan uning kredit tarixi to'g'risida ma'lumotlarni talab qilib olishni topshiradi.

## 9. TARAFLARNING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

Mijoz quyidagilarga haqli:
9.1. Mikroqarzni istalgan vaqtda, jarima sanksiyalari undiruvisiz mazkur Shartnomada belgilangan muddatdan oldin so'ndirish.
9.2. Mazkur Shartnoma tuzilganidan so'ng pul mablag'lari olingungacha davrda Mikroqarz olishni bepul asosda rad qilish.
9.3. Kredit ajratish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida SMS-xabar va mobil ilovaga PUSH-xabar yuborilgunga qadar mobil ilova orqali Mikroqarz olish uchun arizani bekor qilish
**2.3.** Bank (to'lov) kartasidan foydalangan holda O'tkazmani amalga oshirish to'g'risidagi farmoyishni shakllantirish va yo'naltirishda To'lovchi bank (to'lov) kartalaridan foydalangan holda hisob-kitoblarni amalga oshirish bo'yicha Bank talablarini, shuningdek To'lov tizimlarining qoidalari va talablarini to'liq hajmda bajarishga majburdir.

**2.4.** To'lovchi ushbu Oferta shartlarida Shartnoma tuzgan va Bankka O'tkazmani amalga oshirish to'g'risida farmoyishni (ushbu Ofertaning 2.2-bandi) bergan paytdan boshlab Bank Mijozga Jo'natuvchiga Xizmat ko'rsatish majburiyatini oladi.

**2.5.** Shartnoma tuzilgan paytdan boshlab To'lovchida kelib chiqadigan talab qilish huquqlari To'lovchi tomonidan uchinchi shaxslarga berilishi mumkin emas;

**2.6.** O'tkazmani amalga oshirish to'g'risidagi Farmoyish asosida To'lovchi Bankka O'tkazmani amalga oshirish maqsadida To'lovchi kartasidan pul mablag'larini hisobdan chiqarish to'g'risida farmoyish beradi:

- Jo'natuvchisining HUMO, UZCARD va Mastercard bank kartalaridan pul mablag'lari milliy valyutada – O'zbek so'mida hisobdan chiqariladi, Oluvchi o'z bank kartalariga so`mni xorijiy valyutaga konvertatsiya qilish yo`li bilan “Qozog'iston tengesi” valyutasida mablag'ni qabul qiladi. Chiquvchi transchegaraviy o'tkazmalar bo'yicha operatsiyani amalga oshirish paytida valyutalar kursi Bank tomonidan belgilanadi.

**2.7.** To'lovchi/oluvchi O'tkazmani amalga oshirish to'g'risidagi Farmoyishda ko'rsatilgan axborotning to'g'riligi uchun javobgar bo'ladi va Bank tomonidan Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganligi sababli, agar O'tkazmani amalga oshirish to'g'risidagi tegishli Farmoyishda xato ma'lumotlar ko'rsatilgan bo'lsa, Bankka hech qanday da'vo qo'yishga haqli emas;

**2.8.** Bank O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida, O'zR MBining normativ hujjatlarida, To'lov tizimlari qoidalarida va ushbu Ofertada belgilangan tartibda, muddatlarda va shartlarda O'tkazmani amalga oshiradi;

**2.9.** To'lovchi tegishli Farmoyishni taqdim etgan paytdan boshlab 3 (uch) ish kunidan kechiktirmay Bank O'tkazmani amalga oshiradi;

**2.10.** Farmoyish Bank tomonidan Oluvchiga o'tkazilishi kerak bo'lgan va Farmoyishda ko'rsatilgan O'tkazma summasi miqdorida amalga oshiriladi. Bunday holda, O'tkazma summasi ushbu Ofertaning 1-ilovasida Bank tomonidan belgilangan cheklovlardan oshmasligi kerak.

**2.11.** O'tkazmani amalga oshirish Bank tomonidan ushbu Ofertada belgilangan tartibda tasdiqlanadi.

**2.12.** Bankning To'lovchi oldidagi majburiyatlari O`tkazma summasidagi pul mablag'lari Oluvchining Karta Emitentining hisobvarag`iga/oluvchining xizmat ko'rsatuvchi bankining hisobvaragiga ushbu Ofertaning 2.1.-bandiga muvofiq To'lovchi/oluvchi tomonidan taqdim etilgan rekvizitlarga muvofiq o'tkazilgan paytdan boshlab to`liq hajmda bajarilgan hisoblanadi;

**2.13.** Agar O'tkazma Oluvchi tomonidan noto'g'ri deb, qaytarilgan bo'lsa, Bank O'tkazmani amalga oshirish maqsadida pul mablag'larini hisobdan chiqarish amalga oshirilgan To'lovchi kartasining rekvizitlari bo'yicha qaytarilgan pul mablag'larini kirim qilish yo`li bilan To'lovchiga pul mablag'larini qaytaradi;

**2.14.** O'tkazmani amalga oshirish maqsadida pul mablag'larini hisobdan chiqarish amalga oshirilgan To'lovchi kartasining rekvizitlari bo'yicha bunday pul mablag'larini o`tkazishning iloji bo'lmagan taqdirda va ushbu Ofertaning 4.4-bandida belgilangan tartibda O'tkazmani amalga oshirish mumkin emasligi to'g'risida xabar olganidan keyin pul mablag'larini qaytarib berishni ta'minlash bo'yicha To'lovchi tomonidan harakatlar bo'lmagan taqdirda, To'lovchining pul mablag'lari To'lovchi tomonidan ko'rsatilgan rekvizitlar bo'yicha To'lovchi tomonidan pul mablag'larini qaytarish to'g'risidagi

arizasi olingan paytgacha Bank tomonidan ushlab qolinadi;

**2.15.** To'lovchining Farmoyishini ijro uchun qabul qilinganda, Bank To'lovchining kartasini tasarruf etishda To'lovchining huquqini tasdiqlash va To'lovchining kartasidagi pul mablag'larining yetarliligini nazorat qilish, shuningdek Oluvchining Kartasi/oluvchining hisobvarag'i/oluvchining rekvizitlari bo'yicha O'tkazma operatsiyasini Avtorizatsiya qilishga qaratilgan harakatlarni amalga oshiradi;

**2.16.** Bank To'lovchining Kartasi Emitent-Banki va Oluvchining Kartasi Emitent-Banki tomonidan O'tkazmani Avtorizatsiya qilish sharti bilan O'tkazma bo`yicha Farmoyishni bajaradi. To'lovchining Kartasi Emitentdan va/yoki oluvchining Kartasi Emitentidan va/yoki To'lov tizimlaridan O'tkazmani amalga oshirishga ruxsat berishni rad etgan taqdirda, Bank darhol To'lovchiga O'tkazmani amalga oshirishning iloji yo'qligi to'g'risida xabar beradi;

**2.17.** O'tkazma parametrlari bank faoliyatida foydalaniladigan ishbilarmonlik aylanmasi odatlari, qoidalari va standartlariga mos bo`lgan taqdirda, Bank oluvchining hisobvarag'iga/Oluvchining rekvizitlari bo'yicha o'tkazma to'g'risidagi Farmoyishni bajaradi

**2.18.** Mijoz to'lovchining Kartasi va/yoki oluvchining kartasi/qabul qiluvchining rekvizitlari va O'tkazma parametrlarining maxfiyligi uchun shaxsan javobgarlikni olib boradi. Bank tomonidan bunday ma'lumotlar oshkor etilganligi isbotlangan fakti bo'lmagan taqdirda, O'tkazma parametrlari oshkor qilingan taqdirda Bank javobgar bo'lmaydi.

**Bank To'lovchiga quyidagi hollarda xizmat ko'rsatishni rad etishga haqlidir:**

**2.19.** Bankning muayyan Xizmatni ko'rsatish uchun texnik imkoniyati yo'qligi (aniq O'tkazmani amalga oshirish);

**2.20.** To'lovchining Kartasi Emitentidan va/yoki Oluvchining Kartasi Emitentidan va/yoki ularga xizmat ko'rsatuvchi To'lov tizimlaridan va/yoki Xizmat ko'rsatuvchi bankdan operatsiyani amalga oshirish uchun Bankning ruxsatnomasi yo'qligi;

**2.21.** Shartnomada va/yoki To'lovchi va to'lovchi Kartasi Emitenti o'rtasidagi Shartnomada (kelishuvda) va/yoki To'lov tizimlari qoidalarida va/yoki O'zRning amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan operatsiyani amalga oshirishga to'g'ridan-to'g'ri taqiq mavjudligi;

**2.22.** O'tkazmalarni amalga oshirish uchun so`ralgan Summaning Bank tomonidan belgilangan O'tkazma limitlaridan oshib ketishi (ushbu Ofertaning 1-ilovasi);

**2.23.** To'lovchining O`zRning amaldagi qonunchiligiga, shuningdek O`zR MBining normativ hujjatlariga muvofiq o'ziga xos bo'lmagan operatsiyalar belgilarini o'z ichiga olgan operatsiyalarini aniqlash yoki Bank uchun obro'-e'tibor tavakkalchiligiga ga ega bo'lgan operatsiyalarni, shuningdek, agar Bankda operatsiya O'zR qonunchilik talablari, To'lov tizimlari qoidalari buzilgan holda amalga oshirilayotganligi to'g'risida shubha vujudga kelgan yoki firibgarlik xususiyatiga ega bo'lgan operatsiyalarini aniqlash.

## 3. Tomonlarning huquqlari va majburiyatlari

**To'lovchining huquqlari va majburiyatlari:**

**3.1.** Ushbu Oferta shartlarini qabul qilish va Shartnoma tuzish maqsadida To'lovchi ushbu Ofertaning 6.2-bandida belgilangan konkludent harakatlar orqali shartnoma tuzishga haqlidir.

**3.2.** To'lovchi tasdiqlash kodini kiritish orqali O`tkasma parametrlarini tasdiqlagunga qadar istalgan vaqtda Xizmatni olishdan bosh tortishga haqlidir (ushbu Ofertaning 2.2-bandi). Tasdiqlash kodi kiritganidan so'ng, To'lovchining Xizmatni olishdan bosh tortishiga yo'l qo'yilmaydi.

**3.3.** To'lovchi ushbu Oferta shartlarida Shartnoma tuzish munosabati bilan vujudga kelgan Bankka qo'yiladigan talab qilish huquqlarini uchinchi shaxsga topshirishga haqli emas.

**3.4.** To'lovchi ushbu Ofertaning shartlari, shuningdek ushbu Ofertaning “Shartnomani tuzish, o'zgartirish va bekor qilish tartibi”ning 6-moddasida belgilangan tartibda Bank tomonidan kiritiladigan Shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar bilan o'z vaqtida va to'liq tanishishi shart;

**3.5.** Ushbu Oferta shartlari asosida Shartnoma tuzish orqali To'lovchi Shartnomani tuzishda kelib chiqqan holatlarning sezilarli o'zgarishi bilan bog'liq barcha tavakkalchiliklarni o'z zimmasiga oladi va bunday holatlar Shartnomani o'zgartirish va/yoki bekor qilish va/yoki To'lovchi tomonidan Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaslik uchun asos bo'lishi mumkin emas;

**3.6.** To'lovchi O'tkazma parametrlarining ishonchliligi uchun shaxsan javobgar bo`ladi

(To'lovchi Kartasining rekvizitlari, Oluvchining/Oluvchining Kartasi/Oluvchining hisobvarag'i rekvizitlari, O'tkazma valyutasidagi o'tkazma summasi, O'tkazmani amalga oshirish uchun asos bo'ladigan elektron to'lov farmoyishini tuzish uchun talab qilinadigan boshqa parametrlar va boshqalar). Belgilangan axborotlar ishonchli bo`lmagan holda, Bank To'lovchi tomonidan o'tkazmani Oluvchi oldidagi majburiyatlarining lozim darajada bajarilmaganligi (shu jumladan o'z vaqtida bajarilmaganligi) uchun javobgar bo'lmaydi.

## 4. Bankning huquq va majburiyatlari:

**4.1.** To'lovchi ushbu Ofertaning 2.1 va 2.2-bandida nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirgan paytdan boshlab Bank Shartnoma doirasida xizmat ko'rsatish majburiyatlarini o'z zimmasiga olishi shart.

**4.2.** Bank O'tkazmani To'lovchining Farmoyishiga muvofiq (ushbu Ofertaning 2.2.-bandi), To'lovchining O'tkazishni amalga oshirish to'g'risidagi Farmoyishi berilgan paytdan boshlab 3 (uch) ish kunidan kechiktirmay amalga oshirishi shart, quyidagi shartga ko`ra, agar:

- Farmoyish O`tkazmani amalga oshirish uchun zarur bo'lgan barcha rekvizitlarni o'z ichiga olsa;
- O'tkazma summasi ushbu Ofertaning 1-ilovasida Bank tomonidan belgilangan O'tkazma summasi bo'yicha cheklovlardan oshmasa;
- Bank to'lovchining Kartasi Emitentidan va oluvchining Kartasi Emitentidan va/yoki ularga xizmat ko'rsatuvchi To'lov tizimlaridan va/yoki ularga Xizmat ko'rsatuvchi bankdan O'tkazma operatsiyasini o`tkazishga ruxsat olgan bo`lsa.

**4.3.** Ushbu Ofertaning 3.4., 3.6-bandida belgilangan shartlardan biriga rioya qilinmagan taqdirda, Bank To'lovchiga O'tkazishni amalga oshirish to'g'risidagi Farmoyishni ijro etishni rad etishga haqli.

**4.4.** Bankka bog`liq bo`lmagan sabablarga ko'ra, shu jumladan To'lovchi noto'g'ri ma'lumot taqdim etgan taqdirda (ushbu Ofertaning 3.6.-bandi), o'tkazmani Oluvchi foydasiga O'tkazmani amalga oshirishning iloji bo'lmagan taqdirda, Bank To'lovchini abonent raqamiga tegishli bildirishnomani yuborish va/yoki uni Servisdagi To'lovchining shaxsiy kabinetiga joylashtirish yo'li bilan xabardor qiladi.

**4.5.** O'tkazmani amalga oshirishda Bank O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga, O'zbekiston bankining normativ hujjatlariga, To'lov tizimlari Qoidalariga va ushbu Oferta shartlariga amal qilishi shart.

Bank ushbu Ofertaning 6-moddasi “Shartnomani tuzish, o'zgartirish va bekor qilish tartibi”da belgilangan tartibda ushbu Ofertaga 'zgartirish va qo'shimchalar kiritishga haqli;

**4.6.** Bank Shartnomani bajarish jarayonida Bank tomonidan To'lovchidan olingan har qanday axborotlarning maxfiyligini ta'minlashi shart.

## 5. Tomonlarning javobgarligi

**5.1.** Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan va/yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, Tomonlar ushbu Oferta shartlariga va O`zRning amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladilar.

**5.2.** Agar bunday bajarilmaganlik va/yoki lozim darajada bajarilmaslik To'lovchining va/yoki boshqa hisob-kitob ishtirokchilarining aybi bilan sodir bo'lgan bo'lsa, shuningdek, bunday lozim darajada bajarilmaslik To'lovchining O'tkazmani amalga oshirish to'g'risidagi Farmoyishida noto'g'ri ma'lumotlarni ko'rsatishi bilan bog'liq bo'lsa, Bank Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganlik va/yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgar bo'lmaydi.

**5.3.** To'lovchi ushbu Oferta shartlari va/yoki ushbu Ofertaning 6-moddasi “Shartnomani tuzish, o'zgartirish va bekor qilish tartibi”da nazarda tutilgan tartibda Bank tomonidan Shartnomaga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar bilan tanishmaganligi va/yoki o'z vaqtida tanishmaganligi sababli To'lovchida yuzaga kelgan har qanday zarar uchun Bank javobgar bo'lmaydi.

**5.4.** To'lovchi, shuningdek, ushbu bandda nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirish maqsadida, Bank va uchinchi shaxslar o'rtasida bunday uchinchi shaxslarning shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va ishlov berish sohasidagi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga rioya etilishi to'g'risidagi majburiyatini nazarda tutuvchi shartnoma mavjud bo'lgan taqdirda,

Bank tomonidan uning shaxsga doir ma'lumotlarini uchinchi shaxslarga berishga (shu jumladan transchegaraviy o'tkazishga) o'z roziligini beradi.

**5.5.** Ushbu Oferta shartlariga muvofiq To'lovchi O'tkazmaning, ya`ni To'lovchi tomonidan amalga oshirilishi uchun berilgan Farmoyish tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qismida O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga javob berishini kafolatlaydi.

**5.6.** O'tkazmani oluvchi, quyidagilar bilan bog'liq emas:

- qurol, o'qotar qurol va portlovchi moddalar va buyumlarni sotib olish; giyohvandlik, psixotrop, toksik, kaustik va radioaktiv moddalar; inson organlari va to'qimalari; alkogol va tamaki mahsulotlari; qimor o'yinlarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha xizmatlar; jinsiy xarakterdagi xizmatlar, shuningdek, umumiy qabul qilingan axloq va ma`naviy normalarga zid; raqamli valyutalarni sotib olish; O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq muomalasi taqiqlangan yoki cheklangan boshqa tovarlar;
- shaxsiy boyish maqsadida firibgarlik, poraxo'rlik, korruptsiya, nafrat, zo'ravonlik, irqiy yoki kamsituvchi murosasizlikning boshqa shakllarini targ'ib qilishni yoki moliyaviy huquqbuzarliklarni qo'llab-quvvatlash; piramida sxemalarini yoki boshqalarni noqonuniy faoliyat bilan shug'ullanishga undaydigan, rag'batlantiradigan, osonlashtiradigan yoki yo`riqnomalar berish predmeti bo`lgan boshqa tez boyib ketish sxemalarini qo'llab-quvvatlash;

**5.7.** To'lovchi foyda olish manfaatida yoki uchinchi shaxsning manfaatida va/yoki uchinchi shaxsning iltimosiga (topshirig'iga, farmoyishiga) binoan harakat qilmasligini, To'lovchi notanish shaxsga va/yoki kimligi aniqlanmagan shaxsga pul mablag`larini yubormasligini tasdiqlaydi;

**5.8.** Tekshiruv kodi uchinchi shaxslarga berilgan taqdirda, Mijozga tegishli bo`lgan va unga tegishli bo'lmagan qurilmalarda MBX servislariga kirishni amalga oshirish, axborotlarning maxfiyligi va yaxlitligini buzish, shuningdek uchinchi shaxslarning mumkin bo'lgan noqonuniy xatti-harakatlari bilan bog'liq tavakkalchiliklar uchun Mijoz (foydalanuvchi) to'liq javobgarlikni olib boradi.

## 6. Shartnomani tuzish, o'zgartirish va bekor qilish tartibi

**6.1.** To'lovchi tomonidan ushbu Ofertaning 2.1-bandida nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirishi To'lovchi tomonidan ushbu Ofertaning barcha shartlarini istisnosiz to'liq va so`zsiz qabul qilishi va To'lovchi va Bank o'rtasida ushbu Oferta shartlarida Shartnoma tuzishi hisoblanadi.

**6.2.** Shartnoma ushbu Oferta shartlarida (ushbu Ofertaning 6.1-bandi), To'lovchi tomonidan o'tkazmani amalga oshirish bo'yicha Farmoyishni shakllantirish va Bankka yo'naltirishga qaratilgan harakatlarni amalga oshirgan paytdan boshlab tuzilgan deb hisoblanadi. To'lovchi tomonidan Bankka tegishli Farmoyishni yuborilganligi faktini tasdiqlash, To'lovchi tomonidan O'tkazma parametrlarini tasdiqlash kodini kiritish hisoblanadi (ushbu Ofertaning 2.2-bandi).

**6.3.** To'lovchi ushbu Ofertaning 6.2-bandida ko'rsatilgan harakatlarni amalga oshirgan kundan boshlab Shartnoma kuchga kiradi va Tomonlar Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajargunlariga qadar amal qiladi. Bank istalgan vaqtda bir tomonlama tartibda, To'lovchiga qo'shimcha yozma xabar bermagan holda, Shartnomaga o'zgartirish yoki qo'shimchalar kiritishga, shu jumladan pul mablag'larini kiritish tartibi va shartlariga va O'tkazmasni amalga oshirish to'g'risidagi Farmoyishni topshirishga, shuningdek operatsiyalarni amalga oshirish tartibiga, operatsiyalar summasi va turlari bo`yicha cheklovlarga o'zgartirish yoki qo'shimchalar kiritishga haqli ekanligiga To'lovchi rozi bo'ladi. Shartnomaga ko'rsatilgan o'zgartirishlar yoki qo'shimchalar ushbu Ofertaning yangi tahriri Bankning WEB -saytida e'lon qilingan sanadan boshlab kuchga kiradi.

***Rezidentlar uchun*** ***(ming so'm)***

| P2P | **Mijozning maqomi** | **Bir martalik** | **Sutkalik** | **Oylik** |
|---|---|---|---|---|
| | | **Summa** | **Summa** | **Summa** |
| | Sariq | 40 000 | 70 000 | 164 000 |
| | Yashil | 40 000 | 70 000 | 164 000 |

***Rezidentlar uchun*** ***(ming so'm)***

| P2P | **Mijozning maqomi** | **Bir martalik** | **Sutkalik** | **Oylik** |
|---|---|---|---|---|
| | | **Summa** | **Summa** | **Summa** |
| | Sariq | 40 000 | 70 000 | 164 000 |
| | Yashil | 40 000 | 70 000 | 164 000 |

*Limitlar To'lovchi/jo'natuvchiga o'rnatiladi.*

Agar To'lovchining Kartasi va (yoki) Oluvchining Kartasi Emitenti tomonidan, Bank tomonidan belgilangan limitlarga nisbatan kamroq miqdorni tashkil etadigan limitlar o'rnatilgan bo'lsa, u holda O'tkazma summasi bunday Emitent tomonidan belgilangan cheklovlar summasidan oshmasligi kerak.

«Tenge Bank»da jismoniy shaxslarga
xizmat ko`rsatish bo`yicha Universal shartnomaga
**9-ILOVA**

## SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLARGA ISHLOV BERISH VA KREDIT HISOBOTINI OLISHGA YAGONA ROZILIK (keyingi o'rinlarda – "Rozilik")

Shu bilan, ushbu Rozilikni aktseptlagan holda, Men o'z manfaatimda erkin harakat qilaman va o'z irodamni ifoda etib, "Tenge Bank" ATBga taqdim etaman (keyingi o'rinlarda – "Bank") va Mijoz (vakili Mijoz bo'lgan shaxs) va Bank o'rtasida tuzilgan (tuzilishi mumkin bo'lgan) har qanday bitim/operatsiyalarni tuzish va/yoki bajarish va/yoki ularga texnik xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan va/yoki ular bilan bog'liq bo'lgan uchinchi shaxslarga, o`zining so'zsiz, aniq, xabardor va ongli roziligini va yig'ish, yozish, ishlov berish, tizimlashtirish, to'plash, saqlash, o'zgartirish, to'ldirish, aniqlashtirish (yangilash yoki o'zgartirish), olish, foydalanish, uzatish (berish, kirish), egasizlantirish, blokirovka qilish, olib tashlash huquqini, shaxsga doir ma'lumotlarni[1],yo'q qilish, mening barcha shaxsga doir ma'lumotlarimdan, shu jumladan davlat ma'lumotlar bazalaridan olingan fotografik tasvir va video tasvirlardan va Bank topshirig`i bo`yicha ish yuritayotgan uchinchi shaxs ixtiyorida bo'lgan boshqa shaxsga doir ma'lumotlar Bank tomonidan O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonunida nazarda tutilgan harakatlarni avtomatlashtirish vositalaridan foydalangan holda yoki foydalanmasdan foydalanish, bank xizmatlarini ko'rsatish uchun men bilan Shartnomalar tuzish va tuzilgan taqdirda ularni qo`llab-quvvatlash (ijro etish), mikroqarz/kredit berish to'g'risidagi shartnoma[2] (bundan buyon matnda "Shartnoma" deb yuritiladi) va "Tenge Bank" ATBning boshqa bank xizmatlarini olish, shuningdek Qarz oluvchiga Bankda mikroqarz/kredit olish uchun arizani ko'rib chiqish natijalari, Bank va uning sheriklarining boshqa mahsulotlari va xizmatlari to'g'risida tegishli ma'lumotlarni aloqa vositalaridan foydalangan holda (shu jumladan xabarlarni yuborish) Bankka taqdim etilgan aloqa axboroti bo`yicha yuborish orqali, shuningdek Bankning axborot ma`lumotlar bazalarini to'ldirish uchun xabardor qilish, hamda quyidagilarga rozilik beraman:

- BDMAB/SHJPH/DSQ tizimida va telefon aloqa mobil operatorlarida shaxsga doir ma'lumotlarni olish (shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda);
- Bank tomonidan xizmatlar ko'rsatish (operatsiyalarni o'tkazish, bitimlar tuzish, harakatlarni bajarish) bilan bog 'liq ma'lumotlarni olish: shartnomalar (bitimlar) matnlari, ularga qo'shimcha kelishuvlar, ariza va rozilik, yozishmalar, operatsiyalarni o'tkazish to'g'risidagi ko'rsatmalar (to'lov, kassa va boshqa hujjatlar), huquqni tasdiqlovchi hujjatlar, to'lov kartalari va bank hisobvaraqlari raqamlari va boshqalar;
- Bank tomonidan men haqimda mavjud bo'lgan kredit bo'yicha barcha axborotlar va ma'lumotlarni identifikatsiyalash uchun zarur bo'lgan hajmda, tartibda va shartlarda taqdim etish/olish, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining NIKI/KADR (kredit axborotining davlat reyestri)da, kredit byurolarida, garov reyestrida kreditga layoqatliligimni tegishli baholashni o'tkazish, shuningdek, o'zim haqimda kredit axborotlarini/kredit tarixini olish uchun boshqa davlat va nodavlat idoralar va tashkilotlarda;
- kredit byurosidan kredit hisobotini, shu jumladan kelajakda kelab tushadigan ma'lumotlarni berish;
- "Garov reestri" DUKga yozuvlarni kiritish/o'zgartirish/o'chirish (shu jumladan, taqiqni tekshirish, taqiqni qo`yish va uni olib tashlash);
- mulk (mulkiy holat) to'g'risida ma'lumot olish: majburiyatlar bo`yicha ta`minot hisoblangan Mijozning mol-mulki va/yoki uchinchi shaxslarning mol-mulki to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek Mijozning boshqa (har qanday) mol-mulki, bunday (har qanday) mol-mulkning har qanday formatdagi tasviri (fotosurati/videosi) va boshqalar, mol-mulkka bo`lgan yuklarning mavjudligi/yo'qligi to'g'risidagi ma'lumotlar (xatlanganligi); identifikatsiya ma'lumotlari, ro'yxatga olish, yuklarning mavjudligi (yo'qligi) to'g'risidagi ma'lumotlar; mol-mulkning umumiy xususiyatlari; qiymati; mol-mulkning manzili (joylashgan joyi), davlat ro'yxatidan o'tkazish ma'lumotlari va boshqa ma'lumotlar);
- men haqimda kredit axborotlarini olish uchun boshqa davlat va nodavlat idoralariga va tashkilotlariga axborot berish/olish;
- Mijozning to'lov qobiliyatini baholash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni olish: pensiya badallari, rasmiy, o'zini o'zi e'lon qilgan va boshqa daromadlar va xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlar va boshqalar; bank/shaxsiy/balans hisobvaraqlarining mavjudligi/yo'qligi to'g'risidagi ma'lumotlar (hisobvaraqlar raqamlari, maxsus karta hisobvaraqlari,

---

[1] *Saxsga doir ma`lumotlar – elektron, qog'oz va/yoki boshqa moddiy tashuvcida qayd etilgan Mijozga tegishli har qanday ma'lumot.*

[2] *Ushbu Rozilikdagi kredit deganda quyidagi kredit turlaridan biri tushuniladi:"Mikroqarz", "Onlayn mikroqarz ","Avtokredit " va boshqalar. Ushbu Rozilikni imzolagan potentsial Qarz oluvchi olishni istagan kredit mahsuloti turining o'ziga xos nomi Qarz oluvchi tomonidan imzolangan Individual kreditlash shartlarida ko'rsatiladi.*

turi, joylashtirish muddati, miqdori, omonat shartlari va boshqa ma'lumotlar); kreditlar (qarzlar), bank hisobvaraqlari (shu jumladan maxsus karta hisobvaraqlari), pul mablag'lari va qimmatli qog'ozlarning mavjudligi/yo'qligi to'g'risidagi ma'lumotlar, shu jumladan ishonchli boshqarish va ishonchli saqlash (shartnomalar ma'lumotlari, shu jumladan hisobvaraqlar raqamlari, maxsus karta hisobvaraqlari, bank kartalari raqamlari, bank kartalaridagi kod ma'lumotlari, kredit tarixi kodlari, sotib olingan ko'chmas mulk obyektlarining manzillari, kredit (qarz) summasi va valyutasi, kreditlash maqsadi, kreditlash shartlari, garov to'g'risidagi ma'lumotlar, hisobvaraqlar bo'yicha harakat qoldiqlari va summalari, bank kartalari turi, limitlar va boshqa ma'lumotlar), to'langan soliqlar va soliqlar bo'yicha qarzdorliklar miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar;

- «GENESIS INNOVATION» MChJdan/ga ma'lumot olish/uzatish;
- oilaviy/ijtimoiy holat haqida ma'lumot olish;
- Bankdan har qanday mahsulot va xizmatlarni olishda men ko'rsatgan aloqa ma'lumotlaridan foydalangan holda, majburiyatlarni bajarish muddati va/yoki kredit mahsulotlari bo'yicha muddati o'tgan qarzdorliklarning mavjudligi to'g'risida ma'lumot olish;
- xizmatlar ko'rsatishning tegishli sifati va uni yaxshilash, ko'rsatilayotgan xizmatlarni personallashtirish, shu jumladan masofadan turib xizmat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan axborotni olish;
- muddati o'tgan qarzdorligimni uchinchi shaxslar bilan qaytarishga qaratilgan o'zaro hamkorlikni amalga oshirish (shartnoma tuzilgan taqdirda qo`llaniladi);
- o`zaro aloqaning quyidagi usullaridan foydalanish: telefon muzokaralari, pochta jo'natmalari, SMS-xabarnomalar, matnli, ovozli va aloqa tarmoqlari orqali va "Internet" axborot-telekommunikatsiya tarmog'idan foydalangan holda uzatiladigan boshqa xabarlar.
- Bank tomonidan ro'yxatdan o'tgan joy, haqiqiy yashash joyi manzili va men taqdim etgan ish joyi manzili bo'yicha yozma ravishda so'rovlar va yo`llanmalar uchun;
- Bankning ma'lumotlar bazasi operatorlari, Bank kontragentlari, uchinchi shaxslar bilan o'zaro aloqasi uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga va Bankning ichki hujjatlariga muvofiq (shu jumladan, Mijozning yuridik shaxslar kapitalidagi ishtiroki to'g'risidagi ma'lumotlar – ishtirok etish ulushi, aksiyalar soni (ulushi); egallab turgan lavozimlari, shuningdek bunday ma'lumotlarning o'zgarishi va/yoki qo'shimchalari to'g'risidagi axborotlar; vakili Mijoz bo'lgan yuridik shaxslar ro'yxati) Bankka zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlarni, shu jumladan anketani to'ldirish, hujjatlar (mijoz/shaxsiy ish)ni shakllantirish uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlarni olish;
- yuqoridagi ma'lumotlarga o'zgartirish va (yoki) qo`shimchalar to'g'risida ma'lumot olish.

Bundan tashqari, shu bilan men quyidagilarga roziligimni beraman:

- Bank bilan tuzilgan shartnoma/kilishuv asosida xizmatlar ko'rsatishga vakolatli bo'lgan Bank va uning sherigi (bundan buyon matnda “sherik” deb yuritiladi) tomonidan Mijozning shaxsga doir, biometrik va/yoki boshqa ma'lumotlarini (bundan buyon matnda “ma'lumotlar” deb yuritiladi) to'plash, ishlov berish, shu jumladan kredit byurolariga ma'lumotlarni uzatish uchun;
- moliyaviy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxsga Mijozning ma'lumotlarini cheklovlarsiz Moliya institutlariga uzatish;
- moliyaviy xizmatlar ko'rsatish faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxs tomonidan Mijoz to'g'risidagi mavjud bo'lgan va kelajakda kelib tushadigan ma'lumotlarni moliyaviy institutlarga taqdim etish, shuningdek moliya institutlari tomonidan yuqorida ko'rsatilgan axborotlarni Bankka taqdim etish uchun;
- moliyaviy xizmatlar ko'rsatish faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxs tomonidan Mijoz to'g'risidagi mavjud bo'lgan va kelajakda kelib tushadigan axborotlarni Bankka taqdim etish uchun;
- moliya institutlari tomonidan yagona sug'urta ma'lumotlar bazasi Mijozi sifatida Mijoz to'g'risidagi axborotni yagona sug'urta ma'lumotlar bazasidan Bankka taqdim etish uchun;
- davlat va nodavlat ma'lumotlar bazalari, Mijoz to'g'risidagi axborotlarni Bankka, moliya institutlariga, ma'lumotlar bazasi operatorlariga, shuningdek moliya institutlari tomonidan - barcha davlat va nodavlat ma'lumotlar bazalaridan to'g'ridan-to'g'ri yoki uchinchi shaxslar orqali taqdim etish uchun;
- O'zbekiston Respublikasi Hukumatining yoki boshqa organning qaroriga ko'ra O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq davlat xizmatlari ko'rsatish faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxs tomonidan kredit byurolariga va Bankka kredit byurolari orqali Mijoz to'g'risida mavjud bo'lgan va kelajakda kelib tushadigan axborotlarni taqdim etish uchun.

Shu bilan men o'z roziligimni bildiraman va Bankka ro'yxati ushbu Rozilikning yuqoridagi bandlarida ko'rsatilgan ma'lumotlarni (shaxsga doir ma'lumotlarni), shu jumladan Bank bilan maxfiylik va axborotni oshkor qilmaslik to'g'risida kelishuv (shartnoma) tuzilgan uchinchi tomonga, ularga ishlov berish maqsadida, shu jumladan Bank topshirig'i bo'yicha faoliyat ko'rsatuvchi uchinchi tomon tarafidan bunday ishlov berish uchun to'liq yoki qisman taqdim etishga vakolat beraman, shu jumladan:

- Bank men bilan Shartnoma tuzish imkoniyatini ko'rib chiqayotganda, kreditga layoqatlilik, to'lov qobiliyati belgilarini baholash va Bankka bunday baholash natijalarini taqdim etish;
- men bilan kelgusida (telefon orqali (shahar/mobil), Bankka men tomondan taqdim etilgan ro'yxatdan o'tish/haqiqiy yashash manzili bo`yicha, Bank tomonidan mikroqarz/kredit olish uchun arizamni ko'rib chiqish natijalari to'g'risida axborot berish, men taqdim etgan axborotlarni (shu jumladan shaxsga doir ma'lumotlarni) aniqlik kiritish uchun;
- Bank dasturiy ta'minotini yaxshilashni tashkil etish;
- jismoniy shaxslarning hujjatlarini saqlash, mazkur hujjatlarning elektron nusxalarini yaratish va saqlash bo'yicha Bankka xizmatlar ko'rsatish;

- Qarz oluvchi bilan, har qanday uchinchi shaxslar bilan muddati o'tgan qarzdorlikni qaytarishga yo'naltirilgan o'zaro hamkorlikni amalga oshirish (Shartnoma tuzilgan taqdirda qo'llaniladi);

Men Bankka taqdim etadigan barcha ma'lumotlar to'liq va ishonchli ekanligini tasdiqlayman.

Men quyidagi harakatlarni amalga oshirmaslik majburiyatini olaman:

- har qanday usulda, www.tengebank.uz sayt orqali yoki Bankning boshqa resurslarini (bundan buyon matnda "Sayt" deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini buzgan holda joylashtirish, tarqatish, saqlash, yuklash va/yoki yo'q qilish;
- bila turib noto`g`ri axborotlarni joylashtirish, birovning shaxsga doir ma'lumotlari (uchinchi shaxslarning, shuningdek uydirma shaxslarning shaxsga doir ma'lumotlari) yordamida ro'yxatdan o'tish;
- menda foydalanish huquqi bo`lmagan ro'yxatdan o'tish manzili/ haqiqiy yashash manzili, telefon(lar)ning raqami(lar)i, elektron pochta manzili(lar)i to'g'risida bila turib noto`g`ri axborotlarni joylashtirish.
- Men Sayt va mobil ilovaning axborot xavfsizligini buzmaslikka, Bank tomonidan nazarda tutilgan ro'yxatdan o'tish tartib-taomillarini buzmaslik majburiyatini olaman.
- Bank, taqdim etilgan shaxsga doir ma'lumotlardan ruxsatsiz foydalanishning oldini olish uchun barcha mumkin bo'lgan sa'y-harakatlarni va qonunchilikda nazarda tutilgan choralarni ko'rayotgani to'g'risida menga xabar berildi. Dasturiy ta'minot, serverlar yoki kompyuter tarmoqlaridagi Bankning nazorati ostida bo'lmagan texnik nosozliklar tufayli yuzaga keladigan foydalanuvchilarning shaxsga doir ma'lumotlaridan maqsadsiz foydalanilganligi uchun Bank javobgar emasligi haqida Men xabardorman va bunga rozilik bildiraman.
- Bank tomonidan mening shaxsga doir ma'lumotlarimdan foydalanishni to'xtatishi uchun, Men yozma ravishda Rozilikni qaytarib olish uchun Bankka murojaat qilishim kerakligini tushunaman va roziman, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq nazarda tutilgan shaxsga doir ma'lumotlarni saqlanishi bundan mustasno
- Agar bir yil ichida kredit shartnomalari, qarz shartnomalari bo`yicha barcha mavjud majburiyatlarim bo'yicha, shu jumladan Bank krediti to'lovlari bo'yicha to'lovlarning umumiy miqdori mening yillik daromadimning 50 foizidan oshsa, men uchun mikroqarz/kredit berish shartnomasi bo'yicha majburiyatlarni bajarmaslik xavfi borligi to'g'risida va menga nisbatan Bank tomonidan jarima sanktsiyalari qo`llanilishi haqida Bank tomonidan xabardor qilinganimni tasdiqlayman.

1. Mijozning shaxsga doir ma'lumotlarini to'plash, ishlov berish va ulardan foydalanish (shu jumladan, Bank/operatorlarning massivlari va (yoki) ma'lumotlar bazalarida qog'ozda va (yoki) elektron formatda to'plash, ishlov berish va saqlash), shu jumladan quyidagi maqsadlar uchun amalga oshiriladi:

- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Bank tomonidan ko'rsatilishi mumkin bo'lgan bank va/yoki boshqa xizmatlarni olish uchun Mijozning arizasini (vakili Mijoz bo'lgan shaxsning arizasini) ko'rib chiqish uchun;
- tegishli shartnomalar (kelishuvlar) shartlarida Mijozga (vakili Mijoz bo'lgan shaxsga) Bank tomonidan ko`rsatiladigan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan bank va/yoki boshqa xizmatlarni Mijozga (vakili Mijoz bo'lgan shaxsga) ko`rsatish uchun, operatsiyalar/to'lovlarni bajarish, noto'g'ri o'tkazilgan summalarni qaytarish, summalarni qidirish, qarzdorliklarni bank kartalari hisobvaraqlaridan avtomatik ravishda hisobdan chiqarish shartlari asosida ko'rsatiladi va boshqalar;
- Bank bilan bitimlar tuzish imkoniyatini ko'rib chiqish, Bank tomonidan operatsiyalarni amalga oshirish, Mijoz tomonidan ko'rsatilgan harakatlarni (yo`riqnomalarni) Bank tomonidan bajarilishi uchun;
- pul o'tkazmalarini amalga oshirish uchun, Mijozning shaxsga doir ma'lumotlari Bank tomonidan Mijozning kontragentiga (vakili Mijoz bo'lgan shaxsning kontragentiga) va Mijoz (vakili Mijoz bo'lgan shaxsning kontragentiga) topshiriqlarining o`tkazmasi/marshrutlash/protsessingi o`tadigan barcha banklarga/protsessing tashkilotlariga/Xalqaro To'lov Tizimlariga (to'lov tizimlariga)/to'lov (mobil) xizmatlarini yetkazib beruvchilarga (Apple Pay, Samsung Pay, Garming Pay va boshqalar) taqdim etilishi mumkin.
- topshiriqlar, buyruqlar, farmoyishlar, buyurtmalar va boshqalar doirasida bitimlar/operatsiyalarni tuzish/amalga oshirish/bajarish uchun, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining uyushgan/uyushmagan qimmatli qog'ozlar bozorida, xalqaro uyushgan/uyushmagan xorijiy bozorda Mijozning shaxsga doir ma'lumotlari Bank tomonidan hisob/kliring tashkilotlariga, depozitariylarga, kastodianlarga, fond birjalariga, xalqaro hisob-kitob (to'lov) tizimlariga, Mijozning kontragentlariga (Mijoz vakili bo'lgan shaxsning kontragentlariga) va bitimlarni amalga oshirish/operatsiyalarni bajarish uchun topshiriq(lar) va/yoki buyruq(lar)ning o'tkazmasi/marshrutlashi/protsessingi o`tadigan barcha banklarga/protsessing tashkilotlariga taqdim etilishi mumkin;
- Bank/uchinchi shaxsni ichki nazorati va hisobga olish, shuningdek Mijoz (uning vakili Mijoz bo'lgan shaxs) va Bank tomonidan tegishli shartnomalar (kelishuvlar) bo'yicha o'z majburiyatlarining lozim darajada bajarilishini nazorat qilish va tasdiqlash uchun;
- Bank tomonidan (moliyaviy monitoring Mijozi sifatida)/mijozning uchinchi shaxsi tomonidan ishbilarmonlik munosabatlarini o'rnatishda va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq mijozning operatsiyalarini amalga oshirishda, valyuta nazorati funksiyalarini bajarishda lozim darajada tekshirish bo'yicha majburiyatni bajarish uchun;
- Bank tomonidan Mijozni identifikatsiya/autentifikatsiya/avtorizatsiya qilish bilan bog'liq tadbirlarni (majburiyatlarni) bajarish va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va tegishli shartnomalar shartlariga muvofiq ruxsatsiz operatsiyalar tavakkalchiligini minimallashtirish maqsadida Mijoz/Bank tomonidan taqdim etilgan/foydalanilgan ma'lumotlar/algoritmlar/kodlar/belgilar/identifikatorlar/raqamlar va boshqalarning (shu jumladan, Bankda mavjud bo'lgan va Bank foydalana oladigan boshqa manbalardan shaxsga doir ma'lumotlarni va boshqa axborotlarni olish/solishtirish orqali) ishonchliligini (to'g'riligini) tekshirish uchun;

- Bank tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan muddatlarda buxgalteriya hisobida foydalaniladigan dastlabki hujjatlarni saqlash va hisobga olish bo'yicha majburiyatni bajarish uchun;
- Bank tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, shuningdek O'zbekiston Respublikasining boshqa normativ-huquqiy hujjatlari tomonidan belgilangan hujjatlar, materiallar, dos`elarni saqlash bo'yicha majburiyatni bajarish uchun;
- Bank va Mijoz (vakili Mijoz bo'lgan shaxs) o'rtasida Mijozning va/yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq bunday huquqqa ega bo'lgan uchinchi shaxslarning so'rovi bo'yicha tegishli shartnomalar (kelishuvlar) bo'yicha operatsiyalar amalga oshirilishini tasdiqlash uchun;
- Bank huquqlarini sud va suddan tashqari himoya qilish uchun: (i) mavjud shartnomalar (kelishuvlar) bo'yicha majburiyatlar buzilgan taqdirda; (ii) nizoli vaziyatlar, shu jumladan uchinchi shaxslar bilan nizoli vaziyatlar yuzaga kelgan taqdirda;
- Bankning tegishli shartnomalariga (kelishuvlar) ko`ra majburiyatlar buzilgan taqdirda, mazkur shartnomalarga (kelishuvlar) muvofiq qarzdorliklarni undirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish topshirig`i berilgan agentliklar va/yoki boshqa ixtisoslashtirilgan shaxslar yoki Bank xodimlari/vakillari bilan ishlash shuningdek garov mol-mulkini sotish bilan bog' liq savdolarni o'tkazish maqsadlari uchun;
- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga rioya etgan holda ommaviy (oshkor qilingan) ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalarida joylashtirish uchun;
- har bir qarz oluvchiga doir tavakkalchilikning eng ko`p miqdorini hisoblash va prudentsial va boshqa normativlar va limitlarga rioya qilish va "shaffoflik"ni tekshirish uchun;
- Mijoz (vakili Mijoz bo'lgan shaxs) va Bank o'rtasida tuzilgan (tuzilishi mumkin bo'lgan) har qanday bitim/operatsiyalarni tuzish va/yoki bajarish va/yoki ularga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan va/yoki unga bog'liq bo'lishi mumkin bo`lgan Bankning uchinchi shaxslar (uchinchi shaxslarning Bank bilan, uchinchi shaxslarning bir-biri bilan o'zaro munosabati uchun) bilan o'zaro munosabati uchun;
- vakolatli organlarga/dan, auditorlik, baholash va boshqa vakolatli tashkilotlarga/dan, kredit byurolariga/dan, bank aksiyadorlariga/dan va/yoki affillangan shaxslariga/dan, ma'lumotlar bazasi operatorlariga/dan, Bank kontragentlariga/dan hisobot va/yoki axborotlarni Bank tomonidan taqdim etish/olish uchun;
- matematik, statistik va xulq-atvor modellarini, axborot tizimlarini, ma'lumotlar bazalarini (shu jumladan tahlil qilish, modellashtirish, prognozlash) ishlab chiqish, saqlash va qo'llash uchun;
- tavakkalchiliklarni va/yoki boshqa sug'urta turlarini sug'urtalashni amalga oshirish uchun, agar bunday sug'urtalash tegishli shartnomalar (kelishuvlar), Bank mahsulotlari shartlarida, «GENESIS INNOVATION» MChJga ma'lumot berish uchun nazarda tutilgan bo'lsa
- Bankning ichki hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda va cheklovlarni hisobga olgan holda, Bankning xavfsizlik rejimini ta'minlash uchun Bank yoki xizmatlarni yetkazib beruvchi uchinchi tomonlarining xonalariga/binolariga/ofislariga/axborot tizimlariga identifikatsiya qilish/autentifikatsiya qilish/avtorizatsiya qilish va ularga kirish huquqini berish maqsadida;
- axborot almashish, shu jumladan Mijozning (va/yoki uchinchi shaxslarning) murojaatlari, shikoyatlari, takliflari, tavsiyalari, da'volari, topshiriqlari va boshqalar bo'yicha hisobotlarni ko'rib chiqish va/yoki taqdim etish uchun, xat-xabarlarni (pochta xabarlarini) Mijozga (vakili Mijoz bo'lgan shaxsga) uzatish (qabul qilish) uchun kur`yer xizmatlari, kur`yer xizmati, ekspress pochta va boshqalar orqali yuborish (yetkazib berish)/qabul qilish uchun;
- Mijoz (vakili Mijoz bo'lgan shaxs) va Bank (shuningdek, Bank tomonidan bitim(lar) Sekyuritizatsiya tuzish va/yoki amalga oshirish maqsadida) o'rtasida tuzilgan tegishli shartnomalar (kelishuvlar) shartlarida talab qilish huqiqidan voz kechish nazarda tutilgan bo'lsa, Mijoz (vakili Mijoz bo'lgan shaxs) va Bank o'rtasida tuzilgan shartnomalar (bitimlar) bo'yicha talab qilish huquqlaridan Bank tomonidan voz kechishi uchun;
- marketing maqsadlarida, aksiyalarni o'tkazish, Mijozga har qanday axborot materiallarini, shu jumladan Bank mahsulotlari va/yoki xizmatlari to'g'risida, shuningdek telefon, faksimil aloqa, boshqa aloqa turlari orqali, shuningdek ochiq aloqa kanallari (shu jumladan SMS, e-mail, faks, ijtimoiy tarmoqlar, Push-bildirishnomalar va boshqalar) orqali boshqa xabarnomalarni taqdim etish (jo'natish) uchun;
- marketing va reklama aktsiyalarini ishlab chiqish, Mijozning (vakili Mijoz bo'lgan shaxsning) Bank bilan munosabatlari tarixini hisobga olgan holda keyingi bank xizmatlarini ko'rsatish, Bank yoki Bank sherigi tomonidan taqdim etiladigan servislarni personallashtirish uchun;
- Bank va boshqa xizmatlar doirasida Mijozga (vakili Mijoz bo'lgan shaxs) servis xizmatlarini ko'rsatuvchi uchinchi shaxslar bilan Bankning o'zaro hamkorligi uchun;
- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan (belgilanishi mumkin bo`lgan) yoki Mijoz va Bank o'rtasida tuziladigan shartnomalar hamda Mijoz tomonidan Bankka va/yoki Bank tomonidan Mijozga yuboriladigan boshqa hujjatlarda nazarda tutilgan boshqa maqsadlar uchun.

2. Ushbu bilan Men quyidagilarni tasdiqlayman:
   - Agar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida boshqa talablar belgilanmagan bo'lsa, Bank tomonidan Mijozning shaxsga doir ma'lumotlarini bank sirini tashkil etuvchi axborotni himoya qilish rejimiga o'xshash rejimda himoya qilish to'g'risida Bank tomonidan xabardor qilindim;
   - Shaxsga doir ma'lumotlarni to'plash va ishlov berisga ushbu yozma rozilik, agar bu O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid bo'lmasa yoki Bank oldida bajarilmagan majburiyat mavjud bo'lsa, qaytarib olinmaydi;
   - Qarzdorliklarni undirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunlarida taqiqlanmagan har qanday chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida Bank O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan hollarda Mijozning roziligisiz, shu jumladan boshqa banklarda va/yoki tashkilotlarda shaxsga doir ma'lumotlarni to'plash va ishlov berish huquqiga ega;

- Bank Mijozning shaxsga doir ma'lumotlarini Mijozdan va har qanday uchinchi shaxslardan to'plash (olish) va ishlov berish, shuningdek Mijozning shaxsga doir ma'lumotlarini uchinchi shaxslarga uzatish, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablari va xalqaro huquq talablarini (xalqaro shartnomalar talablari) hisobga olgan holda shaxsga doir ma'lumotlarni ommaviy manbalarda tarqatish huquqiga ega;
- agar Mijoz (uning vakili Mijoz bo'lgan shaxs) va Bank o'rtasida tuzilgan tegishli shartnoma(lar)da Mijozning shaxsga doir ma'lumotlarini Bank tomonidan ochiq aloqa kanallari orqali (shu jumladan transchegaraviy uzatishni) uzatish nazarda tutilsa/ nazarda tutilgan bo`lsa, Mijoz axborotni uchinchi shaxslar tomonidan ruxsatsiz olish xavfini tan oladi va bunday xavfni o'z zimmasiga oladi;
- ushbu rozilik Bankka, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda, Mijozning shaxsga doir ma'lumotlari bilan har qanday harakatni (operatsiyani) yoki bunday harakatlar (operatsiyalar) majmuini, shu jumladan avtomatlashtirish vositalaridan foydalangan holda yoki ulardan foydalanmasdan amalga oshiriladigan, shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda, to'plash, ishlov berish, yozib olish, nusxalash, zaxiralash, himoya qilish, skrining, tizimlashtirish, yig`ish, Bank ichida va tashqarisida saqlash (xavfsizlik va maxfiylik talablariga rioya qilgan holda), aniqlashtirish (o'zgartirish, yangilash), chiqarish, foydalanish, uzatish (tarqatish, kirish huquqini berish, shu jumladan Mijozning shaxsga doir ma'lumotlariga ishlov berish huquqi bilan uchinchi shaxslarga berish), egasizlantirish, blokirovka qilish, o`chirish, yo'q qilish, shu jumladan ushbu harakatlarni Bankning topshirig`iga ko`ra uchinchi shaxs tomonidan amalga oshirish huquqini beradi, agar bu O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga zid bo'lmasa;
- ushbu rozilik Bank tomonidan, shu jumladan Mijoz va/yoki vakili Mijoz bo'lgan yuridik shaxs tomonidan va/yoki Mijoz birinchi rahbar, bosh buxgalter aktsiyador/ishtirokchi va boshqalar bo'lgan yuridik shaxs tomonidan Bankda har qanday bank mahsuloti va/yoki boshqa xizmatlarni olishda, bunday yuridik shaxs (kontragent sifatida) Bank bilan bitimlar tuzganda ishlatilishi mumkin;
- Bank tomonidan uchinchi shaxslardan Bank tomonidan qabul qilinganligi va/yoki Mijozning shaxsga doir ma'lumotlarini uchinchi shaxslarga uzatilganligi to'g'risida Mijozni xabardor qilish talab qilinmaydi, bunday shaxsga doir ma'lumotlar Bank tomonidan ogohlantirmasdan to'planishi, ishlov berilishi, uzatilishi mumkin;
- ushbu rozilik Mijozning shaxsga doir ma'lumotlarini to'plash va ishlov berishga roziligi, Mijoz tomonidan berilganligini tasdiqlovchi dalil sifatida uchinchi shaxslarga berilishi mumkin.

3. Mazkur rozilik O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga zid bo'lmagan har qanday tarzda quyidagicha berilishi (uning taqdim etilishi tasdiqlanishi) mumkin, shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda:

- yozma ravishda qog'ozga;
- elektron raqamli imzo bilan imzolangan elektron hujjat shaklida;
- boshqa har qanday usulda (telefon yoki boshqa kommunikatsiya vositasi orqali, Internet-resurslarning maxsus belgilangan maydonlariga tegishli belgilar qo'yish orqali, axborot tizimlarida, apparat-dasturiy komplekslarida, dasturiy ta'minotda yoki servis dasturiy mahsulotida rozilik berishni ifodalovchi harakatlar sifatida ko'rsatilgan harakatlarni amalga oshirish orqali (masalan, foydalanishni davom ettirish)) foydalanish bilan Bank tomonidan belgilanadigan O`zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lmagan himoya harakatlarining elementlarini qo`llagan holda. Himoya harakatlarining bunday elementlari sifatida muhrlar, algoritmlar, kodlar (raqamli, harfli, belgilar va kombinatsiyalangan), identifikator-so'zlar yoki identifikatsiya kodlari, shifrlash, biometrik ma'lumotlar yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lmagan boshqa himoya usullari bo'lishi mumkin.

Men Bankdan, shuningdek ularning sheriklaridan axborot va reklama xabarlarini olish maqsadida ushbu shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishga o`z roziligimni beraman.